

**G. H. Iskanova**

**POLIKLINIK  
PEDIATRIYA**

**2016**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Gulshan Holdorovna Iskanova**

**Bilim sohasi - Ijtimoiy ta'minot va sogliqni saqlash - 500000**

**Ta'lif sohasi – Sogliqni saqlash 510000**

**"PEDIATRIYA"**

**fanidan**

**"POLIKLINIK PEDIATRIYA"**

**o'quv q o'llanmasi**

**Davolash ishi - 5510100**

**Kasb ta'limi – 5111000**

**y o'nalishlari uchun**

**TOSHKENT-2016**

**—4/581—**

## **Annotaciya**

O'quv q o'llanma umumiy amaliyot shifokori (UASH) bolalar kasalliklarini profilaktikasi, diagnostikasi va ambulator davolash bo'yicha tayyorlashga bagishlangan. Umumiy amaliyot shifokori uy sharoitida, qishloq va shahar shifokor punktlarida, oila poliklinikasida, rayon klinik-diagnostik markazlarda, markaziy va tez yordam punktlarida yordam ko'rsatish va extiyoj bo'lganda qo'shimcha tekshirish va davolash maqsadida tegishli tibbiy muassasalariga yuborishni o'z ichiga oladi. Shuni yodda tutish kerakki, bolalar va o'smirlar salomatligini saqlash nafaqat tibbiyot, balki butun jamiyatning vazifasidir. Shuning uchun bu muammoni davlat miqiyosida hal etish kerak. Jinsiy etilish davrida nafaqat gipotalamo-gipofizar sistema va jinsiy bezlarning faolligi ortadi, balki ularda yaqqol revolyusion o'zgarishlar kuzatiladi. Shu bilan birga gormonlar markaziy asab tizimi funksiyasiga ham tasir qilishi natijasida ichki va tashqi omillar bilan bog'liq tarzda o'smirda jiddiy inqiroz yuzaga keladi. Barcha ota-onalar va o'qituvchilar shuni esda tutishi kerakki, "o'tish yoshi"da bolada fiziologik zo'riqish ko'proq bo'ladi. Misol uchun ko'p qizlarda birinchi menstruasiya kuchli og'riq sezgisi, holsizlik, umumiy tonusni pasayishi, hayz qonini ko'proq yo'qotish bilan namoyon bo'ladi. Bolalik davrida emosional sferada u yoki bu ko'rinishda (sababsiz qurg'uvlar yoki uyqu buzilishi, ishtaxa o'zgarishi) bular qisqa davom etib nevrotik reaksiyalar rivojlanadi. O'z navbatida bular bolani normal rivojlanishini qiyinlashtiradi. Agarda ular tez-tez uchrasa sosial dezadaptasiyaga olib keladi. Har xil yoshda sosial muommolar turli

ko'rinishda kechadi. Bola normal rivojlanishi uchun regulyar ona va bola munosabatini yo'lga qo'yish lozim. Bu aloqalar ona qormidaligida boshlanadi, tug'ilgandan so'ng yanada kuchayadi. Bu holat bir biriga bog'lanishini kuchaytiradi. Ona va bola munosabatini bir oz kechikishi erta tug'ish va tug'ruq jaroxati holatlarida vujudga kelib, tez orada yana birlashadi. Bola tug'ilganga qadar homila ichi davridan boshlab psixosasial muommolar vujudga kelishi mumkin. Bu sosial muommolar homila ichi davridan boshlanadi. Bu davrda homila onaning xar bir gapini sezadi. Ona va bola o'rtaida aloqa o'rnatila boradi.

Surunkali kasali bor bolalar reabilitasiysi nafaqat tuzalish balki,bolaning ish qobiliyatni va sog'ligini maksimal darajada oshirishdan iborat. Reabilitastiyaning asosiy shartlaridan biri- bu muntazam ravishda, bosqichma- bosqich stasionar, sanator-kurort davolash, poliklinika ishlarini amalga oshirishdan iborat. Sog'liqni tiklashdan maqsad —bemorning hayot tarzini, bilim olish qobiliyatini,sport bilan shug'ullanish hamda o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatini tiklash va shu bilan birgalikda yo'qotilgan sog'lig'ini tiklab, yangi shart sharoitlarga ko'nikma hosil qilishdir. Sog'lomlashtirish ishlari ketma ket ,bosqichma- bosqich, uzlusiz va tibbiyot xodimlarining kuzatuvi ostida va albatta umumiy amaliyot shifokori nazaratida olib boriladi

СЕВДАЛА СИМОДИНОВА  
ХУСНАДЖИЯН  
СОМОДИНОВА  
ХУСНАДЖИЯН  
30

## **Аннотация**

Приобретение знаний для осуществления полной и правильной диагностики и лечения заболеваний детского возраста имеет свои трудности. Врач общей практики должен распознавать острые состояния и назначить полное и эффективное лечение на уровне СВП (ГВП) в зависимости от категорий услуг или направлять больных к консультанту, специалисту в другое учреждение.

Приобретение навыков для осуществления полного, соответствующего и необходимого уровня обследования больных, выполнения необходимого объема процедур и манипуляций на уровне СВП (ГВП) имеет свои трудности. Это в первую очередь связано с отсутствием книг на латинской графике для групп с узбекским языком обучения. В соответствии с учебной программой, после окончания изучения дисциплины педиатрия ВОП должен знать основные направления Государственных программ развития социальной сферы «Здоровое поколение», «Мать и ребенок» и др; нормативы физического и психомоторного развития детей на возрастных этапах; АФО различных систем детского организма, принципы питания детей в зависимости от возраста и состояния здоровья; круг проблем по воспитанию, формированию и развитию здорового поколения; особенностей наиболее распространенных патологических синдромов детского возраста, влияние социальных, наследственных, климатических и экологических

факторов на их возникновение, распространение и прогрессирование; принципы фармакотерапии наиболее распространенных детских заболеваний, синдромов. Данное учебное пособие посвящен одной из части современной педиатрии - поликлинической педиатрии.

учебное пособие написано на латинской графике узбекского языка. Это очень актуально, так как не хватает учебников на латинской графике для студентов с узбекским языком обучения. Он состоит из следующих отделов- организация лечебно-профилактической помощи детям в условиях поликлиники, современные аспекты оценки состояния здоровья детей и подростков, профилактическая и лечебная работа ВОП, лечебно-профилактическая помощь организованным детям, оказание неотложной помощи детям в условиях поликлиники.

Представлены особенности клинического течения, диагностики, лечения реабилитации и профилактики распространенных детских болезней. Учебное пособие предназначено для студентов, а также для практической работы педиатров, врачей общей практики и клинических ординаторов.

## **Annotation**

Peer-reviewed study guide is dedicated to one of the parts of modern pediatrics - outpatient pediatrics. The manual is written in the Latin alphabet of the Uzbek language. It is very important because not enough textbooks in the Latin alphabet for students with Uzbek language. On consists of the following departments, the organization of medical and preventive care for children in a clinic , modern aspects of assessment of child and adolescent health, preventive and therapeutic work GP practice and health care assistance for children organized, providing emergency aid to children in outpatient settings.

Presented clinical features, diagnosis, treatment, rehabilitation and prevention of childhood diseases ubiquitous. Textbook is intended for students, as well as for the practical work of pediatricians, general practitioners and medical residents . Textbook includes adolescence covers the stage of life between 14 and 18 years. During this period there and completed a number of morphological, physiological and psychological processes, greatly distinguish teenagers from de - children and adults. The process of rebuilding the body cause significant shifts in the formation of personality. Intensively rebuilt mechanisms and neuro-humoral ratio. In adolescence, the most active form specific areas of the brain, there are new links between the different divisions of the nervous system - us. Simultaneously, the rapid growth of the central gray sub - station hypothalamic area through which communication is established between the autonomic centers and the pituitary gland. Under the influence of the pulse

quadrigemina anterior lobe of the pituitary gland releases a nonspecific positive - howling gonadotropin, which stimulates the development of the gonads. Evaluation and monitoring of the physical and psychomotor development of children. Child care is the first year of life and up to five years. Non-specific methods of disease prevention (care, education, hardening, massage, gymnastics). Health groups. Principles of medical examination of healthy and sick children. Principles for the allocation of children at risk. RHealth-care services for children in preschool. Functions doctor nursery school. Rules for the preparation and execution of a child in pre-school educational institution. Preparing children for school, the definition of children's readiness for school. Rehabilitation of sickly children in groups. Practical Skill: monitoring the growth and development of children under 5 years of age. Children's health in adolescence and puberty. The problems of adolescence. Anatomical and physiological characteristics, mental and physical development issues, especially diseases of adolescence, Clinical examination of adolescents. Work in the teenage study. Inspection teenager. Orders of Ministry of Health of Uzbekistan to work with teenagers.

Work leaves a good impression, recommended for publication in the press and spread among students and GPs.

## **I BOB. Umumiy amaliyot shifokorinig profilaktik ishlari**

### **Erta yoshdagи sog'lom bolalarning dispanser nazorati.**

Dispanserizasiya sog'likni saqlash asosi hisoblanadi. Pediatriyada dispanserizasiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, tibbiy xizmatchilar tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy va davolash tadbirdarini o'z ichiga oladi va sog'lom bolalarga nisbatan tegishli profilaktika chora tadbirdar olib boriladi. Shu orqali bolalarni optimal rivojlanishi hamda kasalliklarni erta aniqlanishiga erishiladi. O'tkir kasalliklar kelib chiqqan xolatlarda dispanserizasiya davri bemorni to'liq tuzalishgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Surunkali kasalliklar mayjud bo'lgan xolatlarda esa kasallikni xurujlarini profilaktikasi va bemorni sog'lomlashtirish maqsadida aktiv dinamik kuzatuv olib borish dispanserizasiyaning maqsadi xisoblanadi.

Ma'lum bir xududdagi profilaktik chora tadbirdarining barcha kompleksini pediatr bilan birgallikda maxalla xamshirasi, SBX xamshirasi, emlash xonasi xamshirasi olib boradi. Sog'lom bolalar dispanserizasiyasida mutaxassis shifokorlar va laborantlar ishtirok etadi. Chaqaloqlik davri yakunlangandan keyin tashkillashtirilmagan bolalar dispanser kuzatuvini UASH profilaktik qabullar vaqtida amalga oshiradi. Onalar tomonidan bolalar poliklinikasiga quyidagi berilgan vaqtarda tashrif buyurish tavsiya etilgan:- bola hayotining birinchi yilda –sog'lom bolalar har oy, xavf guruhida bo'lgan bolalar kuzatuvi esa ko'proq bo'lishi kerak;

- bola hayotining ikkinchi yilda – 3oyda bir marta;
- 3 yoshda – 6oyda bir marta;

- bola hayotining 4,5,6 yillarida – bir yilda bir marta, tug'ilgan oyida.

### **Profilaktik ko'rikda UAShning asosiy vazifasi.**

UAShning asosiy vazifasi bolaning rivojlanish va sog'lomlik darajasini aniqlash, bolaning sog'ligida o'zgarishlar mavjuligini aniqlash va shunga ko'ra korreksiyalovchi chora tadbirlarni belgilashdan iborat. Profilaktik ko'riklarning sifatli amalga oshirilishi uchun quyidagi xarakatlar ketma-ketligi tavsiya etilgan:

- bola holatini qabul qilingan mezonlar bo'yicha tekshirish;
- bola sog'ligi xolatini kompleks baholash. Sog'lomlilik guruhi ya xavf guruhini aniqlash;
- bola sog'ligi holatidan kelib chiqqan holda tavsiyalar berish;
- bola rivojlanishi tarixida epikriz shakllantirish.

Poliklinikada profilaktik ko'rikdan oldin bolani uyiga tibbiyot xamshirasi tashrif buyuradi va quyidagilarni aniqlaydi:

- UAsh tavsiyalari qanday bajarilganligi;
- Onasida shikoyatlarning mavjudligi;
- Bolani oziqlantirish xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlar.

Ko'rik vaqtida bolaning teri va shilliq qavatlari rangiga, fiziologik ajralmalariga e'tibor beriladi. Shuningdek bolaning nerv-psixik rivojlanishiga va o'zini tutishiga alohida axamiyat beriladi. Tibbiyot xamshirasi bolani parvarishlash, ovqatlantirish bo'yicha maslaxatlar beradi. Onani uqalash elementlari, gymnastika, chiniqtirish ko'nikmalariga o'rgatadi, hamda bola rivojlanish tarixida o'zining patronajini belgilab qo'yadi va ona-bolani pediatr ko'rigiga taklif

qiladi. Xar bir ko'rik vaqtida pediatr anamnezni qayta tasdiqlashi, bola boshidan o'tkazgan kasalliklar haqida ma'lumotlarni, ovqatlantirish xususiyatlari o'zgarishlarini, sotsial sharoitida o'zgarishlarni analiz qilishi, shikoyatlarni aniqlashi lozim. Qabul vaqtida bolaning antropometrik tekshiruvi o'tkaziladi (tana vazni, bo'yni, bosh va kukrak aylanasi). Jismoniy rivojlanish darajasi monitoring grafigi bo'yicha baholanadi. UA Sh tibbiyot xamshirasining patronaj ma'lumotlariga asoslanib hamda bolaning ota-onasi bilan bolaning nerv-psixik rivojlanishi haqida so'zlashuvdan keyin nerv psixik rivojlanish guruhini belgilaydi. Bunda bola o'zini tutishi alohida obektiv baholanadi. Obektiv tekshiruv amalga oshirilgandan keyin shifokor bolaga quyidagi tashxislardan birini qo'yadi: «sog'lom», «qandaydir patologiya xavfi mavjud» (xavf guruhi) yoki «kasal» (diagnoz), hamda sog'lomlilik guruhi (I, IIA, IIB, III, IV, V) yoki xavf guruhini ko'rsatadi. Qabul vaqtida onaga bolaning umumiyligini tartib rejimi, rasional ovqatlantirish, chiniqtirish muolajalari, bolani tarbiyalash haqida tavsiyalar beriladi. Bundan tashqari bolagaprofilaktika maqsadida vitamin D, temir preparatlari va boshqalar buyurilishi mumkin. Profilaktik emlash masalasi ko'rib chiqiladi, agar qarshi ko'rsatmalar bo'lsa – tibbiy qarshi ko'rsatma ma'lumotnomasi yoziladi. Bola ota- onasi bilan sanitar oqartuv ishlari olib boriladi. Barcha ma'lumotlar bola rivojlanishi tarixiga unifisirlangan yozuv holatida kiritib quyiladi. Organizasiyalashmagan 0-1, 1-7 yoshgacha bo'lgan bolalar profilaktik ko'rugi tarkibi va rivojlanish tarixidagi

yozuvlar avvalgidek qoladi. Xavf guruhiba kiritish uchun asosan quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'tkir kasalliklar bilan kasallanish soni, davomiyligi, og'irligiga (rezistentlikni baholash maqsadida);
- bola organizmi funksional holati va o'zini tutishi baholanadi;
- MTM ga psixologik tayyorgarlik va moslashish prognoziga;
- profilaktik emlashlarning o'tkazilishiga.

Bu yoshdagi bolalar uchun UASH tomonidan beriladigan tavsiyalar

ichida asosiy o'rinni quyidagilar egallaydi:

- bolaning rejimi;
- ovqatlanishida o'zgarishlar;
- chiniqtirish usullari;
- jismoniy tarbiyalash;
- nerv-psixik rivojlanishi (xususan, gapirish ko'nikmalarini rivojlanishiga). Belgilangan tavsiyalar uyda bajarilishini patronaj xamshirasi tekshirib boradi.

### **Laborator va instrumental tekshiruvlar**

Tug'ruqxonada chaqaloqlarga fenilketonuriya, gipotireoz, mukovissidoz, adrenogenital sindrom, galaktozemiyaga skrining tekshiruvlar, audiometrik skrining o'tkaziladi. Bolaning loyligida umumiyl qon, siyidik analizi o'tkaziladi. Bola 1yoshga to'lganida bu tekshiruvlar qaytadan bajariladi. Bola hayotining 1 oyligida (yoki 3oyligida) barcha ichki a'zolar va tos-son bug'implari UTT tekshirivi, EKG tekshirivi qilinadi. 4 yoshligida eshitish o'tkirligi, ko'rish o'tkirligi tekshiriladi, plantografiya amalga oshiriladi, AB o'lchanadi.

### **Erta yoshdagি bolalarnи tarbiyalash va kun tartibi.**

Bolaning kun tartibi deganda qat'iy belgilangan uyqu va uyqudan tashqari, ovqatlanish vaqtி, hamda uyg'oqlik vaqtida turli xil harakat faoliyatini o'z vaqtida almashilishi tushuniladi. Yoshga bog'liq bo'lgan rasional kun tartibi fiziologik jarayonlar ritmini e'tiborga oladi. Shuningdek bola rivojlanishi optimal bo'lishi uchun organizm va tashqi muhitning o'zaro tasirlanishini tashkillashtirib beradi. Bundan tashqari bolaning kun tartibi bolani to'g'ri tarbiyalashning muhim qismi hisoblanadi. Bola dunyoga kelgach, uning MNS funksiyasining rivojlanishi asosan tashqi muhit tasirida amalga oshadi. Shu sababli bolaning MNS funksiyasi uchun uyqu vaqtி aktiv tormozlanishi himoya omillaridan biri bo'lib, uning o'sib borayotgan nerv tizimini tashqi muhitning haddan tashqari qo'zg'atuvchi tasiridan saqllovchi omil bo'lib hisoblanadi. Bola qancha yosh bo'lsa, uyquga bo'lgan ehtiyoj shunchalik yuqori bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa uning holatidan kelib chiqqan xolda, "erkin ovqatlantirish" rejimini tavsiya etish mumkin, ya'ni bola "ovqat talab qilgan vaqtda ovqatlantirish". Ammo bunday kun tartibi qo'llanilganda, sutkalik ovqatlantirishlar (emizishlar) soni 10-12 martadan oshmasligi, hamda emizishlar orasidagi interval 2 soatdan kam bo'lmasligi lozim. "Erkin ovqatlantirish" rejimini barcha bolalarga tavsiya etish mumkin. Chaqaloq bir sutkada 23 soatni uyqu bilan o'tkazadi. Uning aktiv uyg'oqlik davri juda kam bo'ladi va 1 oyning oxirida uyg'oqlik vaqtி 30-40 minutni tashkil etadi.

## Uqalash va gimnastika

Uqalash (massaj) bola organizmiga har tomonlama va faqatgina ijobiy ta'sir qiladi. Massaj tasirida teridan nerv tolalari orqali ko'p sonli impulslar bosh miya po'stlog'iga yunaladi va MNSga tonuslovchi tasir ko'rsatib, uning asosiy funksiyasi – barcha organ va sistemalarni boshqarish vazifasini yaxshilaydi. Ko'krak yoshidagi bolalar uchun kuchli taktil qo'zg'atuvchi bo'lib hisoblangan massaj juda muhim ahamiyatga ega. U ijobiy emosiyalar rivojlanishiga va harakat reaksiyalarini hosil bo'lishiga ahamiyatli ta'sir o'tkazadi. Bolalar massajida massajning barcha klassik usullari ishlataladi: silash, artish, uqalash, vibrasiya, engil urish usullari, nuqtali uqalashning ayrim usullari. Massaj usullari nerv tizimiga turlicha tasir qiladi: silash va yuza artish va uqalash xarakatlari tormozlanish jarayonini kuchaytirib, nerv tizimiga tinchlantiruvchi tasir qiladi. Vibrasiya va chimchilash qo'zg'atuvchi ta'sir qiladi. Massaj muskullarga differensirlashgan ta'sir ko'rsatadi: silash, artish, uqalash muskullar bo'shashishiga olib kelsa, vibrasiya va chimchilash muskullarda qisqarish holatini keltirib chiqaradi. Massaj amaliyotini bajarish vaqtida chaqaloqlar terisi quruq yupqa, tez shikastlanuvchan ekanligini yodda tutish lozim. Shu sababli massaj amaliyoti boshida barcha xarakatlar (silash) ehtiyojkorlik bilan bajarilishi va ximoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Keyinchalik asta sekinlik bilan boshqa usullarni ham kiritish mumkin bo'ladi. Masalan: artish, engil urish usullari (1 va 2 barmoqlar bilan), yozish usuli. Amaliyot intensivligi va davomiyligi asta sekinlik bilan ortib boradi.

## Klassik va segmentar massaj usullari texnikasi.

Qo'l bilan bajariladigan massaj usullariga quyidagilar kirdi:

silash (tekislikda va urab oluvchi); artish (tekislikda va o'rab oluvchi);  
ezish; vibrasiya;

Bolalar massaji praktikasida asosiy usullardan tashqari qo'shimcha  
usullar ham qo'llaniladi:eshkaksimon silash; chuqur silash; arralash;  
kesishish; shtrixlash; burash; turli yo'naliishda ezish; chayqatish;  
punktirlash; chapak chalish harakati;

chopish harakati.

Massaj usullari qo'lning kaft va kaft usti yuzasi, hamda barmoq

falangalari yostiqchalari bilan amalga oshiriladi. 3-4oylik bolalarga  
klassik massaj bilan birgallikda yo'naltirilgan segmeniar massaj  
usullarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Massaj amaliyotini bajarish ketma-ketligi. Ba'zi mualliflarning  
fikricha massaj amaliyoti ketma-ketligi quyidagicha taklif etilgan:  
orqa; bel sohasi; bo'yin va yoqa sohasi; dumbalar va tos son bo'g'imi;  
sonlar; oyoqlar; ko'krak qafasi va elka bo'g'imlari; qo'llar.

Silash – massaj amaliyotining asosiy usuli hisoblanadi, shu harakat  
bilan massaj boshlanadi va yakunlanadi. Bir usuldan boshqasiga  
o'tish vaqtida ham silash usulidan foydalilanadi. Bu usul butun massaj  
amaliyoti vaqtining 5-10% tashkil qiladi. Silash harakatlari limfa  
tomirlari bo'ylab, periferiyadan markazga, regionar limfa tugunlariga  
yo'naltirilgan holatda bajariladi. Silash harakatlari turlari:

-kaft ichki yuzasi bilan;

-kaft tashqi yuzasi bilan;

-barmoq yostiqchalari bilan.

Kaft ichki yuzasi bilan va barmoq yostiqchalari bilan silash. Kaft bo'sh qo'yilgan holatda bo'lishi va tana terisi bilan zich yopishgan bo'lishi kerak. Birinchi barmoq tashqariga qaragan, qolganlari birlashtirilgan bo'lishi kerak. Massaj qiluvchining qo'li bola terisi bo'ylab sirpanishi kerak, lekin terini surmasligi lozim. Massaj qiluvchi qo'lining bosimi mushak periferik qismidan markazga yo'nalganda oshadi, periferiyaga yo'nalganda kamayadi. Silash bitta qo'l bilan yoki ikkita qo'l bilan alohida bajariladi. Qo'llar parallel xarakatlanadi, yoki alohida harakatlangan holda birin ketin, bir qo'l harakatni yakunlaganda, ikkinchisi boshlaydi. Massaj amaliyoti intensivligini kuchaytirish maqsadida – og'irlik bilan silash amaliyoti bajariladi. Bunda bir qo'l kafti ikkinchisi ustiga qo'yilib massaj amaliyoti bajariladi. Silash harakatlari quyidagicha bo'lishi mumkin: bo'ylama yoki ko'ndalang; zigzagsimon; spiralsimon; tojsimon.

Silash turlari:

Yuza- tekis silash –himoyalovchi usul, massaj qiluvchi kafti bola terisiga biroz tegib turgan holda sirpanadi. Qamrab oluvchi silash – uzlusiz chuqur tasir etish usuli limfa oqimi bo'ylab bajariladi. Massaj qiluvchi qo'li bola terisiga zich yopishgan holatda, harakat sekin bajariladi. Massaj qiluvchi barmoqlari mushaklararo bo'shliqlarga kiradi.

Taroqsimon. Qo'llar musht qilingan xolatda, qo'lning suyakchalari bilan massaj qilinadi.

- Chuqur silash. Kaft ust yuzasi va barmoq ikkita oxirgi falangalar bukilgan sohasi bilan massaj qilinadi.

- Eshkaksimon. Kaft ichki yuzasi barmoqlari oxiri bilan bajariladi. Barmoqlar tekis va yoyilgan xolatda bo'lishi kerak.

- Tojsimon. Bu usul ikkita qo'l bilan bajariladi. Massaj bajaruvchi barmoqlari "qulf" xolatida birlashtirilgan. Bemor qo'li massaj bajaruvchi elkasida yoki stolga tiralgan holatda bo'ladi. Bunday massaj katta bolalar va kattalarga ko'rsatma hisoblanadi, qo'l, son va orqada bajariladi. Artish usuli. Bu usul to'qimani turli yo'nalishda harakatlantirishga asoslangan. Bu usul davomiyligi massaj seansi vaqtining 30-40%ni tashkil etadi.

Artish usulini bajarish texnikasi. Barmoq yostiqchalari bilan artish harakatlari universal usul xisoblanadi. Bunda massaj qiluvchi kafti bola terisiga tiralgan bo'ladi. Massaj qiluvchi barmoqlari bo'sh qo'yilgan holatda, fiziologik bukilgan, barmoq yostiqchalariga erkin va engil tiralgan bo'ladi. Keyin 2-5 barmoqlar bukilib yoziladi va shu yo'l bilan bola terisini surib, oldinga harakat qilinadi. Barmoqlar bukilgan vaqtda teriga bo'lgan bosim oshadi, yozilgandakamayadi. Shunday yo'l bilan tug'ri harakatlar bajariladi. (massaj qiluvchi qo'li sirpanuvchi shilliqurt harakatini eslatadi). Artish usulinig nisbatan universal usuli to'qimani aylana harakatlar bilan joyidan siljitim usuli hisoblanadi. Buning uchun to'g'ri yo'nalishli harakatga aylana harakat qo'shiladi. Bu harakatni ikkita qo'l bilan bajarilgan holda harakat ikkita tomonga yo'naladi: o'ng qo'l soat strelkasi bo'ylab, chap qo'l

soat strelkasiga qarshi yo'nalishda. Artish usuli vaqtida qo'shimcha yordamchi harakatlar:

- Eshgaksimon usul. Katta mushakli yuzalarda qo'llaniladi, usulni musht qilingan qo'llar orqa yuzasi bilan bajariladi.
- Arralash usuli. Kaftning tirsak qirrasi bilan bajariladi, qo'llar bir biriga parallel va qarama qarshi harakat qiladi. Kaftlar orasidagi masofa 2sm. Teri bumasini kaft qirrasi bilan artilgandek harakat qilinadi.
- Shtrixlash 2-3 yoki 2-5 barmoq uchlari bilan bajariladi. Barmoqlar yoyilgan holatda bo'ladi va barcha yo'nalishlarda bajariladi. Ezish. Ezish usuli massaj vaqtining 50% ini tashkil qiladi. Uning tarkibiga: o'rab olish; tortish; siqish; bosish; chuqur artish; to'qimalarni joyidan surish. Sekin, chuqur va uzoq davom etuvchi ezish vaqtida reflekslar pasayadi va bosh miya po'stlog'ini qo'zg'alishi pasayadi. Aksincha, tez, yuza va qisqa ezishda mushaklar tonusi ortadi va qo'zg'aluvchanlik ham ortadi. Ezish turli yo'nalishlarda bo'ylama, ko'ndalang, spiral olib boriladi, bir yoki ikkita qo'l bilan amalga oshiriladi.
- Ezish usulini bajarish texnikasi:
  - Bo'ylama ezish mushak tolasi yo'nalishi, mushak o'qi bo'ylab amalga oshiriladi. Massaj qiluvchi qo'li to'g'ri bo'lishi kerak, 1-barmoq massaj qilinuvchi muskul ustida turadi. 2 -va 5- barmoq

massaj qilinuvchi sohani ushlab oladi. Qo'llar mushak yo'nalishi bo'yicha harakat qiladi va barcha massaj xarakatlari bajariladi.

- Ko'ndalang ezish – massaj qiluvchi qo'llari mushakga nisbatan ko'ndalang qo'yiladi, qo'llar orasidagi masofa kaft uzunligida bo'ladi. 1-barmoq kaftga nisbatan perpendikulyar qo'yilgan bo'ladi. Usul quyidagicha bajariladi: mushak 2-5 barmoqlar tomoniga yo'naltirilgan holatdatortiladi; so'ng 1-barmoq tomoniga yo'naltiriladi; so'ng mushakni ezilgan holatdan bo'shholatiga keltiriladi. Ezish usulida qo'llaniladigan qo'shimcha usullar:

-Yoyish – massaj qiluvchi qo'llari bilan mushakni ikkita tomondan ushlab oladi. Barmoqlar to'g'ri vabir-birigaparallel holatda bo'ladi. Xarakat qarama qarshi yo'nalishda va mushakka ko'ndalang xolatda bajariladi.

Burash – bir qo'l bilan to'qimani ikkinchi to'qima ustiga buraladi. Boshqa qo'l bilan to'qimani ushlab ikkinchi qo'lga yaqinlashtiriladi.

Siljitisht- kaftlar massaj qilinuvchi sohaga joylashtiriladi, orasidagi masofa 3-5 sm, to'qimani siljitim, burma hosil qilib ritmik harakatlar bajariladi. Qo'l harakati bilan qarama qarshi yo'nalishga to'qimalar tortiladi.

-qarama qarshi yo'naltirilgan ezish – ("kosichka") ikkala qo'l bilan to'qima ushlab olinadi va qo'llar qarama qarshi tomonga harakat qildiriladi va teri burmasi buziladi; so'ng harakat teskari yo'nalishda mushak bo'ylab bajariladi.

Qisqichsimon usul – usul 1- va 2- yoki 1- va qolgan barmoqlar bilan bajariladi, barmoqlar qisqich sifatida harakat qilishi kerak. Mushakni

chuqur ezish harakati bajariladi. Bu usulni yuzda, elkada, bo'yinda va orqada massaj qilganda qo'llash mumkin.

Bosish – barmoq yostiqchalari bilan og'riq nuqtalari va nerv tolalari chiqish joylariga barmoq yostiqchalarining vintsimon harakati bilan chuqur bosish orqali amalga oshiriladi.

Vibrasiya – bu usul barcha to'qimalar, shuningdek suyaklarga cha chuqur tasir qila oladi. Vibrasion massajning bajarilish texnikasi uzlusiz va uzlukli vibrasiya farqlanadi. Uzlusiz vibrasiya. Bu usulni bajarish davomida massaj qiluvchi qo'li bemor terisidan uzilmaydi. Uzlukli vibrasiya – bemor terisi bilan har bir tasirlanishdan keyin massaj qiluvchi qo'li orqaga qaytadi, urish harakatlari birin ketin barmoqlar yostiqchalari yoki kaft bilan amalga oshiriladi.

Vibrasiya usulini qo'shimcha harakatlari:

Chayqatish – alohida barmoqlar yoki kaftlar bilan turli yo'nalishda bajariladi. Usul unni elashni eslatadi. Silkitish usuli – usul oyoq va qo'lda bajariladi va bu usulni bajarish uchun qo'lni bilak uzuk, oyoqni tovon qismidan fiksasiya qilinadi.

Chopish usuli. Baroqlar yozilgan holatda va kaft tisak qirrasi bilan bajariladi. Kaftlar orasidagi masofa 2-3 sm. Qo'l harakatlari faol va ritmik bo'lishi lozim va mushak yo'nalishi bo'yicha harakatlanadi.

Chapak chalish – kafning oldingi tomoni bilan bajariladi. Baroqlar birlashgan va havo yostiqchasini hosil qiladi. Usulni ko'krak, orqa, oyoq-qo'llarda bajarish mumkin. Yoshi katta bolalarda qo'llaniladi.

Mushtlash – musht qilib yiqilgan qo'lning tirsak qirrasi yoki barmoqlar tashqi yuzasi bilan, bir yoki ikkita qo'l bilan bajariladi.

Punktirlash. 2-5 barmoqlar yostiqchalari bilan bajariladi, bir yoki ikkita qo'l bilan (“barmoqdushi”). Qorin sohasi massaj qilinganda jigar va jinsiy a'zolar, orqa sohasi massaj qilinganda buyraklar ehtiyoj qilinishi kerak. Gimnastikaning muhim jixatlari.

Xarakat chaqaloqning o'sishi va rivojlanishi uchun juda muhim xisoblanadi. Sistematik mashg'ulot natijasida xech bir tizim o'zgarishsiz qolmaydi. Bu o'zgarishlar birinchi navbatda mushak, suyak, yurak-qon tomir va nafas olish sistemasi uchun ta'luqli bo'lib, u shakllanish davrida juda muhim hisoblanadi. Gimnastik mashg'ulotlar qancha erta boshlansa, dinamik stereotip va turg'un natijalar shunchalik oson shakllanadi. Gimnastika mashg'ulotlarida ko'proq e'tiborni hayot davomida tez-tez ishlataladigan ko'nikmalarga qaratish kerak.

Bola xayotini birinchi yarim yilligida chalqancha holatdan qoringaag'darilishga to'gri o'rgatish kerak, chunki bu jarayonlarni noto'g'ri bajarilishi umurtqalar deformasiyasiga olib keladi. 6 oylik bo'lganda esa, emaklash o'rgatiladi, bunda faqat qo'li bilan emas, balki oyoqlari bilan hamxarakatlantirish lozim, aks xolda oyoqlari rivojlanishdan ortda qolishi mumkin. Bir yoshdan boshlab bola yurishga o'rgatiladi, buni natijasida qomat to'g'ri shakllanadi.

Quyidagi shartlarga rioya qilish kerak: Birinchidan, mashqlar bolani yoshiga va funksional imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Ikkinchidan, mashq uslubi ham yoshiga mos kelishi kerak. Psixomotor

rivojlanishda muammosi bor bolalar uchun massaj va gimnastika sog'lom bolalarga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega. Maxsus harakat rejimi ko'pincha kompleks davoning asosiy elementi va reabilitasiyaning effektiv vositasi bo'lishi mumkin.

Massaj va gimnastikaga qarshi ko'rsatma:barcha o'tkir isitmali kasalliklar; gipotrofiyani o'tkir shakllari (atrofiya); teri, teri osti klechatka, limfa tugunlar, muskul, suyakni yiringli va boshqa o'tkir yallig'lanishli jarohatlari (ekzema, pemfigus, impetigo, limfadenit, flegmona, osteomielit), suyaklarni sinuvchanligi bilan kechadigan kasalliklar; raxitning avj olgan davrida, kasalliklarni giperesteziya ko'rinishidagi o'tkir kechishida; yiringli va boshqa o'tkir artritlarda, suyak va bug'im silida; subkompensasiya, dekompensasiya bosqichidagi tug'ma yurak nuqsonlarida; turli shakldagi gemorragik diatezlar, ayniqsa gemofiliyalarda; tutqanoq sindromida; o'tkir nefritlar; o'tkir gepatitlar; silning faol shakllari; kindik, son, chov, yorqoqni katta churralarida, churra qisilishiga moyillik bo'lganda. Dekompensasiyalangan gidrosefaliyada massaj alohida ehtiyyotkorlik bilan o'tkaziladi.

Massaj va gimnastika uchun shart-sharoitlar.

Massaj istalgan qattiq yuzali joyda qilinadi, yurgaklash stoli bunga ko'proq mos keladi. Stol ustiga toza yo'rgak solinadi, uni ostiga taglik, ikki qavatli mato qo'yiladi. Stolni xonaga joylashtirishda chaqaloq qaqrar tomonlama yaqinlashish imkoniyatini qisobga olish kerak. Xona harorati 20 °C dan past bo'lmasligi lozim .Massaj va gimnastika ovqatlantirishdan 0,5-1 soat oldin yoki ovqatlantirgandan

40-45 minut keyin o'tkaziladi. Bunda massaj qiluvchi qo'li toza bo'lishi kerak. Massaj harakatlarini engillashtirish va terini himoyalash uchun turli bolalar kremi, yoq'lar, upalardan foydalanish mumkin.

1-3 oylik sog'lom boladagi massaj va gimnastika. Bola hayotining birinchi oylarida bukuvchi guruh muskullarini fiziologik gipertonusi saqlangan bo'lganligi sababli faqatgina yozish bilan bog'liq reflekslardan foydalanish kerak. Bunda barchaaktiv harakatlar prinsipiiga asoslanadi. Bukuvchi muskullar tonusini balandligi sababli passiv harakatlar bajarilmaydi, chunki bu xolat chaqaloqni kuchli qarshilik ko'rsatishi bilan boradi. Demak, kundalik mashg'ulotlardan asosiy maqsad bo'lib, oyoq qo'ldagi bukuvchi va yozuvchi muskullar ishini muvozanatga keltirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagilar zarur: "umumiy tetiklashtirish"ni stimullaydigan muloyim muloqot; bolani tez-tez qorni bilan yotqizish; xar kungi iliq vanna va chumiltirish; butun tana yuzasini engil silash; bolani yozuvchi muskul bilan bog'liq aktiv harakatini stimullahash. Bunda tug'ma reflekslarni xarakat fondidan foydalaniladi.

3-4 oylik sog'lom bolaga xos massaj va gimnastika.

Bu muddatda massaj mashg'ulotlari ancha intensiv bo'lib boradi. Yangi rejim ya'ni artish usuli qo'shiladi. Artish usulini bajarishda biroz bukilgan barmoq yostiqchalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari halqali artish usulini ham qo'llash mumkin. Tanani massaji silash bilan boshlanib, silash bilan yakunlanadi. Bu bolani tinchlantirib, mushaklarni yaxshi bushashishiga yordam beradi.

3-4 oylik bola uchun mashg'ulot maqsadi: oyoqlar tonusini normallashtirish; tanani uzgartirilganqolatida ilk kunikmani tarbiyalash; qo'l epchilligini shakllantirish; Bunga yordam beradi: bola bilan tez-tez muloqot; quliga ushlash uchunqulay bulgan uyinchoqlarni berish; qar kungi iliq vanna va chumiltirish; massaj; tug'ma reflekslar asosidagi aktivqarakatlar; vibrasiya bilan passiv mashqlar;

4-6 oylik sog'lom boladagi massaj va gimnastika.

4-6 oylik bola uchun mashg'ulot maqsadi: Oyoqlar tonusini oxirigacha normallashtirish; tovonni tayanch reaksiyasini tarbiyalash; bolaga buyumlarni ushlashni urgatish; xarakatlar maromini shakllantirish.

Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak: mashxulot paytida bola bilan muloyim munosabatda bulish; tug'ma reflekslarga asoslangan faol mashg'ulotlar va bolani ovqatlanishiga harakat qilish; passiv mashg'ulotlar; yoshiga mos uyinchoqlar; chumilish; butun tanaga nisbatan jadal bulgan usullarda uqalash; Bu yoshdagi bolalar massaji yanada davomli va murakkab bo'lib boradi. Silash vaartishdan tashqari yangi usul- ezib uqalash usuli kiritiladi.

Xarakatlar bir maromda, yumshoq, o'rtacha tempda bo'lishi kerak (xamir qorgandagi qul harakatini eslatadigan). Keskin harakatlar va terisini barmoqlar orasida qisilib qolishidan saqlanish kerak. Muskullarni mustaxkamlash uchun stimullovchi usul – chimchilash qo'llaniladi. Bu usulni tez, engil, bir maromda amalga oshirish kerak. Yuqoridagilardan tashqari quyidagi mashqni ham foydali deb

xisoblashadi: bunda bolani oyoqlaridan ushlab, dastlab bir tomonga keyin boshqa tomonga harakatlantiriladi, shu vaqtida bolani butun tanasi bir qo'ldan ikkinchiquulga o'tib turishi kerak. Chap tomonga harakat qilinganda tayanch chap qo'lga, o'ng tomonga harakat qilinganda tayanch o'ng qo'lga bo'lishi kerak. Mashg'ulot bir necha bor takrorlanadi. Agar bola o'z qo'liga ishonch bilan tayansa mashgulot yaxshi bajariladi. Baquvvat bolalarda 4-oyligidan, biroz nimjonlarda 5-oyligidan boshlab bu mashg'ulot tayinlanadi.

6-12 oylik sog'lom boladagi massaj va gimnastika.

6-12 oylik bola uchun mashg'ulot maqsadi:chaqaloqni emaklashga urgatish; xarakatlar maromi va koordinasiyasini tarbiyalash; gaplarni tushunishni shakllantirish. Buning uchun quyidagilar zarur: mashg'ulot vaqtidagiqisqa, aniq jumlalar bilan suxbat; manej yoki krovatdan tashqarida bolaga erkinqarakatlanish imkonini berish; koordinasiyasi bo'yicha yanada mukammalroq qarakatlarni kiritish.

Orqa, qorin va ko'krak soxasining massaji yanada quvvatlovchi va turli-tuman ko'rinishlarda bo'lib boradi. Buning uchun barcha tanish usullardan foydalansa bo'ladi: silash; artish; ezish; vibrasiya va boshq. Mushaklarni bo'shashtirish amaliyotida nuqtali massaj (nuqtali vibrasiya) ko'proq natija beradi. Bu quyidagicha bajariladi: barmoq yostiqchasi bilan ma'lum bir nuqtaga bir vaqtning o'zida barmoqni uzmashdan vibrasiya bilan bosiladi. Tebranuvchi harakatlar qisqa va tez bo'lishi kerak. Agar uni tezligi to'lqinsimon o'zgartirib turilsa yanada yaxshi natija beradi. Nuqtaga berilayotgan bosim ham yuzadan chuqur sohaga qarab o'zgartirib boriladi. Qo'ldagi bukuvchi

## **Chiniqtirish**

mushaklarini bo'shashtirish uchun nuqtali massaj (tormoz usuli) ko'proq natija beradi yoki qo'l va ko'krak qafasi soxalarida silash usulini ham qullasa bo'ladi. Massajning bu usullari passiv mashg'ulotlar bilan birga yoki ular bilan almashtirgan holda olib boriladi. Bu mashg'ulotlar qo'l mushaklarining etarli darajada bo'shashganidan so'ng bajariladi.

chigarkishda aga nech

## **Chiniqtirish**

Chiniqtirish muolajalari faqatgina tashqi muhit faktorlariga chidamliligi bor va sog'lom bolalarga o'tkaziladi. Shu bilan bog'liq holda, chala tug'ilgan, tez-tez kasal bo'ladigan va surunkali patologiyasi bor bolalarda chiniqtirish muolajalari to'la hajmda emas, balki ehtiyyotkorlik bilan olib boriladi. Bolani o'sish va rivojlanish davrida turli xil chiniqtiruvchi muolajalarni o'tkazish mumkin. Bolalar uchun birinchi chiniqtiruvchi muolaja bu -havo vannalaridir. Uni 2-oyligidan boshlab qo'llash mumkin. Havo vannalarida chiriqtirishdan 1-2 hafta o'tgach, suv bilan chiniqtiriladi. Nam artishni 2-3 oyligidan, suv bilan chiniqtirishni 3-4 oyligidan oldin o'tkazish mumkin emas. Gimnastika va masajni esa 1,5-oyligan boshlab o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Havo vannalari orgnizmga kam miqdorda tasir ko'rsatadi. Ular xonada (yilning sovuq kunlari), yoki toza havoda (yozdasi) o'tkaziladi. Xona haroratida 20-22 gradus dan boshlanib, keyinchalik, 1-2 yoshida 19 gradusgacha tushiriladi. Ilk muolajalar davomiyligi 1 daqiqa. Har 5 kunda muolaja davomiyligi 2 daqiqaga oshirib boriladi. 6-oylik bola 15 daq., keyinchalik esa 30 daq.

davomida muolaja qabul qilishi mumkin. -1 kunda bir marotaba olinadi, harorat tushib borishini yomon o'tkazadigan bolalarga xona haroratini doimiy ravishda tushirib borish va tanasini o'rash tavsiya qilinadi. O'RVI, o'tkir yuqumli kasalligi, noaniq isitmasi bor bolalarga havo vannalari qarshi ko'rsatma hisoblanadi. Kasallikdan keyingi muolajalar xuddi birinchi mashg'ulotdagidek boshlanadi.

#### **Ultrabinafsha (UBN) nurlari bilan chiniqtirish.**

UBN organizm chidamliligiga aktiv tasir ko'rsatadi, rahit rivojlanishini oldini oladi, maxsus antitelolar, agglyutininlar, leykositlarni fagositar faolligini oshiradi va bolalarda allergik holatlarni kamaytiradi. UBN bilan chiniqtirish davomida eritema hosil bo'lishi – ultrabinafsha nurlanishning o'ziga xos xarakterli tasiri hisoblanadi. Profilaktika maqsadida umumiyli UBN li chiniqtirish simob-kvarsli lampalar bilan o'tkaziladi. Lampadan 3 m uzoqlikdagi o'rtacha biodoza 2-3 daqiqani tashkil etadi. Nurlantirishni boshlang'ich dozasi biodozaga teng va u 2,5-3 biodozagacha olib boriladi. Kuz-qish mavsumida, kun qisqa tumanlarda 1-2 kurs nurlantirish, 2-2,5 oy tanaffus bilan beriladi. Quyosh nuri bilan chiniqtirish. Yorug'lik-havo vannalari bolaning birinchi yoshida, shamolsiz quruq havoda, 22 gradus va undan yuqori haroratda o'tkaziladi. Biroz katta yoshli bolalarda (1-3yoshda), muolajalar 20 gradus haroratda o'tkazilishi mumkin. Yorug'lik havo vannalari bolani yotgan holatida va aktiv holatida o'tkazilishi mumkin. Birinchi vanna o'tkazilish davomiyligi 1 yoshli bola uchun 3 daq., 1 yoshdan 3

yoshgacha bo'lgan bolalarda- 5 daq., 4-7 yoshida – 10 daq.ni tashkil etadi. Har kun muolaja davomiyligini orttirib borish mumkin. Xatto 30-40 daq. va undan ko'proq vaqt davomida o'tkazilishi ham mumkin. Muhimi bolaga noqulaylik bo'lmasligi kerak. O'RI, isitma, chuqur chala tug'ilganlik muolaja uchun qarshi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Quyosh vannalarida chiniqtirish muolajasi vaqtini to'g'ri dozalash eng muhim hisoblanadi. Quyoshga chiqarishdan oldin bolaga bosh kiyimi kiydiriladi. Tik tushayotgan quyosh nuri bolaga jiddiy zarar keltirishi mumkin. Sayir vaqtida bolani harakatlarini kuzatib turish kerak. Holsizlik, charchoq, gipotoniya belgilarini paydo bo'lishi oftob urganidan dalolat beradi. Vanna davomiyligi 15-20 daq.ni, soni esa bir yoz mavsumida 20-30 tani tashkil etadi. Suvli muolajalar nam artish, suv quyish, cho'miltirish, suzish orqali bajariladi. Artish va suv quyish maxalliy va umumiy bo'lishi mumkin. Nam artishlar (1 oy ligidan) suvda namlangan va yaxshilab siqlgan mato vositasida o'tkaziladi. Dastlab barmoqdan elkagacha, tovondan songacha, keyin kukrak, qorin va oxirida orqaartiladi. Tanani har biri qismi to'liq quriguncha, biroz qizarguncha artiladi. Bunda suv muolajasi massaj bilan birgalikda o'tkaziladi. Bir muolaja davomiyligi 1-2 daq.ni tashkil etadi. Artish uchun suvning dastlabki harorati 3-4 yoshli bola uchun – 32°C ni, 5-6 yosh uchun – 30°C ni, 6 bolalar uchun – 28°C ni tashkil etadi. Har 2-3 kundan keyin harorat 1 °C ga tushiriladi va 3-4 yoshli bolalar uchun yozda 22 °C ni, qishda esa 25 °C ni; 5-6 yoshli bola uchun tegishli ravishda 20 – 24 °C? 6-7 yoshli bola uchun 18 – 22 °C ni tashkil etishi kerak. Artishdan keyin bolani albatta issiq kiyintirish

kerak. Agar muolajalar orasida uzilish bo'ladigan bo'lsa, dastlab quruq, keyin nam artish bilan muolaja boshidan boshlanadi. Suv harorati boshidan boshlanganida avvalgidek, lekin keyin biroz keskin tushiriladi. Nam artishdan 2 hafta o'tgach maxalliy ya'ni oyoq vannalari o'tkazilishi mumkin. Bunday muolajalar uchun yoz oyi qulay hisoblanadi. Oyoq ga qo'yiladigan suv harorati 28°C ni tashkil etadi, keyinchalik har hafta 1°C ga tushirib boriladi. Suvning eng past haroratini chegarasi – 20 °C ni, 3 yoshdagি bola uchun esa – 18°C ni tashkil etadi. Muolaja davomiyligi 15-20 soniya bo'lishi kerak. Muolaja oxirida bola yaxshilab quritiladi. Kontrastli oyoq vannalari organizmni tashqi xaroratning pasayishiga chidamliligin oshirishda yaxshi natija beradi. Bu muolajani o'tkazish metodikasi: bir idishga alohida 37-38°C li, boshqasiga shundan 3-4°C ga past haroratdagi suv quyiladi. Suv sathi boldirning o'rta sigacha kelsa maqsadga muvofiq bo'ladi. 7 kun suv harorati o'zgartirilmaydi. Keyinchalik 2 chi idishdagi suv harorati xafatasiga 1°C ga tushirib, 10°C gacha olib boriladi. Bolani oyoqlari 1-2 daq. issiq suvga, keyin esa 10-15 soniya sovuq suvga tushiriladi. Muolaja oyog'ini sovuq suvga tushirish bilan yakunlanadi. Bunday almashtirib suvga tushirish soni 3-4 martani tashkil etadi. Oyoqlarini sovuq suvga tushirish davomiyligi doimiy ravishda 15-20 soniyaga oshirib boriladi. Almashtirishlar soni 6 tagacha etkaziladi. Muolaja oxirida bola oyoqlarida engil giperemiya paydo bo gradus lguncha artiladi. Bu muolajaga adaptasiya paydo bo'lgach umumiy suv bilan chiniqtirishga o'tiladi. Bunda chaqaloq turgan yoki o'tirgan holatda bo'lishi mumkin. Egiluvchan shlang

Bo'lgan bolalardagi muolajada quritib artiladi. Bo'lgan bolalarda dastasi boladan 20-30 sm uzoq masofada ushlab turiladi. Dastlab orqa, keyin ko'krak, qorin va oxirida o'ng va chap elka yuviladi. Muolajadan keyin bola quritib artiladi. I yoshgacha bo'lган bolada dastlabki muolajadagi suv harorati 36°C bo'lishi kerak. Har haftada 1°C dan pasaytirib boriladi va 28 °C gacha tushiriladi. Iyoshdan 3 yoshgacha bo'lган bolalarda qishda suv harorati 34°C dan 28°C ga, yozda 25-24°C gacha tushiriladi. Maktabgacha davrdagi bolalarda 33°C dan boshlanib, 24-22°C gacha tushiriladi. Sovuq ob-havo sharoitida suv harorati 24 °C dan past bo'lmasligi kerak. Muolaja davomiyligi 30 soniyadan 1,5 daqiqagacha bo'ladi. Xona harorati 20 °C dan past bo'lmasligi, issiq kunlari xonadan tashqarida 18 °C bo'lishi kerak.

### **Uyushmagan maktabgacha bo'lган bolalarda o'tkaziladigan profilaktik ishlар. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni**

**tayyorlash.**

Bolani bolalar jamoasiga qo'shilishga tayyorlash hayotining 1-kunidan boshlanishi kerak. MTM ga qabul qilish uchun qator qarshi ko'rsatmalar mayjud: xamma kasalliklarning o'tkir davri; -surunkali kasalliklarning maxsus davoni talab qiluvchi xuruj davri; -o'tkazilgan infekzion kasalliklar izolyasiya muddatining oxirigacha; -basilla tashuvchanlik (ichak infeksiyasi, difteriya); -kuz va terining barcha yuqumli vaparazitar kasalliklarini davolash va nazorat-kuzatuv davrida; -yomon sifatli anemiya, leykemiya, o'smalar;

- o'pka va boshqa organlar tuberkulyozining har qanday formasi;

-tutqanoq xurujlari, epilepsiya;

-psixonevrozlar, psixopatiyalar;

-Individual parvarish va davoni talab qiladigan endokrin kasalliliklar;

-zahm kasalligining yuqush davri, suzak kasalligining sog'ayish bosqichlarida;

Sog'lom bolani MTM ga tayyorlash 2 bo'limga - umumiy va maxsus tayyorgarlikka asoslanadi.

- umumiy tayyorgarlik oilaviy tarbiyada bola sog'ligining optimal holati va garmonik rivojlanganlikni taminlash uchun o'tkaziladigan davriy profilaktik kuzatuvlardan iborat. Bolaga to'g'ri o'tkaziladigan davriy profilaktik kuzatuvlar tug'ilgan vaqtidagi maxsus tayyorgarlikni osonlashtiradi va qisqartiradi.

- maxsus tayyorgarlik bola hayotining 2-yarim yilligidan boshlanadi, chunki juda ko'p bolalar ko'pincha MTM ga 1,5 yoshdan keyin borishadi. Agar bolani oldinroq borishi aniq bo'lsa maxsus tayyorgarlik 3 oyligidan boshlanadi. U quyidagi tadbirdardan iborat:  
Sanitar oqartiruv ishlarini uchastka xamshirasi tibbiy personal kabinetida bolaning ota-onasi bilan MTMdA bolani yo'naltirishga oid savol-javoblar bilan erkin suhbat ko'rinishida o'tkazadi; Dispanser kuzatuvi bolada UASH, maxsus tor mutaxassislar tekshiruvi asosida olib boriladi. MTM ga qatnashishidan oldin har 2-3 oyda laborator tekshiruvlardan o'tkaziladi; Sog'liq holatiga bog'liq xolda sog'lomlashtirish, davolash va oxirgi dispanserizasiya natijalariga tayangan holda olib boriladi. Anamnez ma'lumotlari va

sog'liq holatiga bog'liq holda UASH bolani adaptasiya jarayoni kechikishining og'irlilik darajasini oldindan aytishi mumkin. Xavf guruhiga kiruvchi bolalar maxsus tekshiruvlar orqali ajratiladi. Chunki ularda MTMga qatnash jarayoni og'ir kechishi mumkin. Erta yoshdagagi bolalar(yasli guruhi) uchun quyidagi faktorlar ahamiyatiga ega: onasining tez-tez kasallanishi; mos kelmaydigan uy sharoiti; bolaning yoshi 9-18 oy; xomiladorlikning 2 yarmidagi toksikozlar; boladagi zararli odatlar; tug'ruq paytidagi asfiksiya; oila madaniyatining pastligi; otaning alkogol iste'moli; ota-onalar o'rta sidagi keskin munosabatlar; nerv-psixik rivojlanishdan orqada qolish; erta suniy ovqatlantirish; rahit II-III daraja, anemiya; chiniqtirilmaganlik va yasliga tayyorgarlikning yo'qligi; tug'ilgandagi tana vazni 2500 gr dan kam, 4000 gr dan yuqoriligi; bola hayotining 1 yilida o'tkazgan kasalliklari; gemoglobin miqdori 116 g/l va kamroqota - onasida surunkali kasalliklar bo'lishi.

Maktab yoshigacha bolalarda bolalar bog'chasida adaptasiya kechishini quyidagi xavf faktorlar og'irlashtiradi ( ular diagnostik ahamiyatiga qarab):

- bolalarda tez tez kasallanish (yiliga to'rt martadan ko'p);
- yaslida qoniqarsiz adaptasiya;
- otasining alkogolizmi;
- ota - onalar o'rta sidagi keskin munosabat;
- bolalar bog'chasiga kelguncha uydagi notug'ri tarbiya;
- boshqa bolalarga bolaning do'stona bo'limgan munosabati;
- onanining alkogol iste'mol qilishi;

- bolaning erkak jinsi;
- yangi muhitga sekin orientasiysi;
- oilaning past madaniyat darajasi;
- tug'ruqdagi asoratlar;
- tug'ilganda tana massasi 2500 g gacha;
- fizik rivojlanishdan ortda qolish.

Adaptasiya kechishini prognozlash amaliyoti maqsadga muvofiq ravishda ikki marta o'tkaziladi- tayyorlanuvchi ishning boshida va bolalarni bevosita MTM ga kirishi oldidan. Birlamchi prognozlashda adaptasiyani engillashtirish bo'yicha qo'shimcha profilaktik tadbirlar rejalashtiriladi, ikkilamchida ularning effektivligi baholanadi va adaptasion davrga bolani kiritish bo'yicha individual tavsiya beriladi. Biologik xavf yuqori darajali bolalarda o'tkir kasallikning oshishini faqat adaptasiya davrida emas, balki bu davr tugaguncha kutish mumkin. Shifokor maktabgacha bo'lgan muassasaga kirishga bolani tayyorlash taxminiy rejasini tuzadi. Tasdiqlangan tashxis listidagi N 112 formasida maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalarga kirishga bolani tayyorlash boshlanishi haqida belgi qo'yiladi. Xamshira massaj va gimnastika maxsus kompleksini, bolaning tomir sistemasi kerakli antistress tayyorgarligini oshirish uchun chiniqtirish metodikasini o'rgatadi, MTM ga kirishga bolani tayyorlashni yanada erta boshlash maqadga muvofiqligi haqida informasiya beradi. Ayrim hollarda onalarga bolalar muassasalari rejimiga bola uy rejimini yaqinlashtirish, qoshiqda ovqat eyishni o'rgatish, shu yoshdagi bolalar va kattalar bilan muloqatni bolaga

o'rgatish, gigienek qoidalarni bolaga o'rgatish-qul yuvish, gorshokdan foydalanishni maslahat beriladi. Tayyorlash vaqtida ovqat, bolalar muassasasi ovqatiga tayyorlanish texnologiyasi va tarkibi bo'yicha yaqin, turlicha bo'lishi mumkin. Xar bir MTMga kiramidan bolaga tayyorlanish rejasini tuziladi. Dispanserizasiya to'liq o'tkaziladi, qisman o'tkazilsa: organizasiya muvofiqligi, ovqatlantirish, bola yoshiga mos tetiklik, muvofiq bo'limgan taxminiy adaptasiya prognozi to'liq baholanadi. So'nggi qonunlashtirilgan muddatlarda tavsiyani bajarish kontroli amalga oshiriladi. Kerakli hollarda tayyorlash bo'yicha reja tavsiyasiga sog'liqlik holati dinamikasiga muvofiq o'zgartirishlar kiritiladi. Bolani MTMga yo'naltiritishda qandaydir patologiya bilan bog'liq bo'limgan chetlanishlar aniqlanganda pedagog bilan konsultasiya qilinadi. UASH xulosa bo'limi ishi adaptasiya davriga tavsiya va prognoz bilan bola individul kartasiga epikrez tuzadi, shuningdek bular qatoriga ovqatlanish, fizik rivojlanish rejimi bo'yicha, fon holatlarda, surunkali infeksiya o'chog'i kuchaygan davrda o'tkir kasallik profilaktikasi uchun sog'lomlashtiruvchidavolovchi tadbirlarni tavsiya qiladi. Tavsiyalar bo'yicha olib borilgan ishlar sifat kontrolini bosh pediatr ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlarga tibbiy yordamni tashkillashtirish bo'limlari bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalarida xavf guruhli bolalar, shuningdek, surunkali kasalliklari bor bolalar va tug'ma rivojlanish nuqsonlari bor bolalarda individual hal qilinadi. Xar bir bolaning holatiga bog'liq holda tor mutaxassis bilan birlgilikda sog'lomlashtirish chora tadbirlari amalga oshiriladi. Asosiy e'tibor

bolalardagi turli premorbid holatlarga qaratiladi. Jumladan: fizik rivojlanishdan ortda qolish; nogarmonik rivojlanish belgilari bilan; 2oydan ko'proq nerv-psixik rivojlanishdan ortda qolish; hayotining birinchi yilida 3 martadan ko'proq va 10 kundan ko'proq kasallanish; konstitusiya anomaliya borligi; rahit, anemiya, allergiya borligi; surunkali kasalliklar bilan; tug'ma rivojlanish nuqsonlari bilan. Bunday bolalarda burun halqum sanasiyasi, og'iz bo'shlig'i sanasiyasi, allergiyaga qarshi terapiya amaliyotlari o'tkazilib sog'lomlashtirilganidan so'ng mакtabgacha bolalar muassasalariga yo'naltiriladi. Korreksion MTMga bu guruh bolalarni yo'naltirishni mediko-pedagogik komissiya hal qiladi. UASH ensefalopatiya bo'lган bemorlarni nevropatolog bilan bирgalikda davolashga alohida e'tibor berishi kerak. MTMga bu bolalarni kiritish muvofiq sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkazilganda mutaxassis xulosasidan so'ng hal qilinadi. O'tkir kasallik profilaktikasi (URVI, gripp va boshqa) hamma bolalarda immunitetning nospesifik himoya mexanizmlarini oshirishga yo'naltirilgan vositalar qo'llanilishi bilan mакtabgacha bolalar muassasalarida kelguncha 1-2 oydan keyin o'tkazilishi shart. Bola o'tkir kasallik holatlarida klinik sog'aygandan so'ng 2 xafadan keyin bolalar kollektiviga yo'nalgan bo'lishi mumkin. Tez-tez kasallanadigan bolalar individual profilaktikasiga alohida e'tibor berish kerak. Tez-tez kasallanadigan bolalarni sog'lomlashtirish bo'yicha ishni mavsumiy xususiyatlarni nazorat qilgan xolda butun yil davomida o'tkazish shart. Yoz oylarida tabiat sog'lomlashtirish faktorlaridan maksimal foydalanish kerak. Bahor,

kuz va virusli kasalliklar oshgan davrda 2-3 haftaga adaptogen, giposensibilizasiyalovchi va antibakterial tasirli o'tlar bilan davo kursi belgilanadi. Bu davrda ko'rsatma bo'yicha umumiylar quvvatlovchi va simptomatik vositalaridan foydalaniladi. Asosiy diqqat maxsus profilaktikaga ajratilishi kerak, kamdan kam hollarda interferonlar bilan davolanadi. Instruksiyaga muvofiq maktabgacha bo'lgan muassasalarda bola kirish oldidan 1 oy davomida profilaktik emlash o'tkazish taqiqlanadi, MTMga kirish oldidan har bir bola qizamiqqa qarshi emlanishi kerak. Adaptasiya davrida bolani kuzatish va tayyorlash effektivligi MTM dagi bolalar adaptasiya davri kechish xarakteri bo'yicha baholanadi. Adaptasiya kechishi haqidagi quyidagi informasiyalar bolalar muassasalaridan poliklinikaga yuboriladi.

MTM ga kirishgacha va kirgandan 2-3 oydan keyin mutahassis ishtirokida chuqur tibbiy ko'rlik o'tkaziladi: xirurg; ortoped; otolaringolog; oftalmolog; nevrolog; dermatolog; logoped (uch yoshdan); psixolog. Bola ko'rsatma bo'yicha boshqa mutaxassislariga ham ko'rsatiladi. Albatta qon, siydiq tahlili, najasni gjijaga, ostrisa tuxumlari mavjudligiga kuzatuv o'tkaziladi. Bolani sog'lomlashtirish tadbirleridan so'ng MTM ga kirish oldidan pediatr ko'zdan kechiradi.

Xamma mutaxassis ko'rigi va analiz natijalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib UASH tibbiy kartaga xulosa yozadi va shu qatorda bola va onaning pasport ma'lumotlari bilan birga quyidagi ma'lumotlarni qayd etadi: onada xomiladorlik va tug'ruq kechish xususiyatlari; emizish va emish xarakteri; klinik tashxis ko'rsatiladi (asosiy, yondosh); bolaning fizik va nerv-psixik rivojlanishi

baholanadi; jismoniy tarbiya uchun tibbiy guruh va sog'lomlik guruhi aniqlanadi; olingan profilaktik emlash va ularga reaksiyasi ko'rsatiladi; infektion kasalliklar bilan bog'liq allergologik anamnez tasdiqlanadi. Individual karta bola tashrif buyurgan muassasada saqlanadi.

### **Bolalarni maktabga tayyorlash.**

Buning uchun birinchi navbatda maktabda o'qitishga bolaning tayyorligini aniqlash zarur. Maktabga kelishga bolalarni tayyorlash maktabgacha bo'lgan davrda doimiy olib boriladi. Maktabga kelgan vaqtida aaniqlangan kasal bolalarni maksimal sog'lomlashtirish maqsadida 3,5 yoshda, maktabgacha bo'lgan yoshda, maktabga kirish yili va 1yildan keyin chuqur kompleks tekshiruvdan o'tkazish kerak bo'ladi. Sistematik o'qitishga bolani tayyorlash morfofiziologik va psixofiziologik rivojlanishiga bog'liq. Maktabda o'qitishga bola tayyorligini aniqlaydigan quyidagi faktorlar mavjud: maktabga muvaffaqiyatli adaptasiyaning asosiy sharoiti; ko'ruv –masofa qabul qilish, bolalar qobiliyati; tekislikda va masofadagi detallar, masofada joylashgan figuralarni farqlash (usti-osti, usti-orqasi, oldi-yoni,yuqori-past, o'ng -chap); oddiy geometrik figuralarni ajratish va farqlash (aylana,oval,kvadrat, romb va boshqa) va qo'shilgan figuralar; shakli va hajmi bo'yicha figuralarni tasniflash; turli shriftda yozilgan harf va sifralarni ajratish va farqlash; fikrlab butun figuradan qism topish. Ko'ruv –motor koordinasiyasi normal rivojlangan bola oddiy geometrik figuralarni rasmini, kesishgan chiziqlar, harflar chiza

oladi. Eshituv -motor koordinasiyasi normal rivojlangan bolalar murakkab bo'lmanan ritmik rasmlarni yasab farqlay oladi, musiqa ostida ritmik xarakatlar bajara oladi. Xarakat koordinasiyasi normal rivojlangan bolalar: xamma turmush xarakat texnika elementlariga ishonch bilan egalik qiladi; Musiqa ostida epchil chaqqon xarakatlarni amalga oshiradi; Velosiped, konkida uchganda, chang'ida yurganda murakkab koordinasiyani tez o'zlashtiradi; Murakkab koordinasiyali gimnastik mashqarni bajaradi; Turmush ishlarini bajarganda, konstruktor bilan ishlaganda, Oddiy grafik xarakatlarni erkin bajaradi (vertikal, gorizontal, oval, aylana); Turli musiqiy instrumentlarda o'ynay oladi.

Intellekt rivojlanishini baholash. Bunda bolalarni kuzatgandaatrot muhit, turmush hayot haqida bilim va elementar tushunchasiga taalluqli bo'lgan savollarni ko'p beradi. Bunday savollarigaaniq va to'g'ri javob olish esa bolada aqliy rivojlanishga xos bo'lgan quyidagi mezonlarning to'gri rivojlanishiga sabab bo'ladi: Jarayon, xodisa, predmetlar guruhi, tasnifi va sistematikasiga, oddiy tushuncha va tasavvurlarni erkin tahlil qilish faoliyatiga; Tabiat obektlari, xodisalari va hayvonlarga mustaqil qiziqish; bilim orttirish motivasiyasi. Diqqat rivojlanishi darajasi - ixtiyoriy diqqat imkoniyatiga, uning turg'unligi pastligi(10-15min) va bolaning individual xususiyatlari va tashqi sharoitga bog'liq. Xotira rivojlanishi va diqqat hajmi quyidagicha baholanadi: Bir vaqtda qabul qilinayotgan obektlar miqdori kam (1-2); Ixtiyorsiz xotira ustunligi, ixtiyorsiz xotiraning produktivligi aktiv qabul qilishda birdan oshadi;

Ixtiyoriy eslab qolish imkoniyati; Ko'rgan tasvirlarni oson eslab qoladi. Logik eslab qolish faoliyati (fikriy munosabat va fikriy guruhlash); Bir obektga diqqatni tez - tez o'zgartirmaslik. Ixtiyoriy reguliyasiya: Xulqning iroda reguliyasiya imkoniyati (ichki qo'zg'alish vaaniqlangan qoidaasosida); Iroda shakllanish, qiyinchiliklarni engish faoliyati.

Faoliyat organizasiyasi – instruksiyani qabul qilish faoliyatida va topshiriqni instruksiya bo'yicha bajarishda paydo bo'ladi. Agar vazifaning aniq tasiri va maqsadi qo'yilsa bolalar o'z faoliyatini 10-15 min da rejalashtira oladi. Nutq rivojlanishi ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuzida paydo bo'ladi. Bola so'zlar va oddiy tovushlarni yaxshi tahlil qiladi, lug'at zaxirada 3,5-7 ming so'zga ega bo'ladi, gapni grammatik to'g'ri tuzadi, tanish hikoyani mustaqil aytish qobiliyati yoki kartinkalar bo'yicha hikoya tuzadi, kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqat (savollarga javob beradi, savollar beradi, o'z fikrini ifodalay oladi) qila oladi. Bolalar turli sezgilarni intonasiya bilan aytta oladi. Ular so'zlashuv vaqtida xamma bog'lovchi va qo'shimchalardan, muloqot so'zları qo'shimcha gaplardan foydalana oladilar. Xulq motivi - yangi ko'rinishdagi faoliyatga, kattalar dunyosiga qiziqish, ularga o'xshashga intilish, ta'limga qiziqish kabi ko'rinishlarda shakllanadi. Bu davrda bolaning tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro munosabatini o'rmatilishini yaxshilash va saqlashga o'rgatib borish kerak.

Bolada shaxsiy rivojlanishda o'zini anglash va o'zini baxolay olish shakllanishida bolalar, kattalar va tengdoshlari bilan munosabat

tizimida o'z – o'rnini anglash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu davrda ular kattalar talabiga javob berishni xoxlaydilar, ular bajarayotgan har xil faoliyatlarida muvofaqiyatga erishishga intiladilar. Ularning o'z - o'zini baxolashi xar xil faoliyat turlarida farqlanishi mumkin, ya'ni ular o'zlarini adekvat baxolashga qodir emaslar, u sezilarli darajada kattalar tomonidan baxolashga bog'liq (pedagog, tarbiyachi, ota-onalar) bo'ladi.

### **Bolalarda ijtimoiy rivojlanish mezonlari**

Bolalarda ijtimoiy rivojlanish mezonlari - kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qila olish, asosiy muloqot qoidalarini bilish; nafaqat tanish balki, notanish holatlarda ham mo'ljalni yaxshi olish; o'z odobini boshqara olish (bolalar ruhsat etilgan chegarani bilishadi lekin ko'pincha bu chegarani kengaytirish mumkin yoki mumkin emasligini tajriba qilishadi); birinchi va yaxshi bo'lishga intilish, omadsizlikdan qayg'urish; kattalar kayfiyati va munosabatining o'zgarishida sezgir munosabat bildiradilar.

Bolani maktab ta'limiga tayyorlash mezonlari: Maktabning 1-sinfiga ota-onalar kuzatuvi ostidagi etti, sakkiz yoshli bolalar qabul qilinadi. Etti yoshli bolalarni 1-sentabrda maktabga qabul qilinganda 6 yosh 6 oyni to'ldirgan bo'lishi kerak. 1-sinfga bolalar qabuli psixotibbiy-pedagogik komissiyaning bolaning ta'limga tayyorgarligi haqidagi xulosasiga asosan amalga oshiriladi. O'quv yili boshlangunicha 6 yarim yoshga to'limagan bolalar tarbiyasi maktab sharoitidagi o'quv-tarbiyaviy kompleks yoki bolalar bog'chasida

barcha gigienik talablar kuzatuvi ostida o'tkazilishi kerak. Bolalar maktabga funksional etuk bo'lib chiqishi kerak. Etilmagan bolalarda o'qish faoliyati organizmning funksional holati va sog'lig'iga yomon tasir ko'rsatishi va ularning ko'pincha ulgurmaydigan bo'lib qolishlari aniqlangan. Funksional tayyor bo'limgan o'quvchilar 1-uquv yiliga moslasha olmaydilar. Bolalarning ta'limga tayyorligini aniqlash mактабда тibbiy va psixofiziologik mezonlar asosida o'tkaziladi.

#### **Tibbiy mezonlar:**

Biologik rivojlanish darajasi- agar jismoniy rivojlanish normal (bo'yи yoshiga mos, vazn-bo'yiga), doimiy tishlarning soni qizlarda 2-6 va undan ortiq, o'g'il bolalarda 2-5 va undan ortiq bo'lsa, biologik yoshi passport yoshiga mos keladi; musbat "filippin" testi. Chidamlilik darajasi: yaxshi - mакtabga chiqishi uchun yil bo'yи o'tkir kasalliklar bilan 3 martadan ko'p og'rimagan bo'lishi kerak. Sog'lomlik holati: Sog'lomlik guruhi 1 yoki kompensasiya holatidagi 3 guruhgа kiritilganligi. O'tgan yil davomida infeksion gepatit, pielonefrit, norevmatik miokardit, epidemik meningit, meningoensefalit, sil, aktiv davrdagi revmatizm, qon kasalliklari kuzatilmaganlidir.

#### **Psixo-pedagogik mezonlar:**

Kern-Ierasek psixometrik testi bo'yicha mакtabga etukligi 3 balldan 5 ballgacha baxolanadi. Bunda mакtab bilim va ko'nikmalarining shakllanishi, bolalar bog'chasida tarbiyaviy dasturlarni to'liq hajmda o'zlashtirishi nazarda tutiladi. Shuningdek

deffektsiz tovush talaffuzining sifati va yoshiga mos ruhiy rivojlanish darajasi ham alohida baxolanadi. Bunga ko'ra bolalar R, S, Z kabi harflarni to'liq va ravon talafuz qilishlari kerak. Bolalarni maktab ta'limga tayyorlash va yo'naltirishda quyidagi bolalar olinadi: bolalar bog'chasi dasturini omadli o'zlashtirgan, maktab yetukligi va ruhiy rivojlanish darajasi normal, bajarilgan motometrik testning ijobiy natijasi bilan baxolangan bolalar, shu qatorda biologik yoshi pasportnikiga mos keladigan, kamdan - kam kasallananadigan, surunkali kasalliklar va talaffuz defektiga ega bo'lмаган bolalar kiritiladi. Bu bolalarda biologik anamnezda siljishlar kuzatilmagan bo'lishi kerak. Maktab ta'limga shartli tayyorlash ishlari bolalar bog'chasidagi tarbiyaviy dasturni ma'lum qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradigan, kompensasiya bosqichidagi surunkali kasalliklari bor bolalar bilan olib boriladi. Ular yosh jihatdan biologik yoshi pasportnikidan ortda qoladi. Asab-ruhiy rivojlanishida va xulq-atvorida boshlang'ich siljish kuzatiladi, maktab etuklik ko'nikmasi to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Kern-Jerasek testi 5 balldal 7 ballgacha - "etuk" A variant (prognoz yaxshi); 8 balldan 9 ballgacha - "etuk" B variant (prognoz shartli yaxshi); bajarilgan motometrik testning ijobiy natijasi. 1 yoki 2 ta talaffuz defekti bilan. Maktab ta'limga tayyor bo'lмаганларга -xulq-atvoridagi o'zgarishlar va funksional siljishlar bilan ifodalangan, subva dekompensasiya bosqichidagi surunkali kasalliklari bor bolalar kiritiladi. Maktab ko'nikmalari shakllanmagan (Kern-Jerasek testi – qayta tekshiruvlarda 10 ball va undan ortiq) va biologik yoshi pasportnikiga mos bo'lmaydi. Agar bola boshqa sinamalarga bog'liq

bo'lmanan holatda Kern-Ierasek testidan 10-15 ball olsa etuk hisoblanmaydi. Etilmaganlik mezonlari hisoblanadi:

**Asab-ruhiy rivojlanishdan ortda qolishi;**

**Jismoniy etishmovchilik;**

**Shaxsning asabiy rivojlanishi;**

**Intellektni pasayishi;**

**Kern-Irasek testi natijalarining bahosi.**

Topshiriq № I. «Inson tasviri». Psixofiziologik etuklikni bolalar bog'chasi tarbiyachisi yoki xamshira tekshiradi va yana tibbiyot xamshirasi va poliklinika shifokori o'tkazadi. 6-7 yoshli bolalarni konsultasiya qiluvchi pedagog-psixolog, psixologik metodlar tizimidan foydalanib, bolaning aqliy rivojlanish darajasini aniqlaydi va maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi haqida xulosa beradi: «Maktab ta'limiga tayyor», «Kuchsiz tayyorlangan», «Tayyor emas» va tavsiyaga muvofiqlarini beradi. Xar bir topshiriq 1 balldan(eng yuqori baho) 5 ballgacha (eng yomon baho).

1 ball —Tasvirlangan shaklda(o'g'il bola) bosh, gavda va qo'l-oyoq bo'lishi kerak. Bosh gavdaga bo'yin bilan bog'langan (u gavdadan katta bo'lmasligi kerak). Boshda soch bo'lishi kerak (shapka yoki qalpoq), quloqlar, yuzda kuz, burun, og'iz. Qo'llari 5 ta barmoq bilan tugallanishi kerak. 2 ball —1 ball baholanganidek barcha talablarni bajarishi kerak. 3 ta qismi bo'lmasligi ham mumkin: bo'yin, soch, qo'lning bir barmog'i, lekin yuzning barcha qismlari bo'lishi shart. 3 ball —shaklda ikki chiziq bilan chizilgan bosh, gavda, qo'l va oyoqlar bo'lishi kerak. Bo'yin, quloqlar, soch, kiyim, barmoqlar va

oyoqda tovon bo'lmaydi. 4 ball- boshning qo'l-oyoqlar bilan eng sodda tasviri. Har bir qo'l-oyoq (faqat bir jufti etarli) bitta chiziqda tasvirlangan. 5 ball—Gavda va qo'l-oyoqlarning aniq tasviri yo'q.

Topshirik № 2. «Yozilgan matnni chizish» (rasm. 3-6). Har bir topshiriq 1 balldan (eng yuqori bal 5 ballgacha (eng yomon baho).

“U osh edi». 1 ball - bola chizgan frazani o'qish mumkin. Harflar namunadan 2 martadan ko'p bo'lмаган va 3 ta so'z hosil qiladi. Qator to'g'ri chiziqdan siljigan 30 dan ko'p bo'lмаган holda. 2 ball — gapni o'qish mumkin. Harflar kattaligi namunaga yaqin, ularning tekisligi shart emas. 3 ball —harflar 2 dan kam bo'lмаган guruhlarga bo'linishi kerak. Hech bo'lмагanda 4 ta harfni o'qish mumkin. 4 ball —xech bo'lмагanda 2 ta harf namuna bilan mos. Harflarning hamma guruhlari yozuv holatini saqlagan. 5 ball — oddiy chiziqlar.

Topshiriq № 3. «Nuqtalar guruhlarini chizish »( rasm. 3-7). Har bir topshiriq 1 balldan (eng yuqori baho) 5 ballgacha (eng yomon baho).

1 ball —Namunadan aniq nusxa kuchirish. Aylanalar emas nuqta chizilgan. Simmitrik shakllarning gorizontal va vertikalligi kuzatilgan. 2 ball —Simmetriyada sezilarsiz buzilish bo'lishi mumkin: bitta nuqta qator yoki ustundan tashqariga chiqib qolishi mumkin. Nuqtalar o'rnigaaylanalar tasvirlanishi mumkin.

3 ball —Nuqtalar guruhi namunaga qo'pol o'xshagan. Barcha shakllarda simmetrik o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Burchaklari yuqoriga va pastga o'girilgan shaklning beshburchakka o'xshashligi saqlanilgan, nuqtalar soni ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin (7

dan kam emas, 20 dan ko'p emas). 4 ball — Nuqtalar betartib joylashgan, ularning guruhlari har qanday geometrik shaklni eslatishi mumkin. Nuqtalarning soni va kattaligi muhim emas. Boshqa tasvirlar masalan: chiziqanglab bo'lmaydi. 5 ball — Anglab bo'lmaydigan tasvir. Bajarilgan alohida topshiriqlarning natijalar yig'indisi taqdim etiladi.

Talaffuz sifatini tekshirish . Bolalar so'zning boshi, o'rtasi yoki oxirida R,J,S,Z,S, CH, SH tovushlari uchraydigan buyumlarning rasmini ko'rib, tovush chiqarib aytish kerak. Bitta defektning uchrashi topshiriqning bajarilmaganligini bildiradi. Misol uchun: rak-vedro-topor; juk-liji-noj; shotka-yasherisa-plash;

“Aylanani kesish” motometrik testni bajarish. Bolaga 30 mm diametrдаги qalin chiziqda tasvirlangan aylana chizilgan karton kartochka beriladi, uning atrofida masofada bo'lган ingichka chiziqda tasvirlangan 3 ta katta va 3 ta kichik diametri aylanalar joylashgan. Bola tomonidan chizilgan nuqtalarning rasmi va namunasi bolaga qaychi bilan o'rta qalinlikdagi chiziq bo'ylab aylana qirqish tavsiya etiladi. Bolaning kartochkani kesish boshlanish va oxirgi vaqtini sekundamerda belgilanadi. Agar bola 1 minut ichida 8-9 aylana qirqsa motometrik testni bajargan hisoblanadi. Bola ish jarayonida ingichka chiziqlarning bir yoki ikkitasini kesib yuborishi mumkin, lekin ikkitadan ortmasligi kerak. 2 ta urinishga ruhsat etiladi. Ko'p sonly xatolar va vaqt bir minutdan oshsa test bajarilmagan hisoblanadi. Maktab ta'limga psixofiziologik etilmagan bolalar vaqtinchalik maktabga qabul qilinmaydi. Vaqtinchalik maktabga qabul qilishdan

cheklash biologik rivojlanishdan orqada qolgan bolalarga tavsiya etiladi, ya’ni: jismoniy rivojlanishda mahalliy standart bo'yicha o'rta bo'yidan 15 yoki 10 sm past; Oxirgi yilda bo'yining 4 sm dan kam qo'shilishi; Doimiy tishlarning to'liq bo'lmasligi. O'zlashtirgan bolalar tayyorlov guruhida keyingi yilga qoladi, o'zlashtirmagan bolalar bolalar bog'chasining tayyorlov guruhiga tavsiya etiladi. Maktabga tayyorgarlikni aniqlash bo'yicha shifokorning ishi ikkiga bo'linadi: maktabgacha bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish va maktabgakerakli vazifalarning rivojlanish korreksiyasi ko'rib chiqiladi. Psixofunksional tayyorlikni aniqlovchi birinchi tekshiruv bola maktabga chiqadigan yilining kuzida o'tkaziladi. Bolani UASH, jarrox, ortoped, oftalmolog, otolaringolog, dermatolog, psixonevrolog, logoped, stomotolog va pedagog-psixolog mutaxassislari tekshiruvdan o'tkazadi. Sog'lomlik holati siljigan bolalarga davolash va sog'lomlashtirish tadbirlari komplekslari o'tkaziladi. Nutq rivojlanishida orqada qolgan maktab yoshigacha bo'lgan bolalarga vrach logoped yozib bergen defektni to'g'rilovchi mashqlar kompleksi tavsiya etiladi. Harakatni rivojlantirish bo'yicha mashqlar bolalar bog'chasi tarbiyachisi yoki ota-onalari tomonidan o'tkaziladi. Barcha bolalarga ularning maktabga chiqishidan oldin mutaxassislar bilan qayta ko'rik o'tkaziladi (aprel-mayda). Birinchi tekshiruvlarda maktabga tayyor emaslik belgilari aniqlangan bolalarga bir vaqtda psixofiziologik tekshiruvlar o'tkaziladi. Ushbu maqsadda ota-onalardan bolalarda giperaktivlik bilan vitamin tanqislik sindromi mavjudligini aniqlash uchun anketa to'ldirib olinadi va bolalarni

o'qitish qiyin bo'lganda qo'shimcha davolovchi profilaktik tadbirlar o'tqiziladi. Bolani matabga shakllantirishdan oldin bevosita qayta mutahasislar ko'rigi o'tkaziladi. Bu maqsadda umumiy qon tahlili, siyidik va gjija tuxumlarini aniqlash maqsadid aaxlat tahlili o'tkaziladi. Matabga chiqishga funksional tayyorgarlik bolani sog'lomlik xolati va o'tkazilgan davoning effektivligi bilan baxolanadi. Xulosa algoritmi: Klinik tashxis (asosiy, yon dosh). Jismoniy rivojlanishini baxolash. Asab-ruhiy rivojlanishini baxolash. Sog'lomlik guruhi. Jismoniy mashg'ulotlar uchun tibbiy guruhi. Aniqlangan yoshdag'i ta'limga tayyorgarlik haqidagi tibbiy pedagogik xulosa. Rejim, ovqatlanish va tuzalish bo'yicha tavsiyalar.

## IMMUNOPROFILAKTIKA.

### Bolalarda immun sistemasi tiklanishining kritik davrlari

Immunitet (immunitas-“nimadandir ozod”)-infeksiyaga chidamlilik haqidagi ta'lim. Nerv sistemasining rivojlanishi bilan bolada immun sistemasining rivojlanishi ko'p yillar davom etadi. Immunologik xotira neyron kabi nasldan naslga o'tmaydi lekin rivojlanish jarayonida har bir insonda orttiriladi. Immun apparati vazifasining mohiyati- o'zini va begonani farqlay olishdir. Inson organizmi xomila ichi davrida ko'p bo'limgan begona tuzilmalar bilan to'qnashadi, antigen tasiri faqatgina bola tug'ilgandan keyin rivojlanadi. Biroq qoniqarli himoya rivojlanishi ya'ni immunitet- 7 yoshgacha tugaydi. Maxsus va nomaxsus immunitet tushunchalari qabul qilingan. Organizmni patologik agentlardan himoya qiluvchi

birinchi tarmoq nospesifik himoya omillari – epiteliy xujayralaridir.

Bu tarmoq filogenetik ko'proq qadimiy, u o'zining asosiy himoya vazifasini va immun mexanizmlar etilishini bola hayotining birinchi oyigacha oladi.

### **Organizmning nospesifik himoya omillari:**

Mexanik himoya – bunda ko'pchilik mikroorganizmlar uchun shilliq pardalar va normal teri qoplamingning tashqi himoya xususiyatini va viruslarning buyrak orqali chiqarilishini aytish mumkin. Kimyoviy himoya—meda shirasidagi xlorid kislota, teri va shilliq qavatdagidan boshlang'ich bakteriosid substansiyalari (nafas yo'llaridagi musin, ter va yog' bezlari tarkibidagi yog' va sut kislotalari), neyramin kislota, herpes virusidan himoya qilishini tushuntirish mumkin. Qon va boshqa biologik suyuqliklardagi lizosim (gramm musbat flora), properdin (virus va endotoksinlar), interferon (viruslar, onko xujayralar, xujayra ichi parazitlari—toksoplazma, mikoplazma, rikkesiya), laktoferrin (stafilokokk) moddalarining o'ziga xos xususiyatlarini aytish mumkin. Chaqaloqlar organizmida lizosim miqdori yuqori bo'ladi. Properdin miqdori 1-xafta davomida ko'tarilib boradi va bolalik davrida pasaymaydi. Tug'ilganda interferon yuqori bo'lishi, birinchi yil davomida kamayishi va faqat 12 yoshdan keyingina ko'tarilishi mumkin. Yoshga bog'liq xususiyatlar va tez-tez kasallanish bolada nospesifik himoya omillarining etishmasligi bilan bog'liq. Masalan, gipoasid meda shirasida ichak infeksiyasi va ovqat allergiyasi rivojlanishiga; chaqaloqlarda teri mexanik himoyasi

kuchsizligi sababli teri yiringli zararlanishi boshqa yiringli-septik kasalliklar rivojlanishiga, omfalit, chegaralangan interferonegenez esa ORVI bilan tez-tez og'rishi va uni bir yoshdan so'ng og'ir o'tishiga sabab bo'ladi.

Fagositozni organizm himoya funksiyasida ishtirok etish mexanizmlining asosiy xususiyati -biriktiruvchi to'qima xosil bo'lish ishini va immunitetini ta'minlaydi. Fagositozlanish (yot qismlarni yutilishi) 2 xil populyasiyalı xujayralarda amalga oshadi: mikrofaglar, makrofaglar; Makrofaglar segment yadroli leykositlar va eozinofillardan iborat. Segment yadroli leykositlar – organizmning erta himoya mexanizmlardan biri. Ular pinositoy yo'li orqali yot moddalarni yutadi va ularni parchalash uchun juda samarali ferment sistemasiga ega. Fagositozni oxirgi bosqichida noferment kationli oqsillar, mukoperoksidaza, laktoterrin, lizosim bir biriga bog'liq holda ishtirok etadi. Fagositoz davrining aktivlanishi homila davrida kuchayib boradi, lekin oxirgi bosqichi xomila hayotini 2-6 oyida etiladi, 6 oyigacha fagositoz davri tugallanmagan holda bo'ladi. Eozinofil leykositlarning organizmdagi vazifasi - biologik aktiv moddalarni ajratish, allergik reaksiyada qatnashishdan iborat. Mikrofaglar - maxsuslashgan, takomillashmagan uzoq rivojlangan xujayradir. Segment yadroli leykositlar va makrofaglar (monositlar va uning hosilalari) - o'zida lizosomal fermentlarni tutib, yot moddalarni yutadi va parchalaydi. Shunga qaramasdan maxsuslashmagan fagositoz bevosita yot moddalarni pinositozga uchratib, qismlarga ajratadi.

Shunday holda fagositoz davri xujayrani maxsus immun reaksiyaga tayyorlaydi. Organizmning limfoid sistemasida maxsus immunitet shakllanishida quyidagi a'zolar qatnashadi:

- Ayrisimon bez (timus);
- Taloq;
- Limfatik tugunlar;
- bodomsimon bez, yutqun bezlari va ingichka ichak;
- suyak ko'migidagi va periferik qondagi limfositlar.

“Yot” antigenni aniqlash asosida 3 komponentli kompleks paydo bo'ladi, ya'ni: yot antigen xujayra reseptor xususiy antigeni HLA (Human Leusosytes Antigens —birlashgan to'qimalarni asosiy kompleksi). Faqatgina antitanalarni produksiyasi va sitotoksik reaksiyasining bo'lishi, shunday sharoitda to'liq immun javob shakllanishiga sabab bo'ladi. Organlarning muvofiqlashgan vazifalarini maxsus himoya usulida timus amalga oshiradi. Homila davrida limfositlar timusdan shakllanadi, tug'ilgandan keyin esa limfositlar suyak ko'midan shakllanadi, lekin immun javobni kuchi avvalgidek timozin-timus gumoral faktori tomonidan reguliyasiya qiladi. Maxsus immun javobni past molekulali birikma - timopoetin amalga oshiradi. Timus oldin boshqa limfoid xosilaga ega bo'ladi. Jarayonning 7-8-xaftasida timus shu limfoid xosiladan differensiasiya bo'ladi. Hayotining 6-12 yilda esa involyusiyaga uchraydi. Limfatik tugunlar xomila hayotining 2-oyida shakllana boshlaydi, maksimal differensirovkasi 10 yoshgacha davom etadi. Bar'er funksiya gestasiyaning 3-4 oyida bir qancha limfoid apparatda

va kechroq muddatlarda esa MIT, nafas sistemasida, bodomsimon bezlarda shakllana boshlaydi. Bar'er funksiyani limfold apparatdan tashqari taloq ham immunoglobulin sintezi orqali amalga oshirishda ishtirok etadi. Limfold to'qima giperplazianing umumiy rag'batlanishi bolalarda tug'ilgandan keyin hayotining 5-kunlarida limfositlar ko'payib, antigen stimulyasiya kuchli ravishda aks etib, ayniqsa hayotining 1 kunidan, hafta va oy sayin sezila boshlaydi. Maxsus immun reaksiyaning 2 asosiy shakli mavjud -xujayraviy va gumoral. Xujayraviy immunitetni xujayra yuzasidagi limfositlar amalga oshiradi. Ma'lum bo'lishicha suyak ko'migidagi o'zak xujayralar 2 yo'nalishda differensirlanadi. Bunga sabab 2 xil populyasiyadagi limfositlarning mavjudligidir. T-sistemada immun javob xujayraviy tipda taminlanadi. Qachonki T-limfosit yordamida yot modda fagosoitozi ifodalansa, ular aktivlanadi va reaksiyasi stimullanadi. Shu bilan yot tana yo'qotiladi. T-limfositlarning rivoji homilaning 10-xaftasida shakllanna boshlaydi, buning ilk belgisi gestasiya davrining 15-haftasida yuzaga chiqadi. Ikkinchisi limfositlar sistema-B-limfositlar (bursa xaltasi, qushlarda fabrisiy xaltasi deyiladi). Ular oldingi xujayra orqali bosqichma – bosqich o'tib immun javobli plazmatik xujayraga o'tadi. Gumoral immunitetni ta'minlab immunoglobulin sinteziga ishtirok etadi. Xomila rivojining 20-haftasida plazmatik xujayra va antitana shakllana boshlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kattalarga qaraganda T- B-limfositlarning periferik qonda foizi yuqori bo'ladi. Ularni bir-biriga nisbati sezilarli o'zgaradi va kattalarda 2-3 barobar kamayadi.

Limfositlarni absolyut miqdorini o'sib borishi 5-kunidan keyin boshlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar organizmdagi limfositlar qator sitokinlar va interleykinlarga sezuvchanligi pastroq bo'ladi. B-limfositlar antigenga javoban 5 sinfdagi antitanalarni ajratadi. Ular: A, M, G,E, D. Bu sinfdagi antitanalar har xil vazifalarni bajaradi va har xil miqdorda ajraladi. Xomilada immunoglobulinlar sintezi amalga oshadi, gestasiyaning 3-oyida IgM, 5-oyida IgG, 7-oyida-IgA sintezlana boshlaydi, lekin sintezi chegaralangan bo'ladi. Shu vaqtda plasenta orqali onadan immunoglobulin- IgG xomilaga o'tadi. Plasentani o'tkazuvchanligining buzilishida esa IgM o'ta boshlaydi, boshqa sinfdagi immunoglobulinlar transplasentar yo'l orqali o'tmaydi. IgGni plasenta orqali o'tishi gestasiyaning 22-haftasida kuchayadi. Xomiladorlikning 28-haftaligida uning miqdori maksimal darajaga yetadi. Bola tug'ilganidan keyin 3-6 oyligida maksimal pasayadi, hayotining 2 yoshida kattalarga yetib oladi. IgG-immunoglobulinlarning asosiy xususiyatidan biri chaqaloqni infeksiyalardan himoya qiladi, jumladan-difteriya, poliomielit, izamiq, qizilcha, meningokokklar, streptokokklar, qoqshol kabilardan. Normada IgM platsentar bar'erdan o'tmaydi. Uning sintezining oshishi rivojlanishining 20-xafasida amalga oshadi. Uning kindik qonidagi titrining yuqori bo'lishi xomilaning rivoji infisirlangandan yoki antigen stimulyasiyadan dalolat beradi. Lekin qonda IgM tug'ilgandan keyin oshib boradi. Bu yangi mikrob muhiti bilan bog'liq. Immunologik xotira bu holatda o'zgarmaydi. Etarli yuqori darjasи bola hayotining 9-14-kunida aniqlanadi. Bolalar qonidagi

IgM 2-4 yoshi da kelib kattalarnikiga tenglashadi. IgMning himoya xususiyati asosan gramm manfiy floralar tasiridan iborat. IgA onadan homilaga o'tmaydi, bu asosiy gumoral faktor bo'lib shilliq qavatni maxalliy ximoyasida qatnashadi. IgA antitanani hosil bo'lishi ovqat allergenlari, bir qancha viruslar, parazitlar bilan bog'liq bo'lib chaqaloq va xomilada kam miqdorda bo'ladi. Sekretor IgA asosiy og'iz suti va ona sutida bo'ladigan immunoglobulindir. Bu IgA sut bezida, so'lakda, terida mikroorganizmlardan ximoya bar'er funksiyasini bajaradi. IgD kam o'rganilgan, hayotining 6- xafasidan paydo bo'la boshlaydi. Bolalarda 5-yoshidan boshlab kattalar darajasiga tenglashadi. IgE chaqaloqlar qonida juda kam bo'ladi va yoshi kattalashgan sari u ham oshib boradi. U biriktiruvchi to'qima semiz xujayralari va qon bazofillari bilan bog'liq bo'lib ular bilan bog'liq bo'lgan allergik mediatorlar-gistamin, serotonin, heparin va boshqalarni ajratadi. Ularning ta'siri tomirlarni mahalliy kengaytirishi, regionar qon aylanishni buzilishi, shilliq mushaklar qisqarishi bilan kuzatiladi. IgE 11-12 yoshda kattalarga tenglashadi, pubertat davrda vaqtincha pasayadi. Immunitetni asosiy qismini komplement sistema egallaydi. Bu sistema o'z ichiga 60 dan ortiq oqsilni olib, odam qon zardobining 10 foizi globulin tashkil qiladi. Komplement sistemasi kinin sistema (interleykin, sitokinlar interferonlar o'sish faktorlari)si bilan o'zaro tasir qiladi. Bu 20 ta peptid sistemasidan iborat bo'lib, immun sistema xujayralari o'zaro tasirini taminlaydi. Sistema antigen-antitana kompleksini faollaydi va sitolizni kuchaytiradi. Xemotaksis, fagositoz, allergen elminasiyasini

taminlaydi. Aktiv sistema chaqaloqlarda kattalarnikini yarmini tashkil qiladi, hayotini 1-oyida kattalarga tenglashadi. Kaskad reaksiyalar murakkab komplement sistemani taminlab, gistamin, heparin, leykotrien, prostoglandin, tromboksan, xemotaksislari allergik reaksiyalarda immunitet hosil qiladi. Komplement sistemasi membranaga tasir qiluvchi kompleksdan iborat. Bu diagnostikani asosida komplemt bog'lanish reaksiyasi yotadi. Shunday holda yosh bolalarda immun sistema har xil davrda turli xil kechadi. Oila poliklinikasida immunoprofilaktika ishlarini olib boriladi. Uning tarkibiga vrach-immunolog (1 vrach immunolog uchun 20000 aholi) va hamshira (1 xamshira uchun 10000 aholi) kiradi: Umumiy va rejali ro'yxatga olishda organizasiyalashgan va organizasiyalashmagan bolalarni, emlash kerak bo'lgan bolalarni, yagona emlash kerak bo'lgan bolalarni ro'yxati kerak bo'ladi (formaN 63/y); Bolalar poliklinikasida ro'yxatda turganlar organizasiyalashgan va organizasiyalashmagan bolalarda emlashlar o'tkazish amalga oshiriladi; Immunobiologik reaksiya o'tkazish organizasiyalashgan va organizsiyalashmagan bolalarning barchasida amalga oshiriladi; Ro'yxatdagilarning har oydagи emlash uchun analizlardan o'tkazishni o'rghanish; Bolalar poliklinikasiga kiruvchi barcha bolalarni analiz qilish; Emlashga kiruvchi bolalardagi qarshi ko'rsatmalarni aniqlash; Vaksina seriyasi uchun reaktigenligini aniqlash; Komission emlash o'tkazishni medpersonallar orasida muhokama qilish.

### **Aktiv vaksinasiya uchun qo'llanuvchi turli xil vositalar.**

Vaksinalar- maqsadli, o'lgan va inaktivlangan mikroorganizmlardir. Bacterial (qoqshol);Virusli (grippozi, polimmielit). Anatoksinlar inaktivlangan bo'lib asosan mikroorganizmli qo'zg'atuvchilar uchun (difteriya, qoqshol) toksinlar saqlaydi. Bu vaksinalar immunitet hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Vaksinalar tirik organizmlarni saqlovchi qo'zg'atuvchi bilan immunologik bog'liq bo'lган (BSJ sil qo'zg'atuvchidan olingan) bo'ladi. Kimyoviy vaksinalar o'lgan mikroorganizmlardan (paratif, pnevmokokk, meningokokk) iborat. Rekombinant vaksinalar tarkibida subbirliklarda viruslar va achitqi xujayralarini (gepatit B virusiga qarshi) tutadi. Assosiativ vaksinalarning tarkibiga bir necha mono vaksinalar kiradi. (AKDS parotit-qizilcha, kizamiq-parotit-qizilcha) Immunizasiya olib borishda umumiy qoidalardan tashqari bolaga individual yondashish zarur. Organizmning birlamchi immun javobi sifatida qonda limfositlardan B- limfositlar miqdori oshadi. IgM va keyin esa IgG sintezlanadi. IgG ning miqdori oshishi uning hayoti davomiyligining uzoq saqlanishi bilan bog'liq bo'ladi, ikki vaksina o'rtaida o'zaro bir necha xil ta'sir 1 oydan 2 oygacha bo'ladi. (lekin 1 oydan kam emas) Bola organizmida, birinchi bor tasirdan farqli o'laroq ikkinchi bor kirib kelgan antitana xususyati boshqacha bo'ladi. Xosil bo'layotgan javob immunitetni qo'zg'atadi, bu esa organizmning manfiy immun javob reaksiyasi deb ataladi. Organizm immunizasiysi, immunologik javobni rivojlanishida birinchi o'rinda turadi. Bolaning immun javobi effektiv bo'lishi bilan birga hali to'liq rivojlanmagan bo'ladi.

Havfsizlikni hisobga olib JSST bo'yicha bolaga bir vaqtning o'zida bir necha komponentlarni bordaniga individual qo'llash taklif etilgan.

Xar bir davlatda immunoprifilaktika planli ravishda olib boriladi. Umumiy vaksinasiyalarga kiradi: tuberkulyoz; polimielit; qizilcha; parotit; ko'kyo'tal; qoqshol; difteriya; virusli gepatit; qizilcha. Bolalarni emlanish paytida xosil b o'ladigan t o'siqlar:

1. Ota onalar vaktsinatsiyani kasallikni oldini olishda muximligini bilishlari kerak;
2. Shifokorlar vaktsinoprofilaktikaning mexanizmlari va ularni axoli sogligini saqlashdagi o'rni tugrisidagi aniq ma'lumotlarga ega b o'lishi lozim;
3. Davlat tomonidan t o'lanadigan vaksinoprofilaktika dasturlari vaksinalar narxini tushirishga xamda axolini barcha qatlamlariga etib kelishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak;
4. Vaksinoprofilaktika tizimi yaxshi y o'lga qo'yilgan b o'lishi lozim.

Vaksinalarni ikkita asosiy guruxga bo'lish mumkin: tirik va o'lik (inaktivatsiyalangan) vaksinalarga. 1. Tirik vaksina - qo'zgatuvchining attenuirlangan shtammlaridan olingan (kuchsizlantirilgan patogenlik bilan).

2. O'lik vaksinalar: a)biologik sintez bilan, b)ximik sintez bilan - korpuskulyar: a) butun mikroblardan b) molekula usti subxujayralar strukturasidan. Inaktivatsiyalangan vaksinalar mikroorganizmga kimyoviy yul yoki qizdirish y o'li bilan ta'sir ettirilib olinadi.

Anatoksinlar vaktsina sifatida qo'llaniluvchi maxsus immunitet xosil qiladi (difteriya,stolbnyak vaktsinalarining yangi avlodi). Kon'yugirlangan vaktsinalarda antigenlarni protein eki anatoksinlar bilan boglash usuli qo'llaniladi. Subbirlikdagi vaktsinalar adekvat immun javobni ta'minlab beruvchi antigen fragmentlaridan tashkil topgan.

#### Vaktsinalarning effektivlik mezonlari.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida olib borilayotgan vaksinoprofilaktikaning ko'p yillik malakasiga asoslangan xolda JSST tomonidan immunizatsiyaning kengaytirilgan dasturi (IKD) ishlab chiqildi.

IKDning formulasi oxirgi 20 yil davomida o'zgarmagan, ya'ni infektsion kasallanishni kamaytirish maqsadida ommaviy immunizatsiyani qo'llash. IKD doirasidagi 9 oylik yoshidagi bolalarni vaktsinatsiya grafigi. IKD-1- 1974 yil may oyidan 1990yilgacha b o'lган davrda o'tkazilgan. Bu davrda 80% bolalarni 6 ta infeksiyaga qarshi emlatilinishi tavsiya etilgan: poliomielit, qizamik, difteriya, qoqshol, tuberkulez, ko'ky o'tal.

IKD-2- 1990yildan 2000 yilgacha b o'lган davrga m o'ljallangan. 2000 yilga 95% bolalarni emlash tavsiya qilingan. Bu bosqichning maqsadi 2000 yilga paralitik poliomielitni yuqotish, chaqaloklar qoqsholini yuqotish, qizamiq bilan kasallanishni etarli darajada kamaytirishdir.

**IKD-3.** Bu strategik dastur 21 asrning birinchi 10 yilgacha mo'ljallangan. Uni maqsadi poliomielit va qizamiq virusini sirkulyatsiyasini t o'xtatish b o'lib, bu vaktsinalarni bekor qilishga olib keladi.

1. Poliomielitga qarshi ommaviy immunizatsiyani o'tkazilishi endemik paralitik poliomielitni yirik mamlakatlar miqyosida yo'qotish imkonini berdi (masalan, 1979 yilda AKShda).
2. Poliomielitning ommaviy profilaktikasi rejali emlanish tula xajmda olib borilmagan joylarda «y o'qotilgan» infektsiya qaytarilishini tajriba k o'rsatdi (poliomielit, difteriyani avj olishi).

**IKD-1 va IKD-2 natijalari**

2. Boshqarilib turilgan infektsiyalarni qayta nazorat qilish ommaviy immunizatsiya sharoitida tiklanishi kuzatildi( bu difteriya va poliomielit misolida k o'rsatilgan).

**Parabol**

Uzbekiston Respublikasi SSV SanPiN №0239-07, 2009

Emlash kalendarı

yoshi	Emlanish nomlari
1 kun	VGV-1
2-5 kun	BCG-1, OPV-0
2 oy	AKDS-1 ,OPV-1, VGV-2, Rota -1, Pnevmo-1
3 oy	AKDS-2, OPV-2, VGV-3, XIB-1, Rota-2, Pnevmo-2
4 oy	AKDS-3, OPV-3, VGV-4, XIB-2

12 oy	KPK-1
16 oy	AKDS-4, OPV-4
6 yosh	KPK-2
7 yosh	AKS-M5, OPV-5, BCG R-1
14-15 yosh	BCG R-2
16 yosh	ADSM-6

### Kattalarни emlash

K o'rsatmalar: Yuqish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar, tibbiyot xodimlari qon bilan aloqador (jarroxlар, stomatolog, akusher-ginekolog, laborant, muolaja bajaruvchi xamshiralar va boshqalar), narkomanlar(tomirdan), immunodefitsiti bor shaxslar , kasallanish k o'satkichlari yuqori b o'lgan regionda yashovchi shaxslar.

Gepatit A immunoprofilaktikasi 1993 yildan boshlab dunyoning 27 mamlakatida 50677 odam emlandi va 120000 vaksina dozasi qo'llanildi.

Natijalar vaksinaning xavfsizligi, yaxshi qabul qilinishi va yuqori immunogenligini tasdiqladi. Serokonversiyaga praymingdan sung 1 oydan keyin 100%ga erishildi. Emlashdan keyin xosil bo'lgan antitanachalar kattalarda birinchi emlashdan keyin 1 yil saqlanadi, bolalarda 2 dozadan keyin. Buster doza praymingdan sung 6 -12 oydan keyin yuboriladi. Nazariy mumkin bo'lgan ximoya 20 yilgacha saqlanishi kuzatilgan. JSST vaktsinatsiya istiqbollariga qo'shimcha tavsiyalari: Gemofilus influenzaga qarshi emlash barcha

5 yoshgacha b o'lgan bolalarga o'tkazilishi lozim. Meningokokka

qarshi emlash o'lim xolatini kamaytiradi, pnevmokokka va grippga  
qarshi emlash o'lim ko'rsatkichini va qayta kasallanishlarni oldini  
oladi.

### **Emlash reaksiyalari va asoratlari**

Emlash reaksiyalari - bu vaksinatsiya oqibatida kelib chiquvchi  
lekin shu vaksinani keyingi yuborilishi uchun to'sqinlik tuqdirmaydigan  
reaktsiyalardir.

Asoratlар (noj o'ya reaktsiyalar) - bu vaktsinatsiya oqibatida kelib  
chiquvchi xamda shu vaksinani qayta yuborilishiga to'sqinlik  
qiluvchi reaktsiyalardir:

1. Postvaktsinal infektsiyalar
2. Tumorogen effekt
3. Allergiya
4. Vaksinalarning immunomodulyatsiyalovchi effekti.
5. Immunodefitsitning induksiyasi.
6. Vaktsinatsiyaning psixogen effekti.

Vaktsinalarga bo'lgan nojo'ya reaktsiyalarning fon darajalari ikkita  
guruxga bo'linadi: tarqalgan, kam uchraydigan.

**Postvaktsinal asoratlarni rivojlanishida kechiktirib b o'lmaydigan  
tadbirlar.**

1. Gipertermiya ( $t > 38,6S$ ) - isitma tushiruvchilar yoshga xos dozada  
(masalan,

paracetamol, panadol) - tana xarorati 38,0 ga tushguncha kuniga 1-3 marta berish, yoki-litik aralashma.

2.Talvasa sindromi - diazepam 0,05 mgG/kg; magniy sulfat 25% - 0,2ml/kg.

a) febril tutqanoqlar - q o'shimcha: isitma tushiruvchi moddalar, seduksen 0,5% eritmasi 0,5ml dan 4-6 oylik bolalarga;

3.Anafilaktik shok, kollaptoid xolat - adrenalin xlorid 0,1% 0,3-0,5ml dozada xar 10-15 minutda axvol yaxshilanguncha.

4.Tana xaroratini 35,5 S dan pasayishi, uyquvchanlikda - antigistamin Preparatlari.

5.Bronzial astma xuruji - eufillin 4mg/kg kuniga 3-4 maxal.

6.Maxalliy reaksiyalar (8sm dan oshik giperemiya), shish - antimediator moddalar.

7. BSJ-vaksinasining asoratlari, maxalliy - maxalliy va ichish uchun maxsus

tuberkelezga qarshi preparatlarni qabul qilish (izoniazid, rifampitsin va .k.), xirurgik davo.

Shuni yodda tutish kerakki, xar bir vaksinani dori moddolar qabul qilishni talab qilmaydigan emlanish reaksiyalarini mavjud.

#### OYGAN ISAYAT

#### \* Yosh bolalarda profilaktika ishlarini olib borish.

Aholining immunizasiysi kalendar bo'yicha eski va yangi qabul qilingan registrasiyadan o'tgan va ruxsat berilgan tartibda, instruksiyaga qarab olib boriladi. Bolalarda onasi gepatit B

tashuvchisi bo'lgan yoki gepatit bilan xasta bo'lsa sxema bo'yicha 0-1-2-12 oyda kuzatuv asosida vaksinasiyaga yo'naltiriladi. Gepatit Bga qarshi vaksinasiya olib borish 13 yoshgacha sxema bo'yicha 0—1—6 yoshida amalga oshiriladi. Qizlarda qizilchaga qarshi vaksinasiya olgan yoki bir bor emlash o'tkazilgan hollarda 13 yoshgacha amalga oshiriladi. Tuberkulyozga qarshi revaksinasiya bolalarda 14 yoshgacha olib boriladi. Sil bilan xasta bo'lмаган bolalarda sxema (2-5 kunlarida, 7 yoshida, 14 yoshida) bo'yicha amalga oshiriladi. Milliy emlash kalendari bo'yicha (BSJ dan tashqari) qo'llaniladigan vaksina bir martalik shpris bilan tananing har xil qismlariga 1 oy intervalda yuboriladi. Birinchi vaksinasiya sxemasi buzilganda ikkilamchi sxema bilan amalgta oshiriladi.

## **I I BOB. UASH ning davolash ishlari.**

### **Dispanser guruhidagi bolalarni davolash.**

UASHning muhim ishi-kasal bo'lgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish. Uning davolash ishi bolani uyda va poliklinikada shuningdek, surunkali kasallik bilan og'riganlarni dispanser qabul bo'limida davolashni o'z ichiga oladi. UASH ning konsultasiya davolash ishi hamma ishining 60% ni, 30% ni esa uydagi ko'rik va davo tashkil etadi. Poliklinikada UASH ning davolovchi normativida soatiga 2 ta, kuniga 6-7 ta bolani ko'rish kiradi. UASH ning davolash ishi o'ziga xos va bir nechta bo'limga bo'linadi. O'tkir kasallik bilan kasallangan bolalarga uyda ham tibbiy yordam ko'rsatiladi. Asosiy davo choralar quyidagi kasallikkleri bor bolalarga qaratilgan bo'ladi: nafas organlari kasallikkleri, infektion kasallikklar (bolalar infektion kasalligi), o'tkir ichak kasallikkleri. Hamma o'tkir kasallik bilan kasallangan bolalarda UASh uyida ko'rik o'tkazadi. Shu bilan birga karantinda, bemor bilan kontaktda bo'lganlarga, nogiron bolalarga, stasionardan chiqarilgan (1-2 kun), amaliy sog'lom bolalarga poliklinikada xizmat ko'rsatiladi. Chaqiriqlar, murojaatlar (telefonda, ota-onasi kelsa, tez yordam orqali) registrasiya jurnalida qayd qilinadi va har bir bolaga statistik talon to'ldiriladi.

UAsh murojaat qilgan bemorga uyda xizmat ko'rsatadi. Birinchi navbatda erta yoshdagи bolalarga so'ngra isitmali va o'rta darajadagi bolalarni uyiga boradi. Birinchi ko'rikda vrach bolaning ahvolini og'irligini belgilaydi, so'ngra tez yordamga muhtoj bo'lмагanlarga shifokor tahminiy tashxis qo'yadi, ambulator davo yoki gospital

davoga muhtojligini aniqlaydi, bemorlarni olib borish taktikasini belgilaydi, zarur bo'lgan diagnostik davo choralarini belgilaydi, vaqtincha mexnatga layoqatsizlik ekspertizasini o'tkazadi. UASH uyga chaqiruv bo'lganda deontologik prinsipga alohida e'tibor berishi kerak. Mojaroli holatga duch kelmaslik uchun faqatgina UASHdan emas, balki xamshiralardan ham davolash jarayonida e'tiborli, bemor va uning yaqinlariga shoshilmay yondashish, xushmuomalalik talab qilinadi. Uyga davolashga borganda doimiy kuzatuv talab qilinadi. Bu UASHning birlamchi qayta va aktiv tashrifi yordamida amalga oshiriladi. Vrach tashrifining intervalini va davomiyligini bemorning yoshi, og'irlik darajasi va kasallik holatiga qarab belgilaydi. Emizikli yoshdagи bolalarni kun ora kuzatish talab qilinadi. Bir yoshdan katta bolalarni og'irlik darajasiga qarab tashrif belgilanadi. Qoida bo'yicha URI, gripp, angina, bronxitlarni 2-3 marta, infektion kasalliklarni 4-6 marta uyiga borib davolanadi. Uydagi bemorlarga davo choralari va kerakli muolajalar belgilanadi. UASH diagnoz quyish va davolashda qiyinchilikka duch kelsa tor mutaxassis (LOR,nevropatolog, xirurg,revmatolog) larga murojaat qiladi. Davo samarali bo'lganda quyidagi aktiv dinamik kuzatuvni poliklinik kuzatuvga o'tkazsa bo'ladi. Poliklinikaga chaqiruv quyidagi faktorlarga asosan olib boriladi:

- Kasallik klinikasining ijobiy dinamikasi;
- Poliklinikaga tashrif holatini yomonlashuviga xavf solmasa;
- Tuzalgan bolani poliklinikaga tashrifi boshqa kasallik yuqtirishga xavf solmasa;

-Reabilitasiya choralariga muhtoj bo'lganda (fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya);

Bolani uuda aktiv kuzatilganda to'ldiriladigan ma'lumotlar - shikoyatlar, obektiv holat, davo tavsiyalarini o'z ichiga oladi. Bolalarni uuda davolashdan tashqari UASH poliklinikada ham qabul tashkil qiladi. Poliklinikadagi davo uydagi yoki stasionardagi davoning mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar, ko'p bolali oilalardagi 6 yoshdan kichik bolalar, 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar, hamma o'smirlar va bolalar, hisobda turuvchilar hamma dori vositalarini bepul olishadi, «nogiron bola» statusi bo'lmasayam quyidagilarni bepul beriladi-

- tuberkulin sinamasiga viraj kuzatilgan bolalar va tuberkulyozni lokal formalari-tuberkulyozga qarshi preparatlar.

-mukovissidozli bolalar - ferment preparatlar.

BALi bolalar – shu kasallikni davolashda ishlatiladigan preparatlar. Revmatizmi va kollagenozi bor bolalar- steroid preparatlar, sitostatiklar, yallig'lanishga qarshi nosteroid preparatlar, antibiotiklar, antigistamin preparatlar, koronarolitiklar, siydiq haydovchilar, kalsiy antagonistlari, kaliy prepartlari, xondroprotektorlar.

### **Bemor bolalarga UASHni chaqiruvi**

Bemor bolalarga UASHni chaqiruvida quyidagi malumotlar yigiladi:

Sana. Chaqiruv xarakteri (birlamchi, qayta, aktiv), kasallik kuni. Tana haroratini, nafas olish sonini, pulsni o'lchash. Shikoyatlari, qisqacha kasallik anamnezi (kasallik davomiyligi, kasallikni nima bilan

hog'laydi, asosiy simptomlar, o'tkazilgan davolash va uning natijasi, son patalogiyasini xususiyati). Umumiy ahvolini baxolash va uni tahlil qilish. Obektiv status (organ va sistemalar tomonidan patalogiyalarni aniqlash, lokal status, funksional buzilishlarni baxolash). Diagnoz (birlamchi ko'rikda-taxminiy, ko'rik o'tkazilgandan 3 kundan keyin-yakuniy klinik diagnoz). Vaqtinchalik mehnatga yaroqsizlik varaqasi berilganda bemor bola uchun ko'rsatma: varaqo kimga berilgan: qarovchining familiyasi, ismi, sharifi, yoshi,tashxisi, ish joyi, varaqani berilgan sanasi.

Tavsiya: Rejim, parxez, medikamentoz davo (davolovchi preparatning shakli, dozasi,qabul soni, qabul qilish yo'li), nomedikamentoz davo, fizio davo, mutaxassislar konsultasiyasi va ko'rigi.

Bemorni olib borishni keyingi taktikasi (aktiv murojaat, shifokorga murojaat, stasionarga yo'llanma)-gematologik kasalligi bor bolalar- sitostatiklar, immunodepresantlar, immunokorrektorlar, steroid va nosteroid gormonlar, antibiotiklar va shu kasallikni davolovchi va asoratini oldini oluvchi preparatlar; -tutqanoq sindromi bor bolalar-tutqanoqqa qarshi preparatlar; -qandli diabeti bor bolalar-diabetga qarshi hamma preparatlar etil spirti, shprislar, diagnostika turi; -onkologik kasalligi bor bolalar –hamma kerakli davo vositalari; -endokrin kasalligi bor bolalar – gormonal preparatlar;-gelmintozi bor bolalar- gelmintolog-shifokor buyurgan preparatlar.

gutnopolipero

### **Bepul dorilar uchun beriladigan reseptlar**

Yordamga muhtoj fuqarolarga birlamchi tibbiy-sanitar yordamni nazorat qilish DPM larni metodik kabinetlari orqali amalga oshiriladi. «Sosial xizmatlarga muhtoj fuqarolarga ajratilgan preparatlar» kategoriyasiga kiruvchi preparatlar bola uchun klinik-ekspert komissiyasi tomonidan buyuriladi va DPM ning birlamchi zvenosining boshlig'i tasdiqlaydi. Turli xil somatik kasalligi (anemiya, raxit, gipotrofiya va boshqalar) bor yosh bolalar umumiyo ko'rikka yo'naltiriladi. Surunkali patologiyasi bor va dispanser nazoratida turuvchi bolalar uchun poliklinikada umumiy ko'rikka maxsus kun ajratiladi. Gospitalizasiya masalasini hal qilishda kasallik xarakteriga va og'irligiga, bolani yoshi, davolashni o'ziga xos xususiyati, maishiy sharoitga ahamiyat beriladi. Shoshilinch gospitalizasiyada shifokor transportirovka uchun tez tibbiy yordam mashinasini chaqirib beradi. O'tkir va surunkali kasallikni shoshilinch va rejali tarzda stasionarda kuzatish va davolash uchun yo'llanmani UASH beradi. Shoshilinch gospitalizasiyaga ko'rsatmalar:

- o'tkir xirurgik holatlari (appendisit yoki appendisitga shubha, o'tkir qorin sindromi, churra qisilishi, jaroxatlar va boshqalar);
- zaxarlanish ( ovqatdan, dorilardan, maishiy);
- xayot uchun zarur organlar faoliyatining buzilishi bilan kechuvchi og'ir kasalliklar (nafas va yurak qon-tomir etishmovchiligi, gipertermiya, tutqanoq sindromi va boshqalar);
- chaqaloqlardagi o'tkir kasalliklar;

-umumiyl ahvoli og'ir, infektion bo'limga gospitalizasiya kilinishi kerak bo'lgan og'ir infektion kasalliklar;

- | Shoshilinch tarzda gospitalizasiya qilinadigan bolalarga gospitalizasiyagacha bo'lgan etapda shoshilinch yordam ko'rsatilishi kerak. Shoshilinch chora tadbirlar (hajmi, o'tkazilgan vaqt va boshqalar) gospitalizasiya uchun berilgan yo'llanmada ko'rsatilishi kerak. Ambulator sharoitda surunkali kasalligi bor bolalarni davolash-diagnostik chora tadbirlarini o'tkazishni iloji bo'limganda rejali ravishda bu bolalalarga gospitalizasiyaga yo'llanma beriladi. Rejali gospitalizasiya yo'llanmasida qo'shimcha tarzda kasalxona ichi infeksiyasiini oldini olishda bemorni infektion kasalligi bor shaxslar bilan aloqada bo'lganligi ko'rsatiladi. Rejali tarzda gospitalizasiyaga yo'llanma berilgan bolalalarni poliklinikada maksimal ko'rikdan o'tkazilishi kerak. Gospitalizasiyaga yo'llanmada (yoki bolani rivojlanish tarixidan ko'chirma) anamnez ma'lumotlari, kasallikni o'ziga xos kechishi, fon kasalliklar (doriga va ovqatga allergiya ham) ambulator sharoitda o'tkazilgan tekshiruvlar natijasi, ambulator davoning samarasi va xarakteri ko'rsatilishi lozim. O'tkir yoki surunkali kasallikni qo'zish davrida maishiy kam taminlangan oilalar gospitalizasiya qilinishi shart. Gospitalizasiya yo'llanmasida chaqiruv vaqt va tez tibbiy yordam mashinasi kelgan vaqt ko'rsatiladi. Tez yordam shifokori bolani gospitalizasiya yo'llanmasini rasmiylashtiradi, buni dublikati bolalar poliklinikasiga beriladi. Gospitalizasiyada shifokor bajaradi:  
-ko'rsatmani aniqlash ( shoshilinch, rejali gospitalizasiya);

-kasallikning og'irligi, asorati va xarakteridan kelib chiqqan holda stasionar turini aniqlash(somatik, infekcion,reanimasion, ixtisoslashtirilgan bo'limlar);

-transportirovka turini, uni xavfini, bemorni kuzatib boruvchi tibbiy personalni aniqlash;

-yo'llanmada gospitalizasiya qilingan joy (shifoxona, bo'lim), bemorning pasport ma'lumotlari, tashxisi, epidemik muhit ko'rsatilishi kerak.

Bundan tashqari yo'llanmada sug'urta nomeri, sanasi, shifokor imzosi ko'rsatilishi kerak. UASH majburiyatlariga shifoxonaga yo'llanma bergandan so'ng birinchi sutka davomida gospitalizasiyani nazorat qilish ham kiradi. Shifoxonadan chiqarilgan yoki o'z xohishi bilan ketib qolgan yosh bolalarni UASHga ularni to'liq davolash va aktiv kuzatish vazifasi yuklatiladi. Bolalarni alternativ davolash kunduzgi stasionarda (bolalar shifoxonasida) yoki qisqa muddatli stasionarlarda (bolalar poliklinikasida va diagnostik markazlarda) amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlashni munisipal muassasalarida kunduzgi stasionar o'rirlari o'tkir va surunkali kasalligi bor, sutka davomida kuzatish kerak bo'limgan, lekin kunduzgi vaqtda davolash-diagnostik yordam kerak bo'lgan bolalar uchun ajratiladi. Bunday bo'limlar majburiy tibbiy sug'urta tizimida faoliyat olib boradi. Kunduzgi stasionarni bosh shifokor nazorat qiladi, diagnostika va davolash sifati ustidan bevosita nazorat bosh vrachning davolash ishlari bo'yicha o'rinosari, katta xamshira va kunduzgi stasionar o'rinalidan tashkil topgan bo'lim boshliqlariga bog'liq. Tibbiy xodimlar soni shu turdagi

bo'limlarga mos normativlar bo'yicha aniqlanadi. Kunduzgi stasionar bir smenada, haftasiga olti kun ishlaydi. Kunduzgi stasionarda tekshiriladigan va davoelanadigan bemorlar UASH, shahar ixtisoslashtirilgan xizmat mutaxassislari va bo'lim boshliqlari tomonidan saralanadi. Sutka davomida tibbiy kuzatuvni talab qiladigan o'tkir kasalliklar kunduzgi stasionarga yuborish uchun qarshi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Bemorning ahvoli og'irlashganda, sutkalik kuzatuv talab qilinganda zudlik bilan kunduzgi stasionardan kasalxonaning tegishli bo'limiga o'tkaziladi. Kunduzgi stasionar sharoitida davolanadigan bemorga kasallik tarixi ochilib, unga anamnez, oldin o'tkazilgan tekshiruvlar va davolashlar kiritiladi. Kasallik tarixi alohida belgiga ega. Ishlaydigan (o'qiydigan) bemorlar, bolasiga qarovchi onalar, kunduzgi stasionarda davolangan paytda, ularga umumiy asosda vaqtincha ishga layoqatsizlik varaqasi beriladi. Bemor kunduzgi stasionardan chiqarilganda, unga shifokor hamma ma'lumotlar va kerakli tavsiyalarni beradi. Profilaktika ishlaridan tashqari mutaxassis shifokorlar grafik bo'yicha kasal bolalarni qabul qilishadi, dispanser nazorati o'tkazishadi, qonsultativ yordam (poliklinikada va uyda) berishadi, kasallanishni tahlil qilishadi va uni kamaytirish borasida tadbirlar ishlab chiqishadi, tibbiy xodimlar malakasini oshirishni tashkillatirishadi va aholi o'rtasida sanitar-oqartiruv ishlarini olib borishadi. Ixtisoslashtirilgan xizmat sifati va effektivligi muassasani texnik bazasi va mutaxassislar malakasiga bog'liq. Bolani uyda davolaganda UASH bir nechta qoidalarni yodda tutishi kerak: Tartib, dieta va bemor parvarishi

tuzalishda asosiy o'r'in tutuvchi omillar hisoblanadi. Bolani tuzalishi va yashab qolishida oilaning o'rni ustundir. Medikamentoz davo asoslangan va rasional bo'lishi kerak. Ehtiyyotkorlik nafaqat kuchli tasir etuvchi dorilar, balki oddiy dorilarga (antipyretik, antibiotik) nisbatan ham kuchli bo'lishi kerak. Taxminiy dozalarni qo'llash mumkin emas. Resept bilan ishlash oddiy holga aylanishi kerak. Bolaning "kasallik tarifi" o'z ichiga rekonvalessensiyani ham olishi kerak. Reabilitasiya muddati kasallik muddatidan qisqa bo'lishi mumkin emas. Tuzalgan bolalar UASh tomonidan berilgan sog'lomligi haqidagi ma'lumotnomma bo'lgandagina bolalar kollektiviga qo'shiladi. Bog'cha yoki maktabga boradigan bolalarga "talabalar, kollej uquvchilari vaqtincha ishga layoqatsizligi va bog'cha hamda maktab bolalari karantini to'g'risidagi ma'lumotnomma" beriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga boradigan bolalarga nafaqat ular kasal bo'lganlarida balki xo'jalik sabablari bilan 3 kun bog'chaga bormaganda ham ma'lumotnomada tashxis, kasallikni davomiyligi, infektion kasallar bilan aloqada bo'limganligi to'g'risidagi ma'lumot, davo choralar haqida ma'lumot, bolani dastlabki 10-14 kunlik rejimi bo'yicha maslahatlar ko'rsatiladi. O'tkir kasalliklar bilan kasallanib tuzalgan bolalar ma'lumotnomasiga jismoniy tarbiya fanidagi zo'riqishlarni kamaytirish bo'yicha, bolalar ijtimoiy reabilitasiyasi (maktab darslari rejimi, ma'lum bir faoliyatlardan ozod qilish va boshqalar) bo'yicha tavsiyalar kiritiladi. Bolalar muassasalarida o'tkazilgan kasallik haqidagi ma'lumotnomalar bolaning tibbiy xujjatlari ichiga tikib quyiladi.

Keyingi reabilitasion tadbirlar bolalar mussasasi shifokori tomonidan UASH tavsiyasini inobatga olgan holda olib boriladi.

### **Erta yoshdagি bolalar anemiyasining profilaktikasi va davosi.**

Chala tug'ilgan bolalarda anemianing xususiyatlari. Anemiya-chala tug'ilganlar orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri; 50-100% hollarda kasallik dastlabki 2 oyda aniqlanadi, ayniqsa noqulay fon mavjud bo'lganda (xomiladorlikning kechki toksozzi, onaning kasalliklari, tug'ruq vaqtidagi qon ketishlar va boshqalar). Anemianing og'irligi bolaning gestasion yoshiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Chala tug'ilgan bolalarning tug'ilgandagi vazni kichik (1500 dan kam) va gestasion yoshi 30 haftadan kam bo'lganda, hayotining birinchi oylarida og'ir anemiya aniqlanadi va eritrositar massa quyishga to'g'ri keladi. Chala tug'ilganlar anemiyasining 3 darajasi farqlanadi:

Engil (1 daraja)- gemoglobin 110-83 g/l gacha tushgan, eritrositlar  $3,5-2,5 \cdot 10^{12}/l$ ; O'rta og'ir (2 daraja)- gemoglobin 82-66 g/l, eritrositlar  $3,0-2,4 \cdot 10^{12}/l$ ; Og'ir (3 daraja)-gemoglobin 66g/l dan kam, eritrositlar  $2,4 \cdot 10^{12}/l$ . Shuningdek erta va kechki chala tug'ilganlar anemiyasi farqlanadi. Erta anemiya rivojlanishining asosiy sabablari HbF saqlovchi eritrositlarning "fiziologik" gemolizi, qizil suyak ko'migining funksional va morfologik etilmaganligi, to'qima eritropoetinlari produksiyasining pasayishi shuningdek qon ishlab chiqarishda zarur bo'lgan moddalarning tanqisligi ham katta ahamiyatga ega: xomiladorlikning oxirgi 2 haftasida oqsil, vitamin

S,E,B gruppasi, folat kislotasi, mis, kobalt, selen, molibden va temirning so'riliishi, transporti, almashinuvi va gem molekulasiga fiksasiyasini, shuningdek eritrositlar membranasi mustahkamligini taminlaydi.

Kechayotgan gemoliz natijasida kelib chiqqan temirning depodagi defisiti ahamiyatli bo'lib, u eritrositlar bir qismining gipoxromiyasi, mikrositoz, zardob temiri konsentrasiyasini pasayishi va suyak ko'migidagi siderositlar miqdori bilan namoyon bo'ladi. Temirning neonatal zahirasi tugashi bilan, erta anemiya kechki anemiyaga o'tadi, odatda ikkinchi yarim yillikda kuzatiladi. Bundan tashqari chala tug'ilganlar erta anemiyasi mikroorganizmlar bilan infisirlanishning simptomni bo'lishi mumkin, chunki ular o'z hayot faoliyatini ushlab turish uchun temirni aktiv istemol qilishadi.

Chala tug'ilganlar anemiyasini og'irlashishida yatrogen sabablar ham o'rIN tutadi-laborator tekshiruvlar uchun tez-tez, oz-ozdan qon olish lozim. Yana bir ahamiyatga ega omil- bu bolaning tez vazn qo'shishi hamda aylanayotgan qon hajmining ortishini eritropoez etishmasligi fonida kechishidir. Klinik jihatdan chala tug'ilganlarning erta anemiyasi teri va shilliq qavatlar rangparligi bilan namoyon bo'ladi, biroq og'ir shaklida rangparlikdan tashqari taxikardiya yoki bradikardiya, apnoe, taxipnoe kuzatilishi mumkin; bolalar sust bo'lib qoladi, passiv emadi, vazn qo'shilishi kamayadi. Periferik qon tekshirilganda normo- yoki gipoxrom anemiya aniqlanadi. Chala tug'ilganlar kechki anemiyasi postnatal hayotning 3-4 oylarida rivojlanadi va yaqqol klinik manzaraga ega bo'ladi. Bolalar odatda

sust, apatik, terisi rangpar, yuzi biroz shishgan bo'ladi. Mushaklar gipotoniysi, yurak chegaralarini kengayishi, sistolik shovqin (miokard distrofiyasi) kuzatiladi; OIT ning fermentativ faoliyati pasayishi hisobiga anoreksiya, bola tez-tez qayt qiladi, parenximatoz a'zolar kattalashadi (jigar, taloq), gipovitaminoz belgilari rivojlanadi. Anemiya regenerator gipoxrom xarakterda: eritrositlar miqdori, gemoglobin, rang ko'satkichi, eritrositlardagi gemoglobinning o'rtacha miqdori va zardob temiri kamaygan, anizasitoz, poykilositoz, polixromatofiliya, mikrositoz yuzaga keladi.

UASH uchun erta yoshdagi bolalardagi TTA katta ahamiyatga ega. Sideropenik anemiya-patologik holat bo'lib, organizmga temir tushishini buzilishi, o'zlashtirilishini buzilishi yoki patologik yo'qotilishi natijasida organizmda gemoglobin miqdorining pasayishidir. Bu anemiya gipoxrom, mikrositar anemiyalar guruhiga kirib eritrositdagagi gemoglobin konsentrasiyasini pasayishi bilan kechadi. Aksariyat hollarda TTA bir vaqtning o'zida vitamin, oqsil, mikroelementlar tanqisligiga olib keladi. JSST ma'lumotiga ko'ra dunyo aholisining 20% da temir tanqislik anemiyasi bor: 20-25% ko'krak yoshidagilar, 43% 4 yoshgacha bolalar, 7% 5-12 yoshgacha bolalar. TTA ayniqsa bola hayotining 2-yarim yilligi va o'smirlik davrida ko'p kuzatiladi. Temir-gemoglobin (60%), mushak oqsili mioglobin (9%) tarkibiga kiruvchi muhim mikroelementlardan biridir. Ferritin temir deposi sifatida 30%, fermentlar 1% (jumladan katalaza, sitoxromlar, peroksidaza, oksireduktaza va boshqalar) ni tashkil qiladi. TTA hisobiga barcha xujayralarda gipoksiya kuzatilib,

o'sishni, almashinuv jarayonini buzilishi nospesifik himoya aktivligi hamda xujayraviy va mahalliy immunitetni pasayishi kuzatiladi. Temir tanqisligi aqliy rivojlanish va intelektual imkoniyatlarni orqada qolishiga olib keladi.

Bolani temirga bo'lgan sutkalik ehtiyoji 0,5-1,2 mg ni tashkil qiladi. Jismoniy zo'riqishda, hayz jarayonida va chala tug'ilgan bolalarda temirga bo'lgan talab oshadi. Temirni xomila ichi zahirasi sog'lom bolalarda 4 oygacha, chala tug'ilganlarda esa 3 oygacha etadi. Bu asosan xomiladorlikning oxirgi muddatlarida depolanadi. Anemiyaning rivojlanish sabablari: qon hosil bo'lish komponentlarini organizmga etarlicha tushmasligi (alimentar faktor), ichaklarda ushbu komponentlarni surilishini buzilishi (malabsorbsiya sindromi, OiT kasalliklari), o'suvchi organizmda temirga bo'lgan talabning oshishi, shuningdek qon ketishi orqali temir yo'qotilishi va o'smirlardagi gormonal disbalans. Anemiya rivojlanishidagi xavf guruhiga: hayz sikli chuziluvchi qiz va ayollar, xomiladorlar, ko'krak suti bilan boquvchi ayollar va o'smirlar kiradi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni yuqori xavf guruhiga –onadagi asoratli kechgan xomiladorlik va tug'ruq, ota-onadagi zararli odatlar va kasbiy zaharlanishlar kiradi. Erta sun'iy oziqlantirish, vegetarianlik, tez-tez kasallanish, raxit, gipotrofiya, chala tug'ilganlik ham kasallik rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari fizik rivojlanishni yuqori tempda kechishi ichakda surilishning buzilishi, gijja invaziyalari, oshqozon va ichakning surunkali kasalliklari, qon ketish, o'smirlar gormonal disbalansi ham xavf guruhiga kiradi. Klinik

simptomlar gemoglobinning darajasiga bog'liq. TTA uchta darajaga bo'linadi: I daraja (engil)-90-110 g/l, eritrositlar soni  $3,5 \times 10^{12} \text{ g}^{-1}$  gacha pasayadi. II-daraja (o'rta og'irlikdagi)-gemoglobin 89-70g/l, eritrositlar soni  $2,5-3,4 \times 10^{12} \text{ g}^{-1}$  gacha pasayadi, III-daraja (og'ir) gemoglobin  $<70 \text{ g}^{-1}$ , eritrositlar soni  $2,5 \times 10^{12} \text{ g}^{-1}$  dan kam. Klinik ko'rinishida temirni yashirin defisiti (organizmni temirga bo'lgan talabi oshganda depodan sarflanishi) bilan kechuvchi sideropenik sindrom juda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Sideropenik sindromning simptomlari: epitelial o'zgarishlar (teri va shilliq qavatlarni trofik buzilishlari, rangpar va quruqligi, tirnoq va sochlarning sinuvchanligi, tirnoqlarni qavatlanishi, sinishi, kundalang chiziqlar paydo bo'lishi, og'iz burchagining yorilishi, tam va hidlarni ko'ta ra olmaslik, astenovegetativ buzilishlar (holsizlik, tez charchash, diqqatni jamlay olmaslik, bezovtalik, xotira pasayishi, ertalabki bosh og'rig'i, ishtaha pasayishi, ta'sirchanlik, kayfiyat yomonlashuvi, xansirash, bosh aylanishi, xushdan ketish. Surunkali charchash sindromi, ichaklarda hazm va so'rilishni buzilishi, dispeptik o'zgarishlar (meteorizm, disfagiya, ich ketishi yoki ich qotishi) mahalliy immunitetni pasayishi (respirator va o'tkir ichak kasalliklari bilan kasallanishni ortishi) nikturiya. Anemianing umumiy simptomlarini rivojlanishi anemik gipoksiya bilan ifodalanadi. Sideropenik sindrom namoyon bo'lishi bilan yurak qon tomir sistemasidagi o'zgarishlar (taxikardiya, tonlarni bug'iqlashuvi, anemik sistolik shovqin, gipotensiya, EKG dagi gipoksik va ishemik

o'zgarishlar, yurakning zarb va minutlik hajmini oshishi) qo'shiladi. Ikkilamchi nishon a'zolariga bosh miya va buyrak kiradi.

Laborator tekshiruvlardan asosiy ko'rsatkich bo'lib gemoglobinning miqdori hisoblanadi. Bolalarda gemoglobin normada (pastki chegarasi) 5 yoshgacha-110 g/l, 5 yoshdan kattalarda-120g/l, eritrositlar esa 5 yoshgacha- $3.6 \times 10^{12}/l$ , 5 yoshdan kattalarda  $4.0 \times 10^{12}/l$  ni tashkil qiladi. RK normada 0.8-1.0 ga o'zgarib turadi. RK darajasiga ko'ra gipoxrom (0.8dan past), normoxrom (0.8-1.0), giperxrom (1.0dan yuqori) anemiyaga bo'linadi. TTA da eritrositlar miqdori kam o'zgaradi. Zamonaviy apparaturalar yordamida eritrositlar morfologiyasini tekshirish mumkin. Eritrositdagi gemoglobinning o'rtacha miqdori normada 27-32 ng. Eritrositdagi gemoglobinning o'rtacha konsentrasiyasi 32-36%. Eritrositning o'rtacha hajmi 75-100 ft, eritrositning qalinligi 1,8-2,5 mkm, diametri 6,5-8,5 mkm, favoriklik indeksi 3-4. Eritrositlarni hajm va anizositoz darajasiga kura taqsimlanishi normada 13,5-16,0% ni tashkil qiladi. Organizmda temirning almashinushi zardobbdagi temir miqdoriga bog'liq, normada 14,5-33,6 mkmol/l. Zardobning umumiy temir bog'lash xususiyati (ZUTX ) normada 45-72 mkmol/l hisoblanadi. Transferringa to'yiganlik koefisenti 17% dan kam bo'lmasligi kerak. Anemiyada gematokrit ko'rsatkichi 35% dan kam bo'ladi. Organizmdagi temirning zahira ko'rsatkichlari – desferal test va zardob ferritinidir. Yoshidan qat'iy nazar to'qimalarda temir kamayib ketganda ferritinni zardobbdagi miqdori 10-12 mkg/l dan past bo'ladi. Disferal siderouriya 0,4 mg/sutkadan kam bo'ladi. TTA

diagnostikasida UASH gemoglobin va gemotokrit pasayishiga hamda mikrositozga e'tibor berishi kerak. Poliklinika sharoitida TTAni aniqlash maqsadida gemoglobin, eritrosit, RK, eritrositlarning shakli va o'lchami, retikulosit va trombositlarni miqdori aniqlanadi. Diagnoz qo'yilganda gemoglobin konsentrasiyasini kamayishi, gipoxromiya (morfologiya va rang ko'rsatkichiga ko'ra), normal yoki engil oshgan retikulositoz, temirning transport funksiyasining pasayishi (ZUTX ning 63 mkmol/l dan pasayishi, zardobdag'i temir miqdorining 14 mkmol/l dan pasayishi, transferinning to'yinganligi 12% dan pasayishi) aniqlanadi. TTA holatida ba'zan EKG, fonokardiografiya, ezofagofibrogastroduodenoskopiya (EFGDS), kolonoskopiya, rektoromonoskopiya, proteinogrammaga e'tibor berish, koprologik tekshiruvlar ham buyuriladi. Odatta taqqoslama tashxis qiyinchilik tug'dirmaydi. TTA xloroz, chala tug'ilganlardagi kechki anemiya, malabsorbsiya sindromi, o'tkir qon ketishdan laborator farqlanmaydi. Infeksiyadan keyingi anemiyada ham yaqqol gipoxromiya, mikrositoz, RK ni pasayishi, zardobdag'i temir, ZUTX ni pasayishi (TTA da ortadi) va transferinni to'yinganlik ko'rsatkichi normal (TTA da pasayadi) bo'ladi.

#### **Chala tug'ilgan bolalarda anemiyani davolash.**

Anemiyani davolashda: anemiya darajasi, suyak ko'migida qon ishiab chiqarish aktivligi (retikulositlar miqdori), anemiya rivojlangan fon va bolaning yoshi e'tiborga olinishi kerak. Chala tug'ilgan bolalarni, ayniqsa 1 oylik bolalarni tabiiy yo'l bilan oziqlantirish, organizmni temir bilan taminlash muhim (1 l da 0,2-1,5

## Temirni hisoblanishning qurʼati

mg temir). Ona suti ( bir litrida 0.2-1.5 mg temir saqlaydi), shu bilan birga chala tug’ilgan bolani tuqqan ayollarda laktasiyani quvvatlab turish ham katta muammo hisoblanadi. Temir tanqisligini dietik korreksiyalash uchun o’z vaqtida ( ammo 4-5 oydan erta emas ) qo’shimcha ovqatlarni (soklar , mevalar, sabzavotli pyurelar 7 oydan) kiritish lozim. Chala tug’ilgan bolalarda anemiyaning asosiy profilaktikasi va davosi temir preparatlarini qabul qilish hisoblanadi; fiziologik nuqtai nazardan oral yo’l eng samarali hisoblanadi. Anemiyada qo’llaniluvchi temirning bir kursli elementar dozasi quyidagi formula orqali aniqlanadi;

$$TPKD ( \text{mg} ) = TM^* ( 78 - 0.35 * Hb )$$

TM-tana massasi kg

Hb -gemoglobin gr/l

Bir mlda temir saqlovchi preparatni aniqlash formulasi:

Bir kursdagi preparat miqdori (m) TPKD/PTM.

PTM-1 ml preparatdagi temirning miqdori mg.

Tanlov preparati sifatida 3 valentli gidroksidipol maltoza kompleksining zamonaviy vakili sifatida-maltofer va ferrumlek hisoblanadi. Bu preparatlar stabil kompleks hisoblanib, ular ichak shilliq qavatiga shikastlovchi tasir qiluvchi ozod temir ionlarini hosil bo’lishini oldini oladi. Bu preparatlardagi temir reabsorbsiyasi gemdagagi temir absorbsiyasiga yaqin: temir bevosita transferrin va ferritin bilan bog’lanib to’qimalarda depolanadi. Temirning musbat balansi hosil bo’lishi bilanoq temir surilishi to’xtaydi, bu esa zaharlanishning oldini oladi. Bu preparatlar tomchi, sirop shaklida

chiqib bu aniq dozalash va foydalanishda qulaylik yaratadi. Bundan tashqari boshqa preparatlarni qo'llash mumkin: aktiferrin, temir xlorid (gemofer), totema, feronat va boshqalar. Temir preparatlarini oral qabul qilganda quyidagi noxush effektlar kuzatilishi mumkin: ishtahaning pasayishi, kekirish, quşish, ichaklar disfunksiyasi, giperemiya, terining qichishishi, axlatning qorayishi. Disbakteriozda grammanfiy mikrofloraning kuchayishi natijasida dispeptik holat yuzaga keladi, bu esa eubiotiklarni qo'llashga ko'rsatma bo'ladi. Dozani hisoblash preparatdagi elementar temir miqdorini hisoblashga asoslangan bo'lishi kerak.

Temirning elementar davolovchi dozasi anemianing og'irligida darajasiga bog'liq: engil dr – 3-4mg/kg sut, o'rta og'ir dr – 5mg/kg sut, og'ir dr – 6mg/kg sut (G.A. Samigina, T.V. Kazyukova, 2002g). Preparatning to'liq dozali davolanish davomiyligi 4 haftadan 10 haftagacha. Temir preparatlariga tolerantlikni o'rganishda davolash - 1/3 terapevtik dozadan boshlanadi; To'liq dozani bola davolashning 7-10 sutkasidan keyin qabul qila boshlaydi. Sutkalik dozani uch mahalga bo'lib berish maqsadlidir; dorini ovqat paytida suv yoki sok bilan bergen ma'qul. Davolash samarasiz kechganda va anemiya kuchayib borganda bola chuqr tekshiruv o'tkazish yoki temir preparatlari bilan parenteral davolash uchun stasionarga yuboriladi. Davolashni samarasini baxolash maqsadida preparatni qabul qilishdan boshlab ikki haftadan so'ng Hb, Erit. miqdori, rang ko'rsatkichi va retikulositlar miqdori nazorat qilib boriladi. Davolash to'g'ri olib borilganda retikulositlar miqdori oshadi, 4 haftadan so'ng Hb va

Eritrositning konsentrasiyasi normallashadi. Anemiyaning davolash kriteriyalari bo'lib, Hb konsentrasiyasini oshganligi emas, balki organizmdagi temir defitsitini yo'qotilishidir. Shuning uchun davolashning asosiy kriteriyasi bo'lib qon zardobidagi ferritin miqdorini tiklanganligi ahamiyatlidir. To'g'ri davo olib borilganda temir zahirasi 8-12 haftaga borib tiklanadi (anemiyaning og'irlik darajasiga bog'liq). Shundan so'ng uch yoshgacha ushlab turuvchi doza 1-2mg/kg sut.ni tashkil qiladi. Anemiyali chala tug'ilgan bolalarda dispanserizasiya ikki yil ichida amalga oshiriladi. Temir preparatlarini qabul qilish vaqtida oyiga ikki marta UASh ko'rige o'tkaziladi; keyinchalik bir yoshgacha har oyda, ikki yoshda har kvartalda o'tkaziladi. Har bir ko'rikda UASh umumiy qon analiziga ahamiyat berishi kerak; ko'rsatkichlar normallashgandan keyin tekshiruvlar uch oyda bir marta yoki interkurrent kasalliklar vaqtida o'tkaziladi. Bolani dispanser nazoratidan chiqargandan so'ng zardob tarkibidagi temir miqdori, ferritin aniqlanishi kerak. Birinchi darajali anemiyada profilaktik emlashlarga qarshi ko'rsatma yuq, ikkinchi va uchinchi darajali anemiyada tibbiy chekinish tavsiya qilinadi. Temir tanqis anemiyasini davolash uning sababini, kelib chiqishini (gijja invaziysi, qon ketish, MIT patologiyalari), kun tartibini tashkillashtirish, ovqatlanish, medikamentoz davodan boshlanadi. Temir tanqis anemiyani davolashni tashkillashtirishda, temir tanqisligini organizmda to'ldirish dietoterapiya orqali amalga oshirish mumkin emasligini esda tutish kerak. Zamonaviy tavsiyalarga ko'ra bolaning ovqat ratsioni tarkibida boshoqli mahsulotlar, temir

surilishini qiyinlashtiruvchi (kalsiy, oksalatlar, fosfatlar, tanin) mahsulotlarini kamaytirish kerak. Temir surilishini sekinlshtiradi: protein, kofe, choy, dukkaklilar va yong'oqlar, dori vositalaridan antasidlar, kalsiy preparatlari. Temir surilishini kuchaytiruvchi mahsulotlar: go'shtli, parranda go'shti, baliq; askorbin va pirouzum kislotasi, fruktoza va sorbit. Temirga boy mahsulotlarga jigar, tuxum sarig'i kiradi. Temir tanqislik anemiyasida shuni esda tutish kerakki, mahsulotlarda temir moddasi kup bulishidan qatiy nazar u tuliq surilmaydi. Mevali sharbatlar, olma, anor, grechkalarni kup miqdorda istemol qilsa ham ulardag'i temir mikdorining 10%gina MITdan suriladi. Suniy ovqatlantirilganda temirga boy moslashtirilgan aralashmalar – «nordon sutli NAN temir bilan» tug'ilganidan boshlab, «temir bilan boyitilgan NAN» tug'ilgandan, «gipoallergen temirli NAN» bir oyligidan, «6 va 12 oyligidan temirli NAN», «temirli semilak» lar beriladi. 1 yoshli bolalarda qo'shimcha ovqatlantirish 1oy oldin beriladi. Temir tanqislik anemiyasini davolashda oral yo'l bilan qabul qilinadigan preparatlar berilgani afzalroq. Uch valentli temirning gidroksil kompleksining zamonaviy preparatlariga maltofer va ferrumlek kiradi. Ikki valentli temirning tuzli preparatlaridan farq qilib ichakning shilliq qavatiga tasir ko'rsatmaydi, qabziyat, diareya, ko'ngil aynishi, kekirishni oldini oladi. Kimyoviy strukturasi va aktiv transporti organizmni ozod ionlardan himoya qiladi. Ijobiy temir balansiga erishilganda temirning qayta bog'lanish mexanizmiga ko'ra temir dozasini ko'payib ketishidan va zaharlanishni oldini oladi. Tavsiya qilinuvchi

doza 6-8 oy davomida 3-6 mg/kg ni tashkil qiladi. Yosh bo'yicha dozalanishi: 6 oydan 3 yoshgacha – 60-90 mg temir, 4-6 yoshda 150 mg temir. Davolanishning 5-10 kuniga borib qondagi retikulosit miqdori oshadi. 5-7 kunga kelib holsizlik, charchash yo'qoladi. Davolashdan 3-4 hafta o'tgach Hb miqdori 50% ga oshishi kerak. Sutkasiga Hb miqdori 3-4g/l oshadi. Davolashning 4-5 haftasiga borib Hbning konsentrasiyasi normallashadi. 4 haftadan so'ng temir dozasini 1/3 yoki 1/2ga kamaytirish mumkin va preparatni berish 1-2 oy davom ettiriladi. Chala tug'ilgan bolalarda, malabsorbsiya sindromi bor bolalarda va temir tanqisligi anemiyasi bor xomiladorlarda temir preparatlarini kombinirlangan holda qo'llash yuqori samara beradi. Antasidlar, kalsiy preparatlari, simetidinlar temir so'riliшини камайтиради. Vit S temir so'riliшини кучайтиради.

Davolash effektivligining nazorati:

- 10-12 kunlarda retikulositar reaksiya
- 3-4 haftadan so'ng gemoglobin miqdorining ortishi
- 1-2 oydan so'ng klinik manzaraning yo'qolishi
- 3-6 oydan so'ng to'qima sideropeniyasining yo'qolishi (ferritin zardobi orqali nazorat).

#### **Profilaktika**

Antenatal profilaktika: xomiladorliklar orasidagi oraliqning kamida 2 yil bo'lishi; (qon analizlari nazorati, kombinirlashgan polivitaminoterapiya kurslari), xavf guruhiga kiruvchi ayollarga (ko'p xomiladorlik, bachadon- plasentar qon aylanishining buzilishi, norasional ovqatlanish, 4 va undan ko'p xomiladorlikdan keyingi

tug'ruqlar, 30 yoshdan kattalarda ) xomiladorlikning 30-hafatasida temir preparatlari beriladi. Nospesifik choralar bilan TTA ning postnatal profilaktikasi: tabiiy ovqatlantirish, temir bilan boy adaptirlangan aralashmalarni ishlatish, rejimga rioxo qilish, raxit, gipotrofiya, URK kasalliklarini oldini olish va davolash. Eng muhimi o'z vaqtidagi diagnostika 3 oylik va 1 yoshdagi hamma bolalarga qon tekshiruvlarini o'tkazish, xavf guruhiga kiruvchilarini 1 oyligida tekshiruv o'tkaziladi. O'smir qizlarda profilaktika maksadida o'tkaziladigan spesifik vaksinasiya hayz funksiyasi boshlanishida, xavf guruhiga kiruvchi (onasida TTA, ko'p xomiladorlikdan tug'ilganlar, erta suniy oziqlantirish, tana vazni 4 kg dan oshiq tug'ilganlar) bolalarda 2 oylikdan o'tkaziladi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda TTA profilaktikasi uchun hayotining 4-hafatasidan, anemiyaning og'ir darajasida va tana massasi juda kam chaqaloqlarga hayotining 3-hafatasidan 2 mg/kg sutkada temir preparatlari buyuriladi. Hamma vaqtida tug'ilganlarga 3 oyligidan boshlab temir preparatlari 1mg/kg sutkasiga, davomiyligi 30-45 kungacha buyuriladi. Tog'li tumanlarda yashovchi bolalarga profilaktika maqsadlarida ham temir preparatlari buyuriladi.

### **Dispanserizasiya**

Anemiyali bolalarning dispanserizatsiyasi qon ko'rsatkichlarini normallashuvidan keyin 6-12 oy oralig'ida o'tkaziladi. Temir preparatlarini qabul qiluvchi bemorlar qonidagi gemoglobinning miqdori normal bo'lgancha har 10-14 kunda dinamik kuzatuvar olib boriladi, klinik ko'ruvlar va qon analizlari o'tkaziladi. Gemogramma

normallashgandan keyin ferroterapiyani ushlab turuvchi dozada yana 2-3 oy davomida olib boriladi, 1oyda bir marta ko'rik o'tkaziladi, keyinchalik esa har 3 oyda o'tkaziladi. Davo tugagandan keyin zardobdag'i temirni nazorat qilish shart.

Mutaxassislar konsultatsiyasiga ko'rsatma bo'lib anemianing og'ir darajasi yoki davo choralar samarasiz holatlar hisoblanadi.

Kasallikning o'tkir davrida 2 haftada 1 marta, remissiya davrida 1 oyda 1 marta kengaytirilgan qon tahlilidagi retikulotsitlar miqdori sanaladi. Zardobdag'i temir miqdori va ZUTX ko'rsatma bo'lganda aniqlanadi. Shuningdek har qanday interkurrent kasallikkdan keyin ham qon tahlili o'tkaziladi.

Retsidivga qarshi tadbirlarga ratsional ovqatlanish, vitaminlar buyurilishi, toza havoda sayr, interkurrent kasalliklarning profilaktikasi kiradi.

Anemianing 1 darajasi emlashga qarshi ko'rsatma bo'la olmaydi. Ammo emlashni gemoglobinning miqdori kamida 100 g/l etganda tavsiya etiladi. Anemianing 2-3 darajalarida profilaktik emlash kam samarali hisoblanadi. Gemoglobin miqdori normallashganda va temir preparatlar bilan 1 oy davomida davolangandan so'ng emlashni o'tkazish mumkin.

**Erta yoshdag'i bolalardagi raxit, spazmofiliya va gipervitaminoz D ning profilaktikasi va davosi.**

Raxit-bola hayotining birinchi yilligida uchraydigan kasallik, suyaklar mineralizatsiyasining etishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi: patogenezi asosida vitamin D defitsiti yotadi. Raxitning rivojlanishi

yuqori xavf guruhi ga kiruvchi bolalarga doimiy noadaptirlangan aralashmalar bilan sun'iy ovqatlantirish, vegeterianli prikormlar qabul qiluvchilar, chala tug'ilganlar, surunkali hazm qilish buzilishlari bor bolalarda (mal'absorbsiya sindromi, surunkali jigar kasalliklari), uzok muddat tutqanoqqa qarshi dori vositalari qabul qiluvchilarni kiritish mumkin.

Hozirgi kunda raxitni tug'ma xarakterga hamda moddalar almashinushi buzilishi natijasida rivojlanuvchi kasallikka kiritishgan (vitamin – D ga bog'liq, vitamin -Dga rezistenli raxit va boshq.), Kasallik patogenezi asosida kal'siyni bog'lovchi oqsil sintezi pasayishi, kal'siy tuzlarining ichakda so'riliшини kamayishi yotadi. Gipokal'siemiya rivojlanishi natijasida qalqonsimon oldi bezlarni aktivlanishi kuzatiladi. Raxitdag'i asosiy o'zgarishlar suyakda kuzatiladi. O'sish zonasidagi epifizar tog'ayning so'riliши va nomineralizlangan osteoidning metafizar o'sishi kuzatiladi.

Etuk tug'ilganlarda raxitning boshlang'ich davrlarida bezovtalik, uyquning buzilishi, cho'chish, qizil dermografizm, ensa sohasidagi sochlarning to'kilishi kuzatiladi. Simptomlar 1-4 oy larda kuzatiladi. Boshlang'ich davr 1,5 haftadan 1 oygacha davom etishi mumkin.

Huruj davrida suyak sistemasidagi o'zgarishlar ustunlik qiladi. Kraniotabes, miya qutisi konfiguratsiyasining o'zgarishi (ensa suyagini qalinlashishi, do'ng peshanalik, tepe suyagi g'adir-budirlik va boshq.) kuzatiladi. Ko'krak qafasida «tasbehlar», Garrison egatchasi, «tovuqsimon» yoki «ponasimon» ko'krak qafasi shakllanadi. Suyak metafizida «raxit bilakuzuklari», falangalarda esa

«munchoq iplari» paydo bo‘lishi xarakterli. Umurtqa pog‘onasining qiyshayishi kifoz, lordoz yoki skolioz tipida bo‘ladi. Oyoqlar ko‘pincha O-simon, kam hollarda X-simon qiyshayadi. Katta liqaldoqni kech bitishi, tishlar chiqishining buzilishi kuzatiladi. Osteomalyasiya (suyak yumshashi) simptomlari raxitni o‘tkir kechishi uchun xarakterli. O‘tkir osti kechishi uchun osteoid giperplaziya xarakterli. Mushak gipotoniyasi – raxit uchun xarakterli symptomdir. Mushaklar bo‘shashishi, bo‘g‘imlarning qimirlab qolishi, «qurbaqa qorin» kuzatiladi. Yaqqol kechuvchi raxit uchun sanab o‘tilganlardan tashqari nerv sistemasining shikastlanishi, psixomotor rivojlanishdan orqada qolish, giperesteziya xos.

Darajasiga ko‘ra raxit engil (I), o‘rta (II), og‘ir (III) darajaga bo‘linadi. I- daraja uchun raxitning erta belgilari xos. II-daraja uchun suyak, mushak va nerv sistemasidagi o‘zgarishlar xos. Ichki a’zolardagi o‘zgarishlar ( jigar va taloqni kattalashishi ) kuzatiladi. Raxitning III-darajasi uchun esa suyak, mushak, nerv sistemasidagi va ichki a’zolardagi yakkol o‘zgarishlar va og‘ir anemiya xos.

Raxit diagnozini qo‘yish uchun klinik ko‘rinish, biokimyoviy o‘zgarishlar (ishqoriy fosfotaza, kalsiy va fosfor aktivligi ), rentgenologik belgilarni hisobga olish kerak.

Gospitalizatsiyaga ko‘rsatma: raxitning III-darajasi, taqqoslama tashxis o‘tkazish zarur bo‘lganda, qo‘silib kelgan patologiyada statsionarga yotqizilishga talab bo‘lganda, qolgan barcha hollarda raxit ambulator davolanadi.

## **■ Raxitning davosi va shartlari**

Raxitning davosi kompleks hamda kalsiy va fosfor almashinuvini buzilishiga olib keluvchi barcha omillarni bartaraf qilish bilan olib boriladi.

Bolaning yoshiga mos ravishda kun tartibi, etarli dam olish bilan birga ta'sirlanish ( o'ta yorug'lik, shovqin va boshq.) ni bartaraf qilish kerak. Ochiq havoda ko'proq bo'lish va xonani regulyar shamollatish zarur. LFK, massaj, gigienik vanna muhim rol o'ynaydi. Agar bola emizikli bo'lsa onaning oziqlanishiga e'tibor qaratish kerak. Agar aralash oziqlanayotgan bo'lsa uzok muddat tabiiy oziqlanishni korreksiyalash kerak. Sun'iy oziqlanishda adaptirlangan, ona sutiga maksimal yaqin bo'lgan va xolekalsiferol (vit D<sub>3</sub>) bo'lgan sutli aralashmalarni berish kerak.

Raxit kasalligining davosi yog'da eruvchi D vitaminni qo'llashni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich davrida kunlik miqdori 500-625 ME birlikda nitrat aralashmasi yoki ul'trabinafsha nurlari bilan olib boriladi. Xuruj davrida 30-40 kun davomida kunlik dozasi 2000-5000ME gacha oshiriladi, bu yaxshi terapeutik ta'sir ko'rsatadi. Kunlik doza 20000-40000 ME ni tashkil qiladi. Kal'siferol uchun kunlik doza 10 mkg, kastrol uchun esa 1mkg/sutka ni tashkil qilib, shundan so'ng profilaktik quvvatlovchi dozaga 500 ME ga o'tiladi, bu bolaning 2 yil davomida kunlik va bolaning 3 yilining boshlanishida zarur bo'ladigan dozasi hisoblanadi.

Raxit kasalligining davosi 3-5 kun davomida 2000ME dan boshlanib, keyin dozani yaxshi o'zlashtirishiga qarab individual dozagacha oshiriladi (ko'pincha 3000ME ni tashkil qiladi). 5000ME

dozasini fakat suyak sistemasida o'zgarishlar bo'lganda beriladi. Kasallik qaytalanishiga qarshi davolash vit D3 2000-5000ME ni 3-4 hafta davomida qo'llash tavsiya etiladi. Bu davolash birinchi davolash kursidan 3 oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi (yozda o'tkazilmaydi, yaxshisi vit D3 ishlataligani ma'qul). V. M. Studenikin raxitni davolashda vit D3 ni katta dozalarda tavsiya qiladi. Idarajada 600000 ME ni, 2 darajada 800000ME ni va 3 darajada 1000000ME. Bu dozalarni profilaktika uchun qo'llaniladigan tabiiy oziqlantiriladigan bolalarga kal'siy preparatlari tavsiya qilinadi. Kal'siy preparatlari bolaning birinchi va ikkinchi yarim yillik hayotida 3 hafta davomida tavsiya etiladi.

#### Dozalari:

- kal'siy glitserofosfat 0.05grdan 2-3 mahal kuniga, kal'siy glyukonat 0.15-0.25gr 2-3 mahal kuniga.  
-sitratli aralashmalarni (Ac.citrici 2,1 natrii citric 3,5 Aq. Distillatead 100,0) kal'siy va fosfor tuzlarini ichakda o'zlashtirilishini oshirish uchun, fosforni buyrakda reabsorbsiyasini kuchaytirish uchun (10-12 kun davomida 1 choy qoshiqdan 3 mahal qo'llaniladi).  
Qalqonsimon oldi bezi funksiyasini me'yorashtirish uchun va vegetativ buzilishlri kamaytirish maqsadida kompleks davoga magniy preparatlari (panangin, asparkam) kuniga 10mg/kg dan 3-4 hafta davomida qo'shiladi.  
Kal'siy va fosfor preparatlari chala tug'ilgan bolalarga beriladi, 2-3 yoshlik bolalarga esa kal'siy bilan boyitilgan parhez tavsiya etiladi.

Metabolik jarayonlarni kuchaytirish uchun esa orat kislotasi kunigi 10-20mg/kg, karnitin gidroxloritni 20% li suvdagi eritmasi 4-12 tomchidan kuniga 3 mahaldan 1-3 oy davomida.

Og'ir raxitga chalingan bolalarda energetik almashinuvni kuchaytirish maqsadida trifosfoadenin m/o 0.5ml (15-30 in'eksiya davolash kursi davomida tavsiya qilinadi). Medikamentoz kompleks terapiya boshlanganidan 2 hafta o'tgandan so'ng davolovchi jismoniy tarbiya va massaj qo'llaniladi, Yana ikki haftadan so'ng tuzli vannalar yoki o'tlar qaynatmasidan vannalar balneoterapiya o'tkaziladi.

Qo'zg'aluvchan bolalarga nina bargli vannalar qo'llaniladi.(1choy qoshiq ekstraktni 10 litr suvga qo'shib; harorati 36s birinchi vanna davomiyligi 5 dakika, keyingilari 8-10 dakikadan. Davolash kursi 13-15 muolajadan iborat.)

Kamharakat, kamquvvat bolalarga tuzli vannalar tavsiya qilinadi.(10 1 suvga 2 osh qoshiq dengiz yoki osh tuzi solinadi; bir muolaja davomiyligi 3 daqiqadan, keyingilari 5 daqiqadan). Davolash kursi 8-10 vanna. Zubturum, chereda, air ildizi, moychechak, dub po'stlog'i kabi o'tlar qaynatmasidan vannalar ekssudativ-kataral tip konstitutsiyali bolalarga tavsiya qilinadi. Balneoterapiya yiliga 2-3 marta o'tkaziladi.

Davolashning yakuniy mezonlari: Laboratoriya ko'rsatkichlarining me'yorlashuvi.

Sog'lom, chala tug'ilgan bolalarda raxitning maxsus profilaktikasi bolaning 3 haftaligidan sutkasiga 5000MEDan har kuni boshlanadi.

Raxitning rivojlanish xavfi bo‘lgan bolalarga D vitaminining suvdagi eritmasidan kuniga 1 tomchidan (profilaktika un 500ME)6-18 oy davomida buyurish tavsiya qilinadi.

Hayotining 2 yoshigacha kuz va bahor oylarida kuniga 2 tomchidan (1000ME) buyuriladi. Chala tug‘ilgan bolalarda profilaktika maqsadida hayotining 10-14 kunidan boshlab kuniga 600-800ME berilib, hayotining 2 oyligidan 1000-2000ME gacha ko‘tarilib, hayotining 2-yilligidan 500-1000ME(yoz oyini hisobga olmagan holda) buyuriladi. Sulkovich probasi nazorati ostida olib borilishi shart.(2-4 haftada 1 marta).

Dispanser kuzatuvi: dekret muddatlarida bolalarni UASH va mutaxasislar ko‘rikdan o‘tkazadi. Bir yilda ikki marta qon analizi, siyidik analizi, qondagi ishqoriy fosfotaza aktivligi ,kal’siy va fosfor miqdori aniqlanadi.

Profilaktika chora –tadbirlari muvozanatlashgan oziqlanish , hayot rejimini ratsionallash, gimnastika va chiniqtirishni o‘z ichiga oladi.

Spazmofiliya bola hayotining birinchi ikki yilligida uchrovchi kasallik hisoblanadi. Spazmofiliya va raxit Ca va F almashinuvining ikkita har xil fazalar buzilishida vit D tanqisligi natijasida rivojlanadi.

Spazmofiliyada gipokal’siemiya kuzatiladi, (raxitda nisbatan kamroq nomoyon bo‘ladi) alkaloz(raxitda teskari alkaloz), qalqonsimon oldi bez gipofunksiyasi(raxitda ularning funksiyasi oshadi). Asosiy klinik simptomlar spazm(laringospazm, karpopedal spazm)va talvasa. Davolashda talvasaga qarshi vositalar kal’siy

preparatlari buyuriladi. Kal'siy preparatlarini qabul qilgandan 3-5 kundan so'ng spazmofiliya belgilari yo'qolgandan keyin antiraxitik davo olib boriladi.

Ko'pincha gipervitaminoz D 3-12 oylik bolalarda rivojlanadi va ishtaha yo'qolishi, sababsiz davriy qayt qilishlar, chanqash, tana massasining kamayishi, qabziyat bilan namoyon bo'ladi. Bolalar statsionar sharoitda davolanishi kerak. Uchastka UASHi vitamin D bilan zaharlanishga shubha qilganda darhol preparatni to'xtatishi, ovqatlanish ratsionidan kal'siyga boy preparatlarni chiqarish, kal'siy preparatlarini to'xtatish, ko'p suyuqlik ichirish tavsiya qilinadi. Agarda davo o'z vaqtida boshlanmagan bo'lsa, 2-3oydan so'ng kasallikning asoratlari kuzatilishi mumkin: buyrak zararlanishi, yakkol tomir gipertenziysi, fiziologik rivojlanishdan orqada qolish, immunitetning buzilishi. Bunday bolalarda kamida 3 yil dispanser kuzatuvi olib boriladi. Birinchi 6 oyda oyiga bir marta, keyinchalik 3 oyda bir marta UASH ko'rigi o'tkaziladi.

Qon bosimi, Sulkovich probasi, siydik analizi, qondagi Ca miqdorini nazorat qilish pielonefrit rivojlanganda dispanserizatsiya sxema bo'yicha olib boriladi. Qaytalanishga qarshi chora-tadbirlar kal'siyga boy mahsulotlarni ovqatlanish ratsionidan chiqarish (suyuqlik chegaralanmagan holda). Antianemik terapiya va vitamin terapiyani o'z ichiga oladi.

## **Bolalarda konstitutsiya nuqsonlarini davolash va profilaktikasi.**

Konstitutsiya nuqsonlari bor bolalarda dispanser kuzatuv sog'lom bolalar uchun bo'lgan jadval bo'yicha olib boriladi.

Ekssudativ-kataral diatez – reaktiv xolat bo'lib, moddalar almashinuvini buzilishi allergik jaraen rivojlanishi, teri va shilliq qavatni qaytalanuvchi infiltrat-deskvamativ zararlashiga moyilligi bilan ifodalanadi. Bunda bolalarda giperlipidemiya, giperglikemiya, gipoproteinemiya, atsidoz rivojlanib suv va natriy ushlanib qolish moyilligi rivojjanadi. EKDni rivojlanishida xomiladorlarni oziklanishi buzilishi va anamnezida allergik simptom mavjudligi axamiyatga ega. Xomiladorlik paytida gipovitaminoz, atrof muxitni ifloslanishi va OIT surunkali kasalliklari EKD rivojlanishini chakiruvchi omil xisoblanadi.

EKD patogenezida psevdoallergiya mexanizmlari gistaminni ajralishi bilan bog'liq, ortiqcha sekretsiyalanib semiz xujayralardan gistamin ajralib chiqadi.

EKDga chalingan bolalarni tashki ko'rinishi: shishinqirashi, bo'shashish, oq dermografizm, teri quruqligi, gneys. Ba'zi xollarda «geografik» til aniqlanadi, uzoq davom etuvchi kon'yuktivitlar, blefaritlar, rinitlar nafas yo'llarini obstruksiyaga moyilligi kuzataladi.

EKD to'lqinsimon kuchayish va yaxshilanish bilan kechadi. Kuchayishi onaning noto'g'ri ovqatlanishi bilan bog'liq (tabiy oziqlantirishda) va bolaning (suniy oziqlantirish) aralashmalarni ko'tara olmasligiga bog'liq. Ikkinchi yilning oxirlarida EKD

simptomlari kamayadi va yo'qoladi. 15-20% bolalarda allergodermatoz, BA rivojlanadi.

Tekshiruvlar belgilanishi klinik simptomlarga bog'liq. Ko'p xollarda umumiy qon analizini o'tkazish buyuriladi.

#### **Bolalarda gipovitaminozning diagnostikasi va davolash.**

##### **Vitamin A yetishmovchiligi.**

Vitamin A faqat xayvon maxsulotlarida mavjud: yog'da, dengiz baliqlari (laqqa, bakra) jigarida. Provitamin A (karotinoidlar) o'simliklarda (sabzi, qovoq, mandarin, apelsin), tuxumda, sut emizuvchilarning va qushlarning jigarida, sutda bo'ladi.

Organizmda vitamin Ani biologik ta'siri quyidagi jaraenlarga bog'liq:

- ko'zning to'r pardasida ko'rvuv purpurasini yig'ilishini normada ushlab turadi;

- ektodermani (teri va uni xosilalari-tirnoq, soch, konyuktivani shilliq pardasi) oziqlanishini ta'minlash va boshqarish;
- moddalar almashinuvini boshqarisp (fosfatidli, xolesterinli).

- Bundan tashqari vitamin A antigistaminli va immunadyuvant xossalarga ega, xujayraviy va gumoral tipdagi immunologik jaraenlarni kuchaytiradi.

Gipovitaminoz A boshlang'ich simptomlar epiteliy xujayrasini bo'linish jaraenlari va normal xolatini buzilishi, terini quruqlashib kepaklanishi, follikulalarni qisman dag'allashishi, soch quruqligi va sinuvchanligi, tirnoqlarda ko'ndalang chiziqlar paydo bo'lishi.

Ko'krak yoshidagi va erta yoshdagi bolalarda soch to'kilishlari va dermatitlar paydo bo'ladi.

Shilliq qavatning eroziyasi, konyunktivit va blefaritlar, stomatitlar, oshqozon shirasi ajralishini kamayishi, buyrak jomini, siyidik pufagini epithelial xujayralarini ajralishi kuchayishi, ovqat xazm bo'lishi va so'rilishini buzilishiga olib keluvchi ichak shilliq qavatini epiteliysi o'zgarishi – gipovitaminoz A simptomlariga kiradi.

Moslashuv qobiliyati buzilishi (gemerolopiya)- vitamin A yetishmovchiligidagi funksional o'zgarish. Gemerolopiyani erta simptomlari yorug'likdan qorong'ilikga o'tganda ko'rish qobiliyati buzilishi, ko'z oldida «qora nuqtalar» va «yulduzchalar» poydo bo'lishidir.

Gemerolopiyani noaniq formasida kuchsiz yorig'likda qiyin moslashadi ko'pincha o'quv yoshidagi bolalarda kuzatiladi. Vitamin A defitsitida virus- bakteriyali kasalliliklarga qarshilik kamayadi; gipovitaminoz A uzoq vaqt davom etsa jismoniy va aqlan rivojlanish orqada qoldiradi. Vitamin A defitsiti qonda miqdori 0,7 mkmol/l dan kam, karotin miqdori 1,5 mkmol/l dan kam, moslashuv qobiliyati normadan past.

A vitamini yetishmovchiligin davolashda vitamin A preparatlari ishlatalinadi. Vitamin A yetishmovchiligin og'ir formalarida miqdori kunida 25 000-50000 ME gacha oshiriladi (preparatni sutkada 1 kg tana vazniga 500-1000 ME xisoblanadi), kunlik kurs bilan.

## **Vitamin K yetishmovchiligi**

Vitamin K defitsiti bir qancha surunkali kasalliklar (enterit, enterokolit), malabsorbsiya sindromi, ichakni xirurgik yo'li bilan olib tashlash, turli etiologiyali gepatitlar, jigar sirrozi, oshqozon osti bezini o'smalari, o't tosh kasalliklari,

-uzoq vaqt ichak mikroflorasini buzuvchi antibiotik qabul qilish, neodikumarin tipidagi antikoagulyantlar, varfarin.

- xomilada K vitaminini birlamchi etishmovchiligi, uning platsenta orqali ushlanib qolishi, jigar funksiyasini buzilishi va yog'ni o'zlashtirilishi kamayishiga bog'liq. K vitaminini birlamchi yetishmovchiligi asosida xomilani gemorragik kasalligi yotadi.

- inson uchun K vitaminini asosiy manbasi yashil o'simliklar xisoblanadi. Eng kup bu vitamin ismaloqda (40 mkg/g kuruk modda) va karamda (10-30 mkg/g). K vitaminini inson organizmida qon ivish jaraenida axamiyatga ega.

Vitamin K jigarda protrombin, prokonvertin(7 faktor), Kristmas faktori(9 faktor), Styuart-Prauer faktorii (10 faktor) kabi moddalarning o'z noaktiv xolatlaridan aktiv xolatini xosil qilishida muxim rol o'yndaydi. K vitamin yetishmovchiligi klinikasi ekximoz, gema toza, qon ketishi (kupinchha burundan) bilan xarakterlanadi. Chaqaloqlarda kindik yarasidan, bosh soxasi, ichidan qon ketishi mumkin. Bu xolatda teri va shilliq qavatlarda petexial toshmalar bo'lmaydi, endotelial tekshiruvlar manfiy chiqadi. K avitaminozda qondagi protrombin miqdori 70% dan kam bo'ladi. K avitaminozda uchraydigan qon ketishlarda m.o bir vaqtda 0.5-1.0 ml 1% vikasol

yuboriladi. Keyin preparatni 0.003-0.01 g dan 3 maxal 3-4 kun davomida qabul qilinadi.

### **Vitamin E yetishmovchiligi**

Tokoferol (vitamin E) tabiatda keng tarkalgan bo'lib, barcha oziq-ovqat maxsulotlarida uchraydi, ayniqsa o'simlik moylarida, donli maxsulotlarda va o'simliklarning yashil kismlarida. Xayvon maxsulotlarida tokoferol kam. Tokoferol tirik tuqimalarda biologik antioksidant rolini bajaradi, erkin radikallarni birlashtiradi va shu bilan birga tuyinmagan oksillarda perekis okislanish rivojlanishiga tuskinklik qiladi.

Vitamin E yetishmovchiligining klinik simptomlari kam. Tokoferol yetishmovchiligi surilish buzilganda, steatoreyalarda, yugon ichak qismlarining rezeksiyasida, ratsionda uzok vaqt davomida o'simlik maxsulotlari va yog' yetishmovchiligidagi ximik ishlab chiqarish ta'sirlarida yuzaga kelishi mumkin. Chaqaloqlarda vitamin E yetishmovchiligi uchrashi mumkin, chunki Tokoferol platsentadan yomon o'tadi. Vitamin E yetishmovchiligi sababli gemolitik anemiya, retinopatiya, ko'rish buzilishi yuzaga kelishi mumkin. Chaqaloqlarda kutilmagan o'lim xolatlari xam uchraydi. Taxmin qilinishicha embrionda bronxopulmonar displaziyalarning sababi vitamin E yetishmovchiligidir. Gipovitaminozni davolashda bir kunda 5-10 mg, chala tugilganlarga 25-50 mg dan vitamin E beriladi.

## **Vitamin B yetishmovchiligi**

Vitamin B(tiamin) ko'p mikdorda achitkilarda, nuxat, yong'oq, go'sht, tuxum sarig'i, jigar va non maxsulotlarda uchraydi. B gipovitaminozining sabablariga maxsulotlarning antitiamin xususiyatlari kiradi: karp oilasi baliqlari, atlantik seld, choy, kofe, bryusell kapustasi tarkibida Vitamin B kop Vitamin B.

## **Nikotin kislota yetishmovchiligi**

Nikotin kislota jigar, go'sht, donlilar, yashil nuxat, achitkilar tarkibida bo'ladi. Bundan tashqari vitamin PP odam ichagidagi mikrofloradan sintez bo'lishi mumkin. Vitamin PP uglevod, oqsil, lipid va pigment almashinuvlarining aktivatori bo'lib ta'sir qiladi. Vitamin PP MITga katta ta'sir o'tkazadi: motor va evakuatsiya funksiyasini boshqaradi, oshqozon suyukligining kislotaligini oshiradi, jigarning antitoksik xususiyatini oshiradi. Nikotin kislotasi yetishmovchiligi pellagraning klinik belgilarini yuzaga chiqaradi. Kasallikga xos xususiyatlar- dermatit va demensiyanı o'z ichiga oladi. Nikotin kislota yetishmovchiligining bolalardagi doimiy simptomlariga diareya kiradi. Oshkozon ichaklarning fermentlari kamayishi kuzatiladi. Pellagrozda uchraydigan nerv sistemasi funksiyasining buzilishi xilma-xil. Yosh bolalarda depressiya, katatoniya, amimiya kuzatiladi. Maktab yoshidagi bolalarda asteniya, xarakatning susayishi, taktil va ogrik sezuvchanligining buzilishi, bugim va teri funksiyalarining

pasayishi xamda depressiv, dement-galyusinator yoki ensefalit sindromi, xotira va ko'rish pasayishi kuzatiladi.

Vitamin PP diagnostikasi kasallikning klinik belgilari xamda siyidkagi konsentrasiyasini aniqlashdan iborat. PP gipovitaminozini davolashda nikotin kislotasi 0.005-0.03 g bir kunda 2-3 maxal, 15-20 kun davomida beriladi.

### **Vitamin C yetishmovchiligi**

Askorbin kislotasi ko'p miqdorda o'simlik maxsulotlari tarkibiga kiradi: na'matak urug'i, karam, limon, apelsin, ko'k piyozi, olmalarning shimoliy navlari. Oz miqdorda vitamin C miya, mushak va jigarda bor. Vitamin C juda kuchli tiklantirish xususiyatiga ega va okislanish-tiklanish jarayonini boshqarishda ishtirok etadi. Bundan tashkari askorbin kislotasi uglevod almashinvi, qon ivishida, to'kimalar regeneratsiyasi va steroidli garmonlar xosil bo'l shida ishtirok etadi. Askorbin kislotasining asosiy xususiyatlaridan birl-kollagen va prokollagen sintezida ishtirok etadi, kapillyar o'tkazuvchanligini normallashtiradi. Kasallikning klinikasida yashirin va yaqqol davrlari bor. C gipovitaminozning latent formasi yosh bolalarda ko'pincha astenik sindromga o'xshab kechadi. Adinamiya, xolsizlik, jismoniy va aqliy tez charchash bosh aylanishidek kam ma'lumotli shikoyatlar kuyzatiladi. Yoshi kichik bolalarda gipovitaminozning erta belgilariga vazn oshishini orqada qolishi va immunitet pasayishi bilan kechadigan anoreksiyanı kiritса bo'ladi. Kasallarda angiodistrofik simptomlar kuzatiladi:

kapillyarlarni mo'rtligi, engil shikastlarda xam ekximozlarni xosil bo'lishi, musbat Rumpel—Leede simptomi. Maktab yoshidagi bolalarda ko'pincha milklarning engil infiltratsiyalangani va ularni ko'kimir rangi, tish tozalaganda esa milklar qonashi kuzatiladi. Yurak —qon tomir sistemasi tomonidan shikastlanishlar: yurakda noaniq og'riqlar, taxikardiya, puls labilligi kuzatiladi. Gipoxrom kamqonlik boshlanishi, trombotsitopeniya rivojlanishi mumkin. Avitaminoz C (singa)birinchi o'rinda milklar o'zgarishi bilan kechadi; qator xolatlarda bu patologiyani yagona belgisi bo'ladi. Birinchi o'zgarishlar ko'pincha kariesli tishlarning bo'inchasida to'q qizil chegara xosil bo'lishidan boshlanadi. So'ng granulyasiyalar o'sib tish qismini qoplaydi. Granulyasiyalar tez infeksiyalanadi va nekrozlanib yarali stomatit xosil bo'ladi; so'lak oqish, og'riq, og'izdan badbo'y xid va keyinchalik tishlar tushishi bilan kechadi. Kasallik uchun teri qavatida ko'pincha soch follikuli atrofida petexial toshmali gemorragik sindrom xos. Keyinchalik yirikroq ekximozlar boldir, son va qorin soxasida xosil bo'ladi.

Og'ir xolatlarda mushaklar, suyak parda, naysimon suyaklarning epifizi va diafizi birikkan soxalariga va ko'zning oq pardasiga qon quyilishi mumkin. Ko'pincha milklarning qonashi va burundan qon kelishi uchraydi.

Yoshi kichik bolalarda singa belgilari o'ziga xos shakilda kechadi, bu Meller— Barlov kasalligi deb ataladi. Kasallikni klinik simptomlariga xarakatda qo'l oyoqlarni og'rishi, bolaning

**Bo'lgan bolalar shikastlanishi**

bezovtaligi va subfebril isitma fonida diafizlarni bo'rtishi kiradi. Rentgenologik Meller-Barlov kasalligiga xos: rentgenogrammada shikastlangan soxa atrofida muftalar ko'rinadi, suyak pardani va suyak parda osti siniqlari ko'chganligi tufayli noaniq chegaralar xosil bo'ladi. Umumiy osteoporoz tufayli qobig' moddasi yupqalashib g'oyat mo'rtlashadi. Natijada g'ovaksimon metafizar suyak muddasi va unga yaqin xujayraning qobig' qavatlarida ko'p miqdorda mikroskopik jarroxatlar xosil bo'ladi.

Diagnostika anamnez, klinik belgilar va askorbin kislotasini kunlik(10mg dan kam)yoki soatlik(0,003 g/l dan kam) peshobdagidagi miqdorida asoslangan.

Gipovitaminoz C ni davolash oziqlantirishni normallashuvi, ratsionga askorbin kislotaga boy maxsulotlarni kiritish va C dori darmonini kunga 2-3 maxal 0,05 -0,1 g dan tayinlashdan iborat.

#### **Bolalarda markaziy nerv sistemasining perinatal shikastlanishi**

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar orasida nevrologik perinatal patologiyasi turli xil manbalarga qaraganda 15 dan 60% gacha uchraydi. Shulardan psixonevrotik nogironlik kelib chiqish sababi MNS ning perinatal shikastlanishidir.

Kasallikning o'tkir davri vaqt soatida tug'ilgan bolalarda tug'ilganidan 7 kungacha, vaqtidan oldin tug'ilganlarda esa— 28 kungacha davom etadi. Asosiy etiologiya—bosh miya

ishemiyasiga olib keluvchi gipoksiyadir, boshqa xolatlarda esa —qon quyilishi. O‘z vaqtidan oldin tug‘ilgan bolalar MNSning perinatal shikastlariga periventrikulyar qon quyilishlari, metabolik buzilishlar, jaroxat va infeksiya sabab bo‘lishi mumkin. MNSni gipoksik-ishemik shikastini I, II va III og‘irlilik darajalari bo‘ladi. MNS gipoksik-gemorragik shikastiga qorinchalar ichiga qon quyilishlar, parenximatoz qon quyilishlar, subaraxnoidal qon quyilishlar, orqa miyaning epidural gematomalari va miyani birlashgan ishemik-gemorragik shikastlari kiradi. Nerv sistemasining jaroxatlariga tug‘ruqdagi bosh miya jarroxati, orqa miyani tug‘ruqdagi jarroxati va periferik nerv sistemasining jaroxatlari kiradi.

MNS faoliyatini metabolik va toksik buzilishlariga onaning xomiladorlik davridagi bilirubin ensefalopatiyasi, metabolik va toksik buzilishlar, gipoglikemiya, gipomagniemiya, gipokalsiemiya, gipo- va gipernatriemiya, gipo- va giperkaliemiya, atsidoz, alkogol, narkotik moddalar, dorilar qabuli, chekish bilan bog‘liq xolatlar olib keladi. MNSni infekzion buzilishlariga meningoensefalitlar, intranatal infeksiyalanish (TORCH- infeksiyalar) kiradi.

Bosh miya qobig‘i, qobiq osti strukturalari, miya va miyacha shikastlanishini ensefalopatiya deyiladi. Orqa miya shikastlanishi — mielopatiya, periferik nervlari shikasti esa — neyropatiyadir.

Ensefalopatiyaning o‘tkir davri asosiy klinik sindromlari: tez qo‘zg‘aluvchanlik sindromi, MNSni o‘rta susayish sindromi,

talvasa sindromi, gipertenzion-gidrotsefal sindrom, vegetativ-visseral buzilishlar va nerv sistemasinngi umumiy sustlashuvi(sopor yoki koma)kiradi.

Tiklanish davri o‘z vaqtida tug‘ilganlarda I oydan 12 oygacha davom etadi, o‘z vaqtidan oldin tug‘ilganlarda esa 2 yoshgacha davom etadi. Bu davrda tez qo‘zg‘aluvchanlik sindromi, talvasa sindromi, xarakat buzilishlari sindromi (markaziy yoki periferik parezlar, ekstrapiramidal sistemaning yoki miyachanining faoliyati buzilishlari), gidrotsefaliya sindromi, psixomotor va nutq rivojlanishini orqada qolishi, qobiq qavatining shakillanishini buzilishi kuzatiladi.

MNS perinatal shikastlanishini natijasida sog‘yaish, manaviy xamda jismoniy rivojlanishdan orqada qolish kuzatiladi. Qobiq qavati funksiyalari shakllanishini buzilishiga o‘chog‘li ensefalopatiyaning mikrosimptomlari qo‘shilishi mumkin. Rivojlanishning patologik varianti— markaziy yoki periferik parezlardek xarakat defektlari shakillanishi, ekstrapiramidal sistema va miyacha faoliyatining buzilishi, qobiq qavatining qo‘pol buzilishlari, simptomatik epilepsiya, gidrotsefaliya, yoki bolaning sotsial muxitga moslasha olmasligiga olib keluvchi o‘zgarishlar kiradi.

Diagnostika uchun qon va peshobning klinik taxlili, qonda qand miqdorini aniqlash, proteinogramma, bilirubin xajmini aniqlash, kislota ishqor xolati va qonni gaz tarkibini aniqlash, likvor taxlili, neyrosonografiya, bosh miya UTTsi, MRT,

kompyuter tomografiyasi, doppler ensefalografiyasi va oftalmoskopiya o'tkaziladi. Ko'rsatmalarga qarab kraniografiya, spondilografiya, intranatal infeksiyalanishni tekshirish mumkin.

Bolalarda MNSni perinatal shikastlanishini UASH xamda nevropatolog birgalikda o'tkazishi lozim. O'tkir davrda bolani parvarishlash uchun mos muxitni tayinlash lozim. Davolash qonda qand miqdorini aniqlash, elektrolitlar va boshqa ko'rsatkichlar tekshiruvi ostida o'tkazish lozim. Sust miya qon aylanishini tiklashga yunaltirilgan davo kompleksi o'ziga kislota ishqor xolatni, gipovolemiyani, gipoglikemiya, arterial gipotenziyani, yurakdan qon otilib chiqishini normallashtiruvini kiritadi. Antioksidantlar (fosfolipidlar, GOMK), nootroplar (piratsetam) beriladi. Miyani gipoksichesik –ishemik shishlarini davolash uchunmannitol va furosemid beriladi.

Gipovolemik xolatda gidroksietilkaxmalning 6% eritmasi 10—15 ml/kg dan foyda beradi va musbat neyrometabolik faoliyatga ega birlashgan— instenon preparati 0,2 ml/kg vaznga kunga 1 marotaba (xayotining 4chi kunidan) 7-30 kun davomida beriladi.

Kuchli qon ketishi profilaktikasi uchun vikasol 0,1 ml/kg bir marotaba, etamzilat kuniga 125mg/kg 2 marotaba, fosfolipidlar 2 ml/kg kuniga 1marotaba beriladi. UTT o'tkazilishidan oldin heparin natriy, aminofillin, giperosmolyar eritmalar berish tavsiya qilinmaydi. Bosh miya va yurak gemodinamikasining buzulishi, gemodinamik axamiyatga ega bo'lgan arterial

yulakning ochiqligida dopamin berish tavsiya qilinmaydi. Degidratatsiyani glitserolni enteral berish bilan o'tkazsa bo'ladi, xar 6 soatda 1 g/kgdan 7 kun davomida, keyin atsetazolamid bilan kunga 20—50—80 mg/kg dan kaliy preparatlari bilan birgalikda beriladi.

Talvasalar bo'lsa fenobarbital qondirish dozasida 20mg/kg (ushlab turuvchi doza 5mg/kg)beriladi. Talvasalar to'xtamagan xolda bolaga lorazepam 0,05—0,1 mg/kg dozada beriladi. Qon aylanishi etishmovchilida 0,03 mg/kg digoksin 2-3 kunda 6 ga bo'lib beriladi. Keyin ushlab turuvchi dozaga o'tiladi, u qondirish dozasining 1/5 ga teng.

Tiklanish davrida davolash asosiy sindromga bog'liq. Tez qo'zg'aluvchanlik sindromida aminofenilyog'li kislota (fenibut) kuniga 100mg gacha 1-3oy davomida beriladi; glitsin kuniga 100mg dan, persen 1/2dan kuniga 3 marotaba, fenobarbital kuniga 5 mg/kg dan, kalsinova kuniga 200 mg gacha, magne B<sub>6</sub> kuniga 1 ml/kg dan, kalsiy glitserofosfat kuniga 250 mg dan 30-40kun davomida; sitral miksturasi beriladi.

Vegetativ –viseral buzilishlar xolatida kavinton 1 mg/kg, magne B<sub>6</sub> 1mg/kg, glitsin 10 mg/kg sutkada, riabal beriladi. Astenik sindromida yantar kislotasi, vitaminlar va semaks beriladi.

Xarakat tizimida buzilishlar xolatida aktovegin 80 mg bir sut., piratsetam 1 gr sut., vitaminlar- elevit 1 kapsuladan bir maxaldan 30-40 kun; fizioterapiya (bir yilda 3 marta) qilinadi;

Talvasa sindromini terapiyasida fenobarbital 10 mg/kg; valproeva kislotasi- 15-10 mg/kg sutkada bir marta, karbamazepin 10-15 mg/kg sut.bir marta beriladi.

Gidrotsefal sindromini terapiyasi- diakarb 20 mg/kg sut.bir marta; gidrotserol 1 % 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta, magne V6, aktovegin sut. 80 mg. bir sut.

Periferik parezlar xolatida ksantinola nikotinat yoki nikotin kislotasi xayetning ikkinchi xaftasidan 75-100 mg 10-12 kun ichida, neostigmin metilsulfat beriladi (prozerin ) 0,05 % 0,1 ml/kg sut. bir maxal; serebrolizin 0,5-1 ml m/i yoki v/i; dibazol 1-5 mg kuniga 2 marta beriladi, fizioterapiya, kinezoterapiya, jismoniy davolash, 30-40 kun ichida yiliga 3 marta otkaziladi.

Psixomator rivojlanish to'xtashi fonida gopangen kislotasini (pantogam) 100 mg sut. bir marta 2 maxal, piritinol (ensefabol) 10-20 tomchidan kg vazniga, vinpotsetin (kavinton) 1 mg/kg sut.bir maxal , serebrolizin 0,1 ml/kg m/i, piratsetam 5 yoshgacha 0,2 gr 3 mahal 2 oydan 6 oygacha individual beriladi, atsetilaminoyantar kislotasi (kogitum) 1 ml/kg 2 marta;aminofenilmoyli kislotqa (fenibut) 100 mg sut bir marta,memoplant (tanakan,bilobil) 10-20 mg bir sut 2 maxal; semaks burin ichiga 2 tomchidan kuniga,5-10 kun ichida;korteksin 0,5-1 ml m/i 10 kun ichida;polivitaminlar 1-2 kaps. bir sut; Fiziotapevtik usillar:elektroforez- papaverin, eufillin, nikotin kislotasi bilan boyinga,umurtqaga xayotning birinchi kunlaridan

boshlab, elektrostimulyasiya, parafinli aplikatsiyalar, massaj, jismoniy davolash, kinezoterapiya, aromaterapiya tavsiya etiladi.

Gospitalizatsiyaga ko'rsatma: kasallikning ogir va o'rta ogir kechishi, ambulator davolashning effektsizligi.

Nevropatolog ko'rigidan bolalar 6 oydan 2 yoshgachan -3 oyda bir marotaba, 2 yoshdan 3 yoshgacha- 4 oyda 1 marotaba o'tadilar. Oftalmolog ko'rigidan bola birinchi oyda, 3 va 12 oylarda, keyin esa bir yilda 2 marotaba o'tadilar. Neyroortoped konsultatsiyasi bolaning bir oyligida, 3 va 12 oyligida, keyin esa xar yili bir marotaba o'tkaziladi. Endokrinolog ko'rigi birinchi oyda, 6-12 oylarda, 3 yoshida o'tkaziladi. UASH va nevropatolog ko'rigi bolaning 4 yoshidan 7 yoshigacha 6 oyda bir marotaba o'tkaziladi. Oftalmolog va endokrinolog ko'rigi xar yili o'tkaziladi. Reja boyicha ko'riklar neyroortoped, bolalar psixonevrologi va logoped (ko'rsatma bo'yicha) qatnashuvida otkaziladi.

Dispanserizatsiya miyaning -UTT, EXO-ensefalografiyani, EKG, elektroensefalografiyani, elektromiografiyani, kalla suyak rentgenografiyasini va xomiladorlik davri infeksiyasiga tekshiruvni o'z ichiga oladi. Tekshiruv xarakteri MNS perinatal shikastlanishi darajasiga bog'liq (aynan klinik xolatining xususiyatlaridan). Reabilitatsiya moddalar almashuvining normallashuvi, mushak tonusining defekti, reflekslarning defekti, tayanch-xarakat sistemasi shikastlanishining xamda korreksiyasining oldini olishga, psixo-emotsional ozgaruviga yonalgan. Reabilitatsiya oz ichiga vitaminoterapiya, jismoniy tarbiya yordamida turli yoshga mansub

xarakat, nutq xamda ruxiy konikmalarni, massajni, fizioterapeutik muolajalarni kiritadi. Medikamentoz davolashning yonalishli statsionarda otkazish maqsadga muofiq, bolani reja boyicha chaqaloqlik davrida, keyin yiliga 2 marotaba gospitalizatsiya qilish kerak.

#### **Nafas olish a'zolari kasallangan bolalarni davolash**

O'RK bilan infekzionistlar, otoloringologlar, pulmonologlar, allergologlar, maxalliy shifokorlar shugullanadi. O'rtacha yillik bolalar kasallanishi, aynan bolalar kollektivlarda kattalar kasallanishidan 4-5 marotaba kuprok.

O'RK simptomlarining analizi rivojlanish ketma-ketligi, kechish darjasasi, kuprok joylashishi va boshqa a'zo va sistemalarning patologiyasini uz ichiga oladi. O'RKlar diagnozi klinik va epidemiologik ma'lumotlar asosida qo'yiladi.

#### **O'RKning diagnostik me'zonlari.**

-mulqotda bo'lganlik to'g'risida ma'lumotlar;

-shamollash xamda sovuqda qolib ketishning bogliqlik sabablari;

-burun xalqumda o'tkir ogriq sindromi;

U'tkir otitning diagnostik me'zonlari.

Qulokdagi o'tkir og'riq (yo'talganda, aksirganda, burun qoqqanda kuchayadigan); tana xaroratining ko'tarilishi, intosikatsiya, qulordan ajralmalar.

Angina yoki o'tkir tonsillitning diagnostik me'zonlari:  
tomoqdagagi og'riq, intoksikatsiya, tana xaroratining ko'tarilishi,

bodomsimon bez usti follikullarining yiringlashi (follikulyar angina) yoki lakuna ogzidagi yiring (lakunar shaklida).

Kataral shikastlanish nafas yo'llarining pastki qismiga xam etib borishi mumkin.

Bronxit diagnostik me'zonlari: yotal, quruq va turli kalibrdagi nam xirillashlar, o'pka rentgenogrammasida infiltrativ va o'chog'li soyalashning yo'qligi.

Pnevmonianing diagnostik me'zonlari: umumiy axvolning buzilishi, tana xarorati ko'tarilishi, yo'tal, nafas qisishi, fizikal o'zgarishlar (perkutor tovushning kaltalanishi, nafas susayishi, bronxial nafas ,fizikal ozgarishlarning bir taraflama yoki lokal bo'lishi, shuningdak xirillashlar xam).

Xozirgi paytda bolalarda kasalxona ichi pnevmoniyalari katta qiziqish uyg'otadi, cassallik tug'diruvchining mikrobiologik spektri xamda odamning virus-bakterial assotsiatsiyasiga turli xil reaksiyasi etiborga olinadi. Birinchi o'rinda, bunday pnevmoniyalar odatda O'RKnинг asoratlari bo'lib, ko'proq uning simptomlari bilan o'tadi.

Boshlang'ich davrida pnevmonianing klinik belgilarining yo'qligi xarakterga ega. Asosan O'RK alomatlari kuzatiladi, ammo etakchi alomati-bu quruq, qat'iy, qiy Naydigan yo'taldir. Faqat 5-7 kunlarda klinik pnevmoniya diagnozi shubxasiz aniqlanadi: nafas qisishi, sianoz, perkutor tovushning joylarda qisqarishi, auskultativ xirillashlar( bronxopnevmoniyada). Ammo rentgenologik perebronxial, perevaskulyar infiltratsiyasini, kamroq hollarda diffuz

vitacintoterapiya. Isomniy karbiya yordamida turli yosibga mansub

infiltratsiya, o'pka shish alomatlari, atelektaz; plevra intaktni ko'ramiz.

Bolalarda pnevmoniyaning erta diagnostikasi qiyinchilik tug'diradi. 5-7 kunlarga kasallikning avj olishi, baland va davomiy isitma chiqishi (5 kundan ortiq), quruq qat'iy yotal, nafas etishmovchiligi alomatlari, intoksikatsiyaning oshib borishi rentgenologik tekshiruvga ko'rsatma bo'ladi.

#### O'RKnинг параклиник диагностикаси:

Umumiy qon va siydk tashlili (isitma chiqishi 5 kundan ko'p bolsa); immunoflyuoressensiya usuli yordamida burun va og'iz xalqum boshlig'ining silindrik epiteliyida bakterial antigenlarni topish;

ko'rsatma bo'yicha -ko'krak qafasi azolarining rentgenologik tekshiruvi;

qonning kimyoviy tashxisi (yallig'lanish jarayoni), koagulogramma;

og'iz-xalkum shillig'ining bakteriologik tekshiruvi (mikrob spektri) xamda antibakterial preparatlarga sezuvchanligini aniqlash;

Aloxida o'rinni anginalarning differensial diagnostikasi egallaydi. Shu maqsadda birlamchi tashxisni aniqlash uchun anginalarning barcha turlarida (kataral turidan tashqari) Leffler tayoqchalariga surtma olinadi. Bunday tekshiruv uchun boshqa ko'rsatmalar xam bor: surunkali tonsillitning yiringli alomatlari bilan avjiga olishi; stenozlanuvchi laringitlar.

Diagnostikasiga qo'shilg'anlar: Sh. M. Xudobernov sh.

Xozirgi paytda ambulator sharoyitda O'RKni davolash ko'rsatmalarini nixoyatda ko'p. Uyda bolalarni faqatgina O'RKning yengil xamda asoratsiz turlari, laringit va laringotraxeitning stenozsiz darajasi, bronxit, pnevmoniya (qollangan terapiya 2-3 kun ichida ta'sirini ko'rsatsagina) davolanadi.

Gospitalizatsiya uchun ko'rsatmalar: yangi tug'ilgan chaqaloqlar, bir yoshlik bolalar, og'irlashgan premorbid fon bilan. Og'ir o'tkir O'RK bilan kasallangan bolalar (neyrotoksikoz, gemorragik, kardial, abdominal va boshqa sindromlar), 5 kundan ortiq isitma chiqishi va qollangan terapiyani foydasizligi, hiqildoq 2 daraja stenozi va undan og'ir darajalari, bronxitlar va bronxiolitlar, nafas yetishmovchiligi bilan kechadigan obstruktiv sindromli bolalar gospitalizatsiyaga muhtojdirlar. Uyda davolashga va kuzatuvga sharoyiti yo'q bolalar xam gospitalizatsiya qilinishi lozim(5 tavakkallik guruxi). Pnevmoniya xolatida og'ir asoratlar bilan (2 darajali va undan og'irroq nafas etishmovchiligi), toksik, toksikoseptik turlari, o'pka(destruksiya, plevrit,t.b) va opkadan tashqari(yiringli otit, meningit, pielonefrit va t.b.) asoratlar alomatlari bilan gospitalizatsiya qilinadi. Angina xolatida og'ir forma va asoratlar bilan bo'lgan bolalar ham gospitalizatsiya qilinadilar(paratonzillyar shish).

Xozirgi paytda ambulator sharoyitda O'RKni davolash ko'rsatmalarini kengaygan. Davolash effekti 2-3 kunda kuzatiladigan kasalliklar: engil va asoratlanmagan O'RK shakllari, laringit, stenozsiz laringotraxeitlar, bronxitlar, pnevmoniylar uy sharoitida davolanadi.

Gospitalizatsiyaga ko'rsatmalar: yangi tugilgan chaqaloqlar, bir yoshgacha bo'lgan ogirlashgan premorbid fonli bolalar. Bundan tashqari O'RK og'ir shakllari (neyrotoksikoz, gemorragik, kardial, abdominal va boshqa sindromlar), bezgakda 5 kundan ortiq davo effekti bo'limganda, 2 darajali xikildoq stenozi va og'ir darajali bronxit, bronxiolit va obstruktiv sindrom NE bilan gospitalizatsiyaga ko'rsatma bo'ladi. Bolalarni uy sharoitida davo va parvarishlashning iloji bo'limganda gospitalizatsiya qilinadi (5 xavf guruxi). Bolalarda pnevmoniyanı ogir asoratlarida (NE 2 darjası va undan og'irroq xollarda), toksik, toksikoseptik shakllari, o'pkadagi asoratlar (destruksiya, plevrit va boshqalar), va upkadan tashqari asoratlar (yiringli otit, meningit, pielonefrit va boshqalar) simptomlari bo'lganda gospitalizatsiya qilinadi. Otida meningeal simptomlar bilan, bosh aylanishi, yuz nervi parezi, mastoidit bilan bolalar gospitalizatsiya qilinadilar. Bolalarda angina og'ir darajalarida va asoratlar (paratonzillyar abscess va boshqalar) rivojlanganda gospitalizatsiya qilish zarur. O'RK bilan kasallangan ko'krak yoshidagi bolalarni ambulator sharoitda maxalla shifokori xar kuni ko'rikdan o'tkazadi. Erta yoshdagi bolalarni birinchi 2-3 kunda (tana xarorati tushguncha) maxala UASHi xar kuni ko'rikdan o'tkazadi. Katta yoshdagi bolalarning xarorati oshganda shifokor 3 kunda bir ko'rikdan o'tkazadi.

O'tkir otida bolani ambulator olib borishga otolaringolog jalb etiladi. Sogaygandan keyin eshitish funksiyasini tekshirish uchun otolaringolog yoki surdolog ko'rige shart.

1. O'sha qoidalarga qo'shilish  
2. O'sha qoidalarga qo'shilish  
3. O'sha qoidalarga qo'shilish  
4. O'sha qoidalarga qo'shilish  
5. O'sha qoidalarga qo'shilish

Ambulator sharoitda anginani davolashda bolani birinchi 3 kunda xar kuni ko'rik o'tkaziladi, keyinchalik 3 kunda bir tana xarorati meyorlashguncha, 8-10 kunida qon va siydiq, EKG tekshiruvlari o'tkaziladi. Sogaygandan sung kayta UASH ko'rigi 7-10 kunda o'tkaziladi.

Katta yoshdagi bolalarni O'RK o'rta ogir va engil shakllarini uy sharoitida davolanadi.

Uy sharoitida davolanishning afzalliklari: - reinfeksiya yuqligi, - individual parvarish. Bronxit va pnevmoniyanı ambulator sharoitda davolashda maxalla UASHi bemorni xar kuni to umumiy axvoli yaxshilanguncha ko'rikdan o'tkazadi, keyinchalik xar 3 kunda 1 maxal klinik sogayguncha, tana xarorati normallashgandan keyin qabulga chaqiradi. Pnevmoniya bilan ogrigan bolani bo'lim boshligi ko'rikdan o'tkazishi zarur. Tashxis qo'yishda qon tekshiruvi va ko'krak qafasi organlarining rentgenografiyasi zarur. Klinik sogaygandan keyin nazorat sifatida gematologik va rentgenologik ko'rsatkichlarni tekshiruvi olib boriladi. Pnevmoniyani asoratlanganmagan shaklida rentgen kuzatuv zarur emas, agar tula klinik davoga erishilgan bulsa. Plevrit kechishini nazorat qilishda UZI tekshiruvi o'tkaziladi. O'tkir pnevmoniya barcha shakllarida sogayish kriteriyalari bo'lib klinik, laborator va rentgenologik malumotlar normallashuvi xisoblanadi.

Erta yoshdagи bolalarda yaxshi sifatlι premorbid fon, epidemiya davrida to'lik sogaygunicha faqat uy sharoitida davolanadi, poliklinikaga bolalar chaqirilmaydi.

Davolash-ximoya tartibi: bemor bolani izolyasiyasida bolalar va kattalarni muloqotini cheklash; sanitar-gigienik tartibni saqlash (namlab tozalash kuniga 2-3 marta; 6-8 marta xonani shamollatish; xona xaroratini 20-22 darajada ushlab turishi va uyquga ketishda 2-3 daraja kamaytirish); gigienik parvarish (tez-tez kiyim almashtirish; burun ro'molchasini almashtirish; teri va shilliq qavatlarni parvarishi); psixo-emotsional va psixik zuriqishni oshishini yo'qotuvchi sharoit yaratish.

Yotoq tartib butun xarorat oshgan davriga belgilanadi, keyinchalik – uy tartibi 7 kungacha. Toza xavoda sayr 7chi kundan keyin, quruq, shamolsiz xarorati 10 darajadan past b'ilmaganda, davomligi 20-30 daqiqadan boshlanadi.

O'RKda suyuqlikka talab 1,5 baravar oshadi.

Viruslarga qarshi dori vositalari ta'sir mexanizmi bo'yicha bir nechta guruxlarga bo'linadi. Birinchi gurux – virusni xujayraga kirishishiga to'sqinlik qiluvchi vositalar (remantadin, amantadin, arbidol, ribavirin, sikloferon). Remantadinni toksikligi sababli bolalarda qullanishi chegaralangan, 7 yoshdan katta bolalarda qo'llaniladi, ayrim vaziyatlarda – 3 yoshdan. Gerpetik infeksiyada atsiklovir (zoviraks) effektivdir.

Ikkinchi gurux – nuklein kislotalar biosintezini buzuvchi vositalar (ribo- va dezoksiribonukleazalar), adenovirus va gerpetik infeksiyada ko'proq effekt ko'rsatuvchi gurux.

Uchinchi gurux – interferon va uning stimulyatorlari, interferonogenlar. Alfa interferon, leykotsitar odam interferoni,

lokferon O'RK davolash va profilaktikasida qo'llaniladi; Ushbu gurux vositalarini ishlatishda yosh chegaralari inobatga olinmaydi, lekin davolash maqsadida kasallikning birinchi 3 kunida qo'llaniladi. Undan tashqari, NPVSlar bilan qo'llash interferon biologik aktivligini tushiradi. Endogen interferon stimulyatorlariga sikloferon, tiloran (amiksin), ribonukleat natriya (ridostin), megosin, poludan kiradi. Ushbu vositalarni bolalarda qullanishi chegaralangan: sikloferon 4 yoshdan yuqori, tiloran (amiksin) esa 7 yoshdan yuqori bolalarda qo'llaniladi. Interferonogen, lekin qisqa vaktli vositalarga araliya, limonnik, eleuterokokk, jenshen, zamanixa kiradi.

To'rtinchi gurux – spetsifik immunoglobulinlar. Grippga qarshi odam immunoglobulinini O'RK ogir va toksik shakllarida terapiya maqsadida qo'llaydilar. Bu guruxga zardob uchun preparatlar kiradi: grippol – polioksidony, interferon stimulyatori sifatida + tirik kuchsizlantirilgan virus serotiplari, mushak orasiga yuboriladi; influyuvak – gemaglyutininlar + neyromidaza, 6 yoshdan yuqori bolalarga mushak orasiga yuboriladi; tirik quruq allantois grippozi zardob – 3 yoshdan intranasal ishlatiladi. Qarshi ko'rsatmalari ko'p, mushak orasiga yuboriladigon zardoblarga qaraganda effekti past.

O'RK etiotrop davosiga antibakterial vositalar xam kiradi, lekin antibiotiklarni O'RK bakterial asoratlari profilaktikasida qo'llanilishi samarasizligi isbotlangan.

Antibiotiklarni O'RKda qo'llanilishiga ko'rsatmalar: yiringli infeksiya simptomlari, virus va bakterial infeksiyasi differensial tashxisi qiyinchiligi (febril xarorat fonida intoksikatsiya, meningizm,

o'pka auskultativ ma'lumotlar assimetriyasi, yalliglanish gematologik aktivligi – leykotsitoz, SOE 20 mm/s.dan yuqori); premorbid fon uziga xosligi (gipotrofiya, timomegaliya, tug'ma yurak nuqsonlari bo'lishi, surunkali somatik kasalliklarning to'liksiz remissiya davrida); oxirgi oyda anamnez uziga xosligi (zardoblash, moslashishni buzilishi, 800-1000 km dan uzoqroqqa ko'chishda akklimatizatsiya davri)  $\beta$ -laktamlarga allergiya kuzatilgan xollarda makrolidlar tavsiya etiladi (eritromitsin, azitromitsin). Muolajaga rioya qilmaydigan bemorlarga antibiotiklar qo'llash mumkin (bitsillin-3). Shunga o'xshash xollarda, turli xil yoshda ko'proq kasallik kuzgatuvchi bakteriyalarni xisobga olib, 6 yoshdan katta bo'lgan bolalarda otit, sinusit, bronxit va pnevmoniya bo'lsa birinchi navbatda antibiotiklar tavsiya qilinadi. Atipik xolat kuzatilganida birlamchi makrolidlar tavsiya qilinadi. Preparatlarni suspenziya xolatida yuborish maqsadga muvofiq. Agar preparat ta'sir qilmasa 3 kundan keyin boshqa preparatga almashtiriladi. Anginani davolashda antibiotiklarni kamida 10 kun qo'llash lozim. Qolgan xolatlarda antibiotiklarni normal tana xarorati bo'lguncha qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Antigistamin preparatlari noxush allergik fonda qo'llaniladi, yaqqol shishli va ekssudatli sindromlarda o'rta va yuqori nafas yo'llari shilliq qavatini quritish vositasи sifatida tavsiya etiladi.

Antimikotik preparatlar uzok davom etgan antibiotik dorilar bilan davolanganda qo'llaniladi. Bu borada amfoteritsin preparatini tanlov preparati deb xisoblash mumkin.

### **Patogenetik davolash.**

Isitma tushiruvchi vositalar

O'tkir respirator kasalliklar paytida isitma ko'tarilishi tabii ximoya reaksiyasi xisoblanadi, bunda interferonni endoge sintezini oshiradi. Shuning uchun, agar bemor isitmani ko'tar olsa,  $38,5^{\circ}\text{C}$  gacha tana xarorati ko'tarilganida tushirish tavsiy etilmaydi. Biroq, ayrim xollarda ogir asoratlarga olib kelish mumkin bo'lganligi sababli, isitma xavfli bo'lishi mumkiri. Antipiretik moddalarni bir martalik, qayta va sistemali ishlatishtaniq ko'rsatmalari bor- shu jumladan neyrotoksikoz, nafas vagon-tomir etishmasligining II- III darajasi, tanadan suv ketish tutqanoq sindromi, meningizmnning klinik xolatlarida Anamnezdan va yondosh kasalliklardan kelib chiqib febr tutqanoq 3 oylik bolalar perinatal ensefalopatiyasi, raxi gipertrofiya, anemiyaning II va undan og'ir darajalari, tug'm nuqsonlar bunga misoldir. Isitmani tushiruvchi vositalarr buyurish, isitmani to'liq normallashuvini ifodalamaydi. B borada tana xarorati rejimiga qat'iy rioxat etish o'ta muhim. Isitma tushurishni fizik usullaridan foydalanish lozim.

Tibbiy vositalardan paracetamol va uning analoglarig (panadol), kombinatsiyali preparatlar (koldreks va boshqalabolar uchun xam chiqariladigan bo'lishi shart) ko'pro murojaat qilinadi. Atsetilsalitsil kislotasi (aspirin), natri metamizolni (analgin) gematologik asoratlarni keltirib chiqarish

mumkin bo'lganligi sababli ishlatilmaydi. Biroq ibuprofen (ibufen, nurofen)ni 3 oylikdan keyin qo'llash ruxsat etilgan.

Yo'talga qarshi vositalar. Bu vositalar 2 guruxga bo'linadi. Birinchi guruxga balg'am ajratuvchi va ko'chiruvchi vositalar, tabiiy o'simliklardan (gulxayri ildizi, qizilmiya, termopsis va boshqalar), xar 2 soatda qo'llaniluvchi; xo'l va balg'am ajralishi qiyin bo'lgan yo'talda buyuriladigan mukolitiklar (atsetilsistein, mukaltin, bromgeksin, pakseladin, geksamnevmin, pertussin) kiradi. Ikkinci guruxga yo'tal refleksini to'xtatuvchi, quruq yo'talda buyuriladigan markazga ta'sir etuvchi vositalar (kodelak, tusupreks)kiradi. Yoshga mansub chegirmalar bor. Bu vositalar faoliyatini antigistamin preparatlar kuchaytiradi (qurituvchi, atropinga xos xususiyatlari).

#### **Simptomatik davolash**

Notibbiy muolaja usullari jiddiy axamiyatga ega. Rinoreyanı davolashda qon tomirni toraytiruvchi burun tomizmaları buyuriladi, preparatni xar 3 kunda almashtirish maqsadga muvofiq (ksilometazolin — galazolin, nafazolin — sanorin, bor-adrenal tomizmalar). Burun ajralmalari quyuq bo'lgan xollarda burunni chayish tavsiya etiladi (nitrofuran — furatsillin, natriy bikarbonat eritmasi). Yiringli rinitda kumush proteinati (protargol) yoki kollargol afzalroqdir. Burun shilliq qavati quruq bo'lganda retinol eritmasi, kalendula mazi, vazelin surtiladi. Erta yoshli paytda yog'li tomizmalarni (bifonazol, pinosol) qo'llash tavsiya etilmaydi. Isituvchi va chalgituvchi amaliyotlar,

ingalyasiyalar, antiseptik vositalarni surtish keng qo'llaniladi.

Maxalliy davo: shilliq qavatni tuzli eritmalar, dengiz suviga

o'xshash vositalar bilan (akva maris, fiziomer), natriy xloridi

(salin); strepsils, bronxikum, ambazon (faringosept), doktor

MOM kabi bakteriatsid plastinkalar qullashni uz ichiga oladi.

Ogiz- xalqumni chayishda antiseptik eritmalar furatsillin,

gidroksi metil xinoksilindioksidi(dioksidin) kabi dori vositalari

qo'llaniladi. Maxalliy antibakterial davo preparatlariga

fuzafungin (bioparoks), fenspirid (erespal) va geksetidin

(geksoral) kiradi.

O'RKnii davolashda turli yo'naliishli xususiyatlarga ega

bo'lgan fito vositalarni ishlatish muxim o'r'in egallaydi. Masalan

kalendula, juka, qayin, andiz, ok qaldirmoq, mingyaprok,

marmarak, qirqbug'im yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega.

Piyez va sarimsok piyez virusga qarshi xususiyatga ega,

Antiseptiklar: zveroboy, zupturum, moychechak, chistotel, archa,

qarag'ay. Isitma tushiruvchi: qayin bargi, malina, butakuz,

buzina, sachratki, moychechak, oq qaldirmoq. Antiallergik:

moychechak, qizilmiya, binafsha, chereda. Spazmolitik:

bagulnik, valeriana, krasavka, yalpiz, chabrets, eleuterokokk.

Immunomodulyatorlar: shizandra, air, araliya, jenshen, zamanixa,

oltin ildiz, eleuterokokk. Vitaminlar kompleksi va

biostimulyatorlar: brusnika, maymunjon, itburun. Kupchilik

o'simliklar bir nechta davolovchi xususiyatlarga ega.

## **O'tkir respirator kasalliklarda kasalxonagacha bo'lgan shoshilinch yordam.**

Gipertermiya turidan kelib chiqqan xolda gipertermik sindrom davolanadi. «Qizil» gipertermiyada isitmani tushiruvchi vositalar va fizik usullar qo'llaniladi, «oqq» gipertermiyada spazmolitiklardan keyin isitmani tushiruvchi vositalar qo'llaniladi. Litik aralashmalarni (turli kombinatsiyadagi isitmani tushiruvchi dorilar, spazmolitiklar, sedativ va mikrotsirkulyasiyani yaxshilovchi vositalar) tomir va mushak ichiga ishlatish mumkin.

Tutqanoq sindromi (kupincha neyrotokskoz fonida, kasalxonagacha bo'lgan muolaja) tanlov preparati sifatida diazepam (seduksen) talabga muvofiq, albatta tana xaroratini normallashuvi bilan birga. Birlamchi doza 0,5% eritmani 0,5 mg/kg (0,1 ml/kg) mushak ichiga qo'llaniladi. Ta'sir qilmaganda 20% li  $\gamma$ -oksi yog' kislotasi eritmasini mushak ichiga yuborish mumkin, 100 mg/kg (yangi tug'ilgan chaqaloqlarda extiyot bulish kerak!). Ambulator davolashda tomir ichiga yuborish tavsiya etilmaydi: 25% li magniy sulfat eritmasi - gematoensefalik to'siqdan o'tib (ayniksa tutqanoqda), xayot uchun muxim markazlar ish faoliyatini susaytiradi.

O'RKni davolashda anamnezida febril tutqanoqlar kuzatilgan bolalar muxim yondashuvni talab etadi. Davolashning birinchi kunidanoq ularga (agar bola bungacha davolanib kelgan bulmasa) fenobarbital 2—3 mg/kg sutkasiga qon-tomiridan buyuriladi,

sutkalik dozasi 3 marta. Davomiyligi 3-4 xafadan kam bo'imasligi kerak. Bemor kasalligi aniqlangandan keyingi birinchi poliklinika ko'rígida nevropotolog konsultatsiyasiga muxtoj, keyingi davo jarayoni uning tavsiyasidan kelib chikadi,

Bo'g'ma sindromi, stenoz bilan: minimal simptomli stenoz xollarida simptomatik davolash qo'llaniladi (nafazolinni burunga tomizish, ishkoriy eritmani ichish, issik vanna va o'ranish). Stenoz shiddatli kuchayib borganda shoshilinch xolatda glyukokortikoid vositalarini yuborish, infuziyali davo va kislorod terapiyasi qo'llaniladi.

Bronxial obstruksiya sindromida birinchi navbatda salbutamol buyuriladi, undan keyin aminofillin. Birlamchi boshqa qisqa muddatli  $\beta$ -agonistlarni (fenoterol, salbutamol), antixolinergik preparatlarni (ipratropiy bromidi — atrovent), ingalyasion steroid vositalarni (beklometazon) qullash xam mumkin. Agar yaxshilanish kuzatilmasa kasalxonaga yotqizish zarur.

O'RKdan keyin klinik va biologik sog'ayish davri bir- biriga to'g'ri kelmagan bolalarda, turli xil ayovchi rejimlarni tashkillashtirish (maktab yoshidagi bolalarda) lozim. Davolanish rejimiga muxtoj O'RK bilan kasallangan bolalarni asosiy guruxlariga: O'RK ning o'rta va og'ir turi bilan, bir yilda 2-3 marotaba kasallangan va tez-tez kasal bo'lib turadigan bolalar kiradi.

## **Tez- tez kasal bo'lib turadigan bolalar profilaktikasi, ularni davolash va sog'lomlashdirish.**

Tez- tez va uzoq kasal bo'ladigan bolalarning muammosi UASHning eng muxum va echilmagan muammolaridan biridir. Qaytalanuvchi respirator kasalliklar tez- tez kasal bo'lib turadigan bolalar orasida 80—85%ni tashkil qiladi. Yoshi va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib, bolalar populyasiyasida tez- tez kasallanuvchi bolalar 15 dan 75% gacha, o'rtacha — 24-25%ni tashkil etadi.

Tez- tez kasallanib turuvchi bolalar guruxlariga organik buzilishdan mustasno, ammo ximoya sistemasida buzilishlar bo'lgan, tez-tez respirator infeksiyalar bilan kasallanuvchi bolalar kiradi. Bu borada qaytalanuvchi respirator kasalliklar nasliy, tug'ma yoki xayoti davomida orttirilgan patologiya simptomlari (mukoviscidoz) bo'lishi mumkin. Bu xolatda reabilitatsiyani kasal bolalar dispanserizatsiyasi prinsipi asosida ko'rish kerak bo'ladi.

Yil davomida o'tkir respirator kasalliklar bilan tez-tez kasallanadigan bolalarning mezonlari: 1 yoshgacha — 4, 3 yoshgacha — 6, 4- 5 yosh — 5, 5 yoshdan katta bolalar — 4 va undan ortiq. 3 yoshdan katta bolalarda ba'zan infektion indeks qo'llaniladi, u epizodik kasallanadigan bolalarda 0,2—0,3ga teng; tez-tez kasallanadigan bolalarda 1,1—3,5 teng. Bolalarda retsidiylanuvchi respirator kasalliklarning etiologik faktorlari orasida asosiy o'rinni

viruslar egallaydi(65-90%). Aralash bakterial-virusli infeksiyalar 25% ni tashkil etadi.

Klinik retsidiylanuvchi respirator kasalliklar rinitdan to bronxopnevmoniyagacha va sinusit simptomlari bilan kechishi mumkin. Tez-tez kasallanuvchi bolalar reabilitatsiyasi faqat tibbiyotni muommosi emas,balki ijtimoiy muommo xamdir. Tez-tez kasallanuvchi bolalarni kompleks reabilitatsiyasi sog‘lomlashtirishning barcha bosqichlarida(oila, tashkillashgan jamoa, poliklinika, reabilitatsion markaz yoki sanatoriy)kasalliklar haqida ogohlantirish va bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan profilaktik chora tadbirlarni o‘tkazish hamda mayjud bo‘lgan patologik o‘zgarishlarni korrektsiya qilish davo chora tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Effektiv reabilitatsiyaning asosiy sharti — maqsadga yo‘naltirilgan yil davomidagi sog‘lomlashtirishdir. Davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlarini yil davomida bolaning sog‘lomlik holatiga qarab o‘tkaziladi va bunda davolash tadbirlari kamida 3 oy davom etuvchi 2 ta kursni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, davolash rekonnalessensiya davrida, epidemiya oldi va epidemiya davrlarida intensivlashtiriladi. Tez-tez kasallanuvchi bolalar reabilitatsiyasining muhim sharti ularni poliklinika sharoitidagi dispanser nazoratidir. Bolalarni dispanser nazoratiga olishda o‘tgan yilgi kasallanishlar darajasiga qaraladi. Dispanser nazorati UASH tomonidan 1 yilda kamida 4 marotaba; otorinolaringolog va stomatolog nazorati kamida 2 marotaba; fizioterapevt tomonidan 2 marotaba; boshqa

mutahassislar (nevropatolog, davolovchi jismoniy tarbiya vrachi, allergolog, immunolog va boshqalar.) tomonidan ko'rsatmaga asosan o'tkaziladi. Laborator tekshiruvlardan: interkurrent kasalliklardan so'ng UQA va USA 1 yilda 2 marta; immunogramma nazoratga olinganda va ko'rsatmalarga asosan; boshqa tekshiruvlar ko'rsatmalarga asosan o'tkaziladi.

Vrach tavsiyalari bajarilishini nazorat qilish reabilitatsiyani hamma bosqichlarida tibbiyot hodimi bilan birga amalga oshirilishi kerak. Kasallikning kuchayishi 2 yil davomida kuzatilmasa dispanser nazoratidan o'chiriladi. Tashkillashmagan bolalar tiklantiruvchi davolashni poliklinika sharoitida yoki ixtisoslashtirilgan sanatoriyada olishadi. Tashkillishgan bolalar esa ixtisoslashtirilgan bolalar bog'chasida, bolalar bog'chasidagi ixtisoslashtirilgan guruhlarda yoki oddiy guruxlarda olishadi. Maktab bolalari uchun sanator smenalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida tashkil etiladi.

Tez-tez kasallanuvchi bolalar reabilitatsiyasi o'z ichga bir nechta shart bo'lgan holatlarni oladi. Ovqatlanish ratsionallashgan, asosiy komponentlari bo'yicha balanslashtirilgan, mineral moddalar va vitaminlar optimal miqdorda, probiotiklar, enterosorbentlar va ichak mikroflorasi faoliyatini tartibga soluvchi preparatlar bo'lishi kerak (xilik forte). Bolaning kunlik ratsionida albatta barra sabzovot va xo'limevalar bo'lishi shart. Atoniya va limfatizmli bolalarda asosiy prinsip gipoallergen dieta.

Chiniqtirish umumiy prinsiplarga - ko'ra o'tkaziladi.

Rekonvalessensiya davrida chiniqtirishni kontrast usullar bilan o'tkazish tavsiya etiladi.

Chiniqtirishni nafas mashqlari va ko'krak qafasi massaji bilan 1 yilda 2-4 marta 14 kun olib boriladi.

Xonaning harorat rejimi muhimdir. Kiyim mavsumga mos, paxta tolali bo'lishi kerak. Bola organizmini jismoniy yuklamalarga va shamollashlarga qarshi tolerantligini oshirishga qaratilgan sistemali maxsus kompleks davolash jismoniy tarbiyasini, nafas treningini, gimnastika, massajlarni o'tkazish kerak.

Fizioterapeutik metodlar: umumiy UFO, davolovchi yuqori chastotali tok, dorili elektroforez. Fitoterapeutik moddalarni mahalliy, ingalyasion va ichish uchun qo'llanaladi. O'choqlarni sanatsiya qilishda, burun yo'llari, og'izni va tomoqni chayishda antibakterial va protektiv xususiyatga ega bo'lgan o'tlardan foydalaniladi (zveroboy, romashka, kalendula, chistotel, evkalipt, podorojnik, shalfey). O'simlik ekstraktlari masalan tonzilgon N preparati tarkibida bor. O'tlarning tindirmalari kislород-vitamin kokteyllari tarkibida xam bor — davolash yil davomida 2 kurs-3 hafta, 30 min ovqatdan oldin. Bolalarda allergiya simptomlari bo'lganda qaynatmalar -(chereda, dubovaya kora, otrubi)maxalliy qo'llanaladi. Farmakologik immunokorreksiyanı xozirgi O'RKLarni patogenetik davolash va retsidiivini profilaktikasini asosiy komponenti sifatida qaralmoqda. Oxirgi klassifikatsiyaga ko'ra immunostimulyator va immunokorrektorlarni 4ta asosiy guruxi mavjud: mikrob kelib

chiqishli preparatlar; timus preparatlari; suyak ko‘migi preparatlari; «kimyoviy toza » preparatlar.

### **Bakterial lizatlar**

Bolalarning immunoprifilaktikasi va immunoterapiyasida optimal metod bo‘lib, ayniqsa O‘RK lar bilan ko‘p og‘riydiganlar, topik lizatlarni immunomodulyatorlar gruppasi deb xisoblashlari mumkin.Ular xalqumning limfatik xalqasiga ta’sir qilib, shilliq qavatlardagi mukozal immunitetni aktivlaydi.

Imudon, bronxomunal-bakterial lizatlari preparatda mavjud bo‘lgan bakterial antigenlarga nisbatan spetsifik immun javob chaqiradi. IRS-110 kuchli allergizatsiyali bolalarda O‘RKLarni asoratlarini profilaktikasida va o‘tkir davrida davolash uchun qo‘llaniladi. 3oydan 3yoshgacha bo‘lgan bolalarni davolashda xar bir burun yo‘liga 1dozadan 2maxal buyuriladi. 3yoshdan oshganlar va kattalarga xar bir burun yo‘liga 2-5 maxal 1 dozadan simptomlar yo‘qolguncha buyuriladi.

3oydan oshgan bolalar va kattalarda O‘RK profilaktikasi uchun 1 dozadan 2maxal ikkala burun yo‘liga 2xafta davomida, gripp va boshqa virusli kasalliklar o‘tkazgandan keyin maxalliy immunitetni tiklash uchun 1dozadan 2maxal 2xafta davomida buyuriladi.

Imudon O‘RKLarni o‘tkir davrida davolash maqsadida va ko‘p kasal bo‘ladigan bolalarda asoratlar profilaktikasi uchun qo‘llaniladi. 14yoshdan oshgan o‘smirlarni davolash uchun ~~ta’sir qilaydi~~.

3-14 yoshdagi bolalarda davolash va profilaktika uchun kuniga 10ta tabletkadan qabul qilinadi. Tabletkalar 1soat interval bilan shimalidi (chaynamasdan). Bir kurs davo o'rtacha 10 kun.

Profilaktika uchun kuniga 6 ta tabletkadan qabul qilinadi. Tabletkalar 2soat interval bilan shimalidi (chaynamasdan). Kurs davomiyligi 20 kun. Xar 3-4 yilda Imudonni profilaktik kurslarini qabul qilish tavsiya etiladi.

3-14 yoshdagi bolalarda davolash va profilaktika uchun kuniga 6 tabletkadan qabul qilinadi. Tabletkalar 2soat interval bilan shimalidi (chaynamasdan). Kurs davolanish davomiyligi o'tkir kasalliliklarda 10kun, profilaktika uchun 20 kun. Xar 3-4 yilda Imudonni profilaktik kurslarini qabul qilish tavsiya etiladi.

Bronxomunal- nafaqat nafas yo'llariga balki ichakga xam ta'sir qiladi, kuniga 1 kapsuladan buyuriladi. Davolash dozasi 10-30 kun to'xtovsiz qabul qilish, profilaktika uchun 10kun qabul qilish lozim.

Kombinirlangan immunokorreksiyalovchi preparatlar o'zida bakterial lizatlar xususiyatlarini (spetsifik immunostimulyasiya) va bakteriyalarni membrana fraksiyalyaariini (nospetsifik immunostimulyasiya) birlashtiradi. Ribomunil preparati uzoq muddat qabul qilinadi, 4kundan xar oyda yarim yil davomida qabul qilinadi. Agar bolada surukali infeksiya o'choqlari va boshqa cho'zuvchi faktorlar bo'lmasa davo kursi 3-4oy (3tabletidan 1 maxal) davom etadi. Antibiotiklar bilan birga qo'llanilganda xam effekti kuzatiladi.

## **Immunokorrektorlar. — a-sitokinlar. — Immune modulatorlar.**

Mielopid — past molekulyar peptidlari yig'indisi. Preparatga ko'rsatma bo'lib travmatik genezli tranzitor immunodefitsitlar (operatsiyalar, travmalar, kimyo va radioterapiyalar) xisoblanadi va cho'ziluvchan va sekin kechuvchi yiringli kasallikkarda xam effektivlikga ega.

### **Sitokinlar va ularning analoglari.**

Davolash maqsadida quyidagi interferonlar qo'llaniladi: (alfaferon, lokferon); (roferon-A, reaferon); (viferon, intron-A, realdiron); (vellferon); (rebif); (beta-feron). Interferonlar virusga qarshi effektidan tashqari immunomodullovchi va antiproliferativ xususiyatlarga xam ega. Ammo uning ko'p kasal bo'lувчи bolalardagi effekti xaqida aniq isbot yo'q, shu bilan birga ushbu preparatlar boshqa usullar bilan kiritilganda zararli ta'sirlarga ega. Xozirgi vaqtida O'RKLarni qaytalanishini profilaktikasi uchun arbidol, sikloferon, remantadin, aflubin, viferon, tiloron (amiksin), roferon, anaferonlarni qo'llash tavsiya etiladi, ayniqsa bular allergik fonli bolalarda O'RKLarni profilaktikasi uchun maqul tanlovdirdi.

Og'ir o'tkir va surunkali virus va bakterial kasalliklar fonida yuzaga kelgan ikkilamchi iimmunodefitsitlarda tanlov preparati bo'lib azoksimera bromid (polioksidoniy) xisoblanadi. 3yoshdan so'ng qo'llaniladi. U T va B limfotsitlarni differensirovkasini, xujayra proliferatsiyasini, leykotsitlarni migratsiyasini va fagositozni stimullaydi.

Asosiy aniqlovchi tanlov bu moyil kasalligiga qarab aniqlanadi.

Tug‘ma immun tanqisligida qo‘llaniladigan preparatlar leykotsit supressorlarini pasaytiruvchi: allergiyada, autoimun holatlaridagi T supresorlarini aktivligini ko‘taruvchi preparatlar, xujayra zveno imunitetini yetishmasligida, fagotsitozni kuchaytiruvchi preparatlar beriladi. Immunostimulyatorni noto‘g‘ri qo‘llanilishida, supressor, xelper va killer ichida (sitostatik xujayralar) faoliyatini buzilishiga va katta immun tizimda disbalans o‘zgarishlarga olib keladi.

Immunostimulyatorni qo‘llanilishida alohida yondashuv bilin bolaning vazni, o‘tkir resperator kasallikni holati va og‘irligiga, hamroh patologiyaga, immun sistemani holatiga va yil fasillaraiga qarab tavsiya etiladi.

Tez kasallanuvchi bolalarda vitamin tanqisligi rivojlanadi — poligipovitaminoz, mikro elementlarni tavsiya etish juda katta ahamiyatga ega. Ko‘p qo‘llaniladigan zamonaviy komplekslarga: multitabs, bevipleks, lskovit, pikovit, duovit, griovit, revit, geksavit, undevit, glutamevit, vibovit, kalsinova, vitrum.

Adaptogen va biogen stimulyatorlar organizmni umumiy kurashuvchanligini oshiradi. Adaptagen va asalari maxsulotlari: apilaktoza — ona asal ari suti, apilikvirit — asal ari suti va solodka, propolis, politabs — ferment preparatlari.

O‘simlik adaptogenlarga kiradi: pushti rodiola ekstrakti, levzei, eleuterokok, zamanixa damlamasasi, xitoy limoni, araliya, sterkulin, jenshen ildizi, exinatseiyali preparatlar — exinatsin

likvidum, immunal. Bolalarda samarali linetol - linin yog'i. Hayvon adaptagenlari: pantokrin (qarshi ko'rsatma nefritlarda, ich ketish, trombofiliyada). Anabolik sintetik preparatlar: orot kislotasi, nerobol, nandrolon (retabolil), safinor.

Reabilitatsiyani boshqa turlariga psixoligik korreksiya, aromafitoterapiya, gomeopatik maxsulotlari qonni lazer orqali nurlanishi, ignarefleksoterapiya, eubiotiklar (meksaza, meksaform, bifikol quruq, laktobakterin, bifiform), asal kompozitsiyasi (asal, mumyo va boshqalar). Og'ir muammolardan biri tez kasallanuvchi bemorlarga antibakterial preparat vositalarini qo'llashdir. Bemor qabul qilgan antibiotik vositalari, rezistentligiga va qo'zg'atuvchini spektoriga bog'liq. Nafas yo'llari infeksiyalarida linkomitsin, gentamitsin, tetratsiklin samarasi kam. Agar bola antibiotik qabul qilmagan bo'lsa penitsillinlar, sefalosporinlar 1 avlod; amoksiklav, azitromitsin (sumamed), augmentin, azitromitsin dori vositalarini ichish ta'siri bo'lmasa, gospitalizatsiya tavsiya etiladi. Hozirgi kunda mahalliy davo sifatida kombinirlangan mikrobg'a qarshi vositalari qo'llaniladi. Tez kasallanuvchi bolalarga polideks va fenilefrin birga qo'llash tavsiya etiladi. Mahalliy mikrobg'a qarshi davo hozirgi kunda o'tkir va surunkali kasalliklarda samarali kechmoqda. Immun stimulyatorlarni qo'llashda anamnez, bolaning klinik holati, imunogramma tahlillari katta ahamiyatga ega. Faqatgina ikki -uch yil davomida kompleks da'volar va barcha tavsiyalarni to'g'ri bajargan holda kasallik uchrashini kamaytiramiz.

## **Infekstion kasalliklar bilan kasallangan bolalarni alohida kuzatuvi**

Uy sharoitida davolanayotgan o'tkir infekstion kasallik bilan kasallangan bolani va xonadondagi barcha yashovchilarni mahalliy UASH tibbiy ko'rikdan o'tkazadi hamda barcha profilaktik chora tadbirlarni qo'llaydi. Shifokor infekstion kasalliklarga erta tashxis qo'yishi, tezkor gospitalizastiya qilishi va kasallikni tarqalishini oldini olishi kerak.

Bemor uy sharoitida davolanayotgan bo'lsa malakali davo va epidemiyaga qarshi tartibga amal qilish kerak. Shifokor bemorni bolalar jamoasidan alohida ajratishi kerak. Infekstion kasallik tashxisi qo'yilganda yoki shubha bo'lganda zudlik bilan sanepid boshqarmaga xabar berish lozim (forma №058\). ("shoshilinch xabarda oziq-ovqatdan zaharlanish, emlashga reakstiya bo'lishi ko'rsatiladi"). Shoshilinch xabarni yubora olmagan holatlarda telefon aloqalari orqali xabar beriladi. Shoshilinch xabarnomada pasport ma'lumotlaridan tashqari, uning ish yoki o'qish manzili ko'rsatiladi; tez tibbiy yordamga qachon murojaat qilgani, tashxisni qo'yilishi, qo'llanilgan birlamchi epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar va muloqotda bo'lganlarni ma'lumotlari qayd qilinadi.

Infekstion kasalliklar uchraganda maxsus infekstion kasalliklar jurnaliga qayd etiladi (forma №060\u). Agar oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish holatlari bo'lsa mahalliy shifokor zudlik bilan sanepid boshqarmasiga xabar berishi, qayd qilingan mahsulotlarni, najasni, yuvilgan suyuqlikni sanepid boshqarma

laboratoriyasiga yuborishi yoki boshqarma vrachi kelgunga qadar saqlab qo'yishi kerak. Yig'ilgan mahsulot bakteriologik yoki toksikologik laboratoriyaiga ikki soat mobaynida yuborilishi, zarur bo'lgan holatlarda 12 soat mobaynida muzlatgichda saqlanishi lozim. Infekstion kasalliklar maktab va maktabgacha bo'lgan maussasalarda uchragan holatlarda tezkor xabarnomani sanepid boshqarmasiga bolalar shifokori etkazishi shart. Kasal bola to'g'risidagi ma'lumotni telefon orqali bolalar poliklinikasiga mahalliy shifokor xabar berishi shart. Mahalliy UASH infekstion kasalliklar, o'tkir ichak infekstiyalari, virusli gepatit, gel'mintoz va boshqa kasalliklar bilan kasallangan bemorni dispanser nazoratida ishtirok etishi shart.

#### **Epidemik o'choqda epidemiyaga qarshi chora tadbirlar**

Mahalliy UASH infekstion kasallar bilan (o'choqda) ishlaganda quyidagi masalalarni hal qiladi:

-davo va profilaktik chora tadbirlarini rejalashtirish;

-karantin xarakterini aniqlash (jadval);

Ba'zi infekstion kasallik turini yashirin vaqt, bemorni alohidalash vaqt va karantin vaqt.

Kasallik	Inkubastion vaqt			Kasalni vaqt	alohidalash	Karantin vaqt
	o'rta cha si mal	Ma k si mal	Min mal	infekstiyadan	so'ng	21 kun

Infekstion gepatit A	15- 30	50	7	Kasallik boshlangandan 28-kungacha stastionardan chiqarmaslik	Bemor bilan muloqotdan keyin 35 kun mobaynida
Gepatit V	60- 120	6	42 oy	Kasallik boshlangandan 28-kungacha stastionardan chiqarmaslik	Bemor bilan muloqotdan keyin 35 kun mobaynida
Suvchecha	13- 17	21 kun		Toshmaning toshish vaqtini va oxirgi toshma elementini paydo bo'lgandan so'ng 5 kun	Bemor bilan muloqotdan keyin 21 kun mobaynida
Gripp	1	2	12 soat	7—10 kun	
Dizente riya	2-3	7	1	Tuzalgunga qadar	7 kun

Ko'k yo'tal	5- 7	14	2	bakteriologik tekshiruv bilan- 25kunda, usiz esa 31 kunda	14 kun
Qiza miq	10	21	9	Toshma toshganda 4 kun, asoratlari bo'lса— 10 kun	Izolyasiyada 21 kun, faol immunizastiya o'tkazilganda esa 17 kun
Qizilcha	16	24	11	Toshma toshganda 5 kun-	

	-		davomida		
	-	20			
Tepki	15	23	11	9 kundan kam emas so'ng davomida kuzatishadi	21 kun
	-	19			
Skarlati na	3-	12	1	22 kun	17 kun
	6				
Meningokok infeksiyasi	5-	20	3	To tuzalguncha	10 kun
	7				
Bo'gma	3-	10	2	To tuzalguncha	7 kun
	5				

(iddi) hissasiyot u temaditorloq mu'minlik, dengiz  
sifarijatnomeriga qarshilikda surʼati va qo'shilishda  
mazʼox hissasiyoti, isteʼsodli hissasiyot va burʼingan surʼasi  
O'choqda epidemiyaga qarshi choralar:

Infekstion kasallik	O'choqda epidemiyaga qarshi choralar		
	Dezinfek stiya	Tibbiy kuzatish	
Ich terlama va paratiflar	Yakuniy dezinfek stiya	Muloqotda bo'lganlarni dezinfeksiyadan so'ng 21 kun davomida kuzatish ; har kungi termo-	

		metriya, bir marta — najas va peshobni bakteriologik tekshirish hamda noto'g'ri gemagglyutinastiya reakstiyasini o'tkazish.
Ichburug', salmonellyo z va boshqadezinfek ichak infekstiyalari	Joriy yakuniy stiya	Muloqotda bo'lganlar alohida qilinadi . bemor izolyastiyadan so'ng 7 kun davomida tibbiy kuzatuvda bo'ladi:kuniga 2 marta termometriya, shikoyatlarni aniqlash (qorin sohasida og'riq ), kun davomida najasni tezligi va xususiyati aniqlanadi. Hamma ko'rsatkichlarni varaqaga kiritish kerak.
Virusli hepatitis A	Yakuniy dezinfeksiy a	Muloqotda bo'lganlarni tibbiy kuzatish: har kungi termometriya, teri va shilliq qavatlar, skleralarni ko'rish , axlat va peshobni rangini aniqlash. Haftada bir marta shifokor ko'riganidan o'tish (jigar va taloqni chegaralarini aniqlash)
Suvchechak, tepki	Nam tozalash, xonani shamollatish	Muloqotda bo'lganlar 21 kunga alohida qilinadi
Qizilcha	-	Muloqotda bo'lganlar alohida

		qilinmaydi
Skarlatina шарлатин	Joriy dezinfekstiya жориј децинфекшија	Muloqotda bo'lganlar alohidalangandan so'ng 7 kun tibbiy kuzatuvda bo'lismadi : har kungi termometriya, halqum va teri qoplamlari ko'rige.
Meningokok infeksiyasi менингокок инфекшијаси	Nam tozalash vako'rik : termometriya, halqum va teri nazorati. Tomoqdan ikki marta shamollatish meningokokk infeksiyasiiga surtma olish.	10 kun davomida har kunlik tibbiy tozalash vako'rik : termometriya, halqum va teri nazorati. Tomoqdan ikki marta shamollatish meningokokk infeksiyasiiga surtma olish.
Bo'g'ma бог'ма	Yakuniy dezinfekstiya якуний децинфекшија	Muloqotda bo'lganlarni 7 kun davomida tibbiy kuzatish (har kunlik termometriya, halqum ko'rige), bir marta bo'g'maga bakteriologik tekshiruv (halqum va burundan surtma olish )
Ko'k yo'tal ко'к ўталь	-	Muloqotda bo'lganlarni alohidalash, 14 kun davomida tibbiy kuzatish. O'choqda ikki marta bakteriologik tekshirish o'tkazish.

### **Epidemiyaga qarshi choralar:**

- kasalliklarni erta diagnostikasini ta'minlash;
  - kasallikni tarqalishini oldini olish va o'z vaqtida gospitalizastiya qilish (agar bola uyda qoldirilsa uni o'z vaqtida tekshirish va davolash, epidemik tartibni ta'minlab berish);
  - muloqotda bo'lganlarni alohidalash;
  - infekstion kasallik tashxisi qo'yilganda — tezkor DSEN ga xabar berish;
  - barcha infekstion kasalliklarni ro'yxatga olish;
  - kasal bo'lganlarni yaqinlariga infekstion kasallikni xavflarini tushuntirish;
  - oziq- ovqatlar bilan zaharlanish holatlarida gumondor oziq - ovqatlarni qoldiqlarini tanovuldan olib ularni DSENg'a yuborish;
  - infekstion kasalliklarni oldini olish uchun sanitар sog'lomlashtiruv va sanitар-ma'rifat targ'ibot ishlarida ishtirok etish;
  - infekstion kasallik o'tkazganlarni dispanser kuzatuvini olib borish.
- Dezinfekstiyaga ko'rsatma: chidamli qo'zg'atuvchilar keltirib chiqaradigan infekstion kasalliklar (bo'g'ma, skarlatina, suvchechak, poliomielit, ichak infeksiyalari, virusli hepatit va boshqalar.) hisoblanadi. Qo'zg'atuvchilari chidamsiz bo'lgan kasalliklarda (qizamiq, ko'kyo'tal, suvchechak, tepki,qizilcha), nam tozalash va xonani shamollatishning o'zi kifoya bo'ladi.
- Bo'g'imoyoqli parazitlar keltirib chiqaruvchi infeksiyalarda

dezinfekstiyani qo'llash shart, kemiruvchilar tarqatadigan infekstion kasalliklarda esa deratizastiya qilish lozim.

Dezinfekstiyani joriy va yakuniy turlari bor. Joriy dezinfekstiya bemorni alohida qilgunga qadar uning atrofida o'tkaziladi. Yakuniy dezinfekstiya bemor alohida (gospitalizatsiya) qilingandan so'ng o'choqda yoki alohidalash davri tugagandan so'ng o'tkaziladi. Joriy dezinfekstiya tibbiyot xodimlarining nazorati ostida aholi tomonidan o'tkaziladi. Kasalning idish- tovoqlari har bir ishlatilganidan keyin ovqat qoldiqlari bilan 2% li osh sodasi eritmasida 15 daqiqa davomida yoki suvda 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Kasal bolaning o'yinchoqlari (plastmassadan, rezinadan, temirdan, taxtadan) sovunlab issiq suvda yuviladi. Yumshoq o'yinchoqlar shyotkalab yuviladi. Kitoblar kir yuvish kukuni eritmasida ho'llangan latta bilan artiladi. Kir bo'lgan choyshablar va kiyimlar kir yuvish kukunining 2% eritmasida 1 soat davomida ivitilib, yuvishdan oldin shu eritmada qaynatish kerak. Kasalni parvarishlash buyumlari (termometr, isitkichlar va boshqa.) kir yuvish kukunini issiq eritmasida yuviladi. Xonalar va umumiyl foydalanish joylaridagi pol, eshik, eshik tutqichlari, bochok tutqichi va unitaz o'tirg'ichi issiq kir yuvish kukuni eritmasi bilan yuviladi. Tozalash jihozlari (shvabralar, lattalar) 30 daqiqaga xlорli ohak eritmasiga solinadi va xlорli ohakni 0,5% eritmasi bilan tozalanadi. Yakuniy dezinfekstiyani shahar deznazorati xodimlari kasalni gospitalizasiyasidan so'ng o'tkazishadi, agar bola uy

sharoitida davolanayotgan bo'lsa yakuniy dezinfeksiyani uning ota-onasi o'tkazadi.

### **Surunkali kasalliklar reabilitasiyasi.**

Reabilitasiya 3 ta bosqichda olib boriladi:

-Stasionar,

-Sanator,

-Ambulator- proflaktik davolash.

Birinchi bosqich (stasionar) klinik sog'lomlashtirish, zararlangan sohani vazifasini tiklashdan, keyingi reabilitasiya bosqichiga butun organizmni tayyorlashdan iborat. Birinchi bosqich asosiy kasallikni tuzalishi, organ yoki sistemani funkstiyasini tiklanishi, zararlangan organ funkstiyasini kompensastiya bosqichigacha tiklash bilan yakunlanadi.

Ikkinci bosqichda reabilitasiya (sanator) asosiy ahamiyatga ega bo'lib, bunda zararlangan sohani funkstiyasini normallashtirish, boshqa organ va sistemani tiklashdan iborat. Asosan bu bosqichda bolaning yoshi va individual holatini inobatga olib fizik va ruhiyatini tiklashga e'tibor qaratish kerak. Sanator bosqichda bola organizmining reaktiv holatini normallashtirish va nospestifik immun himoya vazifasini tiklash lozim. Sanator bosqich ixtisoslashgan sanator va reabilitasiya markazlarida olib boriladi. Medikamentoz davo parhez, chiniqtirish muolajalari, fizioterapiya va davolovchi fiz-kulturadan iborat. Uchinchi bosqich reabilitasiya (adaptasiya)bosqichi, bunda bolaning butun organizmini morfofunktional holatini butunlay tiklash va normallashtirish

nhamiyatga ega. Adaptastion bosqich bolalar poliklinikasida, oilada, bog'chada va mакtabda o'tkaziladi. Kerakli barcha funkstional tekshiruvlar shifokor ko'rsatmasi bilan bolalar poliklinikasida bajariladi. Butun organizimni tiklanishi bilan bu bosqich yakunlanadi.

UASH nazorati ota-onalar bilan olib boriladi, bunda bolani sostial adaptastiya va tengdoshlari bilan birgalikdagi hayot tarziga tayyorgarligi haqidagi savolga javob beriladi.

Sostial adaptastiya tushunchasiga kiradi:

- Maktabdagagi kun tartibi (haftani qisqartirish, qo'chimcha dam olish kuni, qisqartililgan ish kuni);
- Umumiy maktabdan ozod etish va uy maktabida o'qitish;
- O'quv jarayonida va yozgi vaqtida qishloq xo'jalik ishlaridan ozod qilish. Kasal bolalar dispanserizasiyasi va reabilitasiyasi nafaqat kasallikni qaytalanishini, balki oddiy hayot tarziga qaytishini va kelajakdagi professional imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Barcha profilaktik davolash ishlari va dispanser kuzatuvlari UASHga yuklatiladi.

#### **Sog'lomlashhtirish bo'limi.**

Surunkali kasali bor bolalar reabilitasiyasi nafaqat tuzalish balki, bolaning ish qobiliyati va sog'ligini maksimal darajada oshirishdan iborat. Reabilitasiyaning asosiy shartlaridan biri - bu muntazam ravishda, bosqichma- bosqich stasionar, sanator-kurort davolash, poliklinika ishlarini amalga oshirishdan iborat. Sog'liqni tiklashdan maqsad - bemorning hayot tarzini, bilim olish qobiliyatini, sport bilan shug'ullanish hamda o'z tengdoshlari bilan o'zaro

munosabatini tiklash va shu bilan bиргаликда yo'qotilgan sog'lig'ini tiklab, yangi shart sharoitlarga ko'nikma hosil qilishdir. Sog'lomlashtirish ishlari ketma ket, bosqichma- bosqich, uzlusiz va tibbiyot xodimlarining kuzatuvi ostida olib boriladi. Albatta sog'lomlashtirish bo'limi shifokori va UASH nazoratida olib boriladi. Sog'lomlashtirish bo'limi tarkibiga fizioterapiya xonasi, davolovchi jismoniy mashq, massaj, iglorefleksoterapiya va surdologik mashg'ulotlar xonalari kiradi. Bu bo'limda nafas olish a'zolari, asab sistemasi, tayanch harakat sistemasi, yurak va buyrak kasalliklari bo'lgan bolalar davolanadi. Umumiy bolalar soni 25000 ta bo'lsa bo'lim tashkil qilinadi. Reabilitasiya bo'limida shifokorlar 0,2 va 0,4, o'rta tibbiyot xodimlari o'rta hisobda 10000 ta bola uchun taqsimlanadi. Sog'lomlashtirish bo'limlari bo'limasa shahar reabilitasiya markazlarida davolash ishlari olib boriladi. Sog'lomlashtirish bo'limi shifokori ambulator bolalarni saralash, kasal bolalarga individual yondashish, davo samaradorligini baholash, boshqa bo'limlarda konsul'tativ yordamni tashkillashtirishni amalga oshiradi. Ambulator poliklinikada kasallikni xarakteri, og'irlik darajasi, bolaning yoshi, individual holati, yashash sharoiti hisobga olinadi. Bir turdag'i patalogiyasi bor bolalarni mujassamlab davo mashg'ulotlari, gimnastika, fizkultura tayinlanadi.

#### **Surunkali somatik kasal bolalarni dispanser nazorat qilish.**

Dispanserizastiya - ma'lum bir aholining sog'lig'ini aktiv dinamik kuzatish, kasallikni erta aniqlash, nazoratga olish, kompleks davolash, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar

o'tkazishni o'z ichiga oladi. Poliklinika sharoitida ikkilamchi profilaktika ishlari olib boriladi (ya'ni kasallikni erta aniqlash va kasallik asoratidan aholini ogohlantirish) Surunkali kasallikkilari bor bolalar aholini 15% ni tashkil qiladi. Bunday kasal bolalarni ro'yxatga olish va aniqlanishi asosan ambulator kuzatuv jarayonida, patronaj mobaynida, maxsus nazoratdan o'tishda, yil davomida maxsus ko'rikning tekshiruv natijalari asosida bajariladi. Patologik holatlar aniqlanganda poliklinika sharoitida, diagnostik markazlarda yoki stastionarlarda chuqur va sinchiklab tekshirish olib boriladi.

Dispanser kuzatuviga 14 guruh bolalar kiradi. Bolalar dispanser guruhlari: nafas olish a'zolari kasallikkilari, (o'tkir, cho'zilgan, restidivlashgan pnevmoniya, o'tkir va cho'zilgan O'RI), O''II (dizenteriya, enterit, kolit, infekstion gepatit). Bu bolalarni dispanser nazorati davolangan joyida olib boriladi.UASH nazoratga olish va dispanser kuzatuv davomida hamma reabilitasiya masalalariga javob izlaydi. Dispanser nazoratiga olishda 2ta asosiy tibbiyot hujjati yuritiladi: bolaning kasallik tarixi (forma № 112/u) va nazorat kartasi (forma № 30u).UASH har yili nazorat rejasini tuzadi. Rejada UASH va javobgar mutaxassis klinik va paraklinik tekshiruvlarga, yil davomida qilinadigan ishlarga (tartib, dieta, medikamentoz va nomedikamentoz tekshiruvlar, fizioterapiya, sanator-kurort davo) aniqlik kiritadi va belgilab beradi. Shifokor interkurrent fonidagi kasal bolalarda dispanser nazorat taktikasini ishlab chiqadi;

gospitalizastiya qilish muddatini, dispanser nazoratidan o'chirishni va dispanser kuzatuvni samaradorligini baholab beradi. Bundan tashqari shifokor bolalar bog'chasiga, sport va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga, profilaktik emlashlarlar olishga, sostial adaptastiya va reabilitastiya (tartib va maktabda o'qish, imtihonlardan ozod qilish, uy sharoitida o'qishga ko'rsatmalar)ga tavsiyalar berishi kerak.

Kalendar bo'yicha yil yakunida har bir dispanser kuzatuvidagi bola uchun yillik xulosa tuziladi. Bunda kasallikning kechishi, hamroh kasaliklar, o'tkazilgan davo va tekshiruvlar, profilaktik ishlar, dispanser kuzatuvning samarasi «tuzalish», «yaxshilanish», «o'zgarishsiz» yoki «yomonlashish» baholab boriladi. Bolani nazoratdan o'chirish mutaxassis va UASH bilan birlgilikda olib boriladi. Agar yil yakunida nazoratdan olinmasa, keyingi yilga dispanser kuzatuv rejasi tuziladi. Dispanser kuzatuvining xulosasi barcha aholi bo'yicha butun yil uchun bolalar poliklinikasi tibbiyot xodimlari majlisida muhokama qilinadi. Og'ir masalalardan biri bu interkurrent kasalligi bor bolalarni dispanser nazoratidir. Umumiy tavsiya polipragmaziyadan ogohlantiradi, chunki ko'pincha interkurrent kasallarda restidivlanishni oldini olish maqsadida davo ishlari olib boriladi. Barcha surunkali somatik kasalliklar, infekstion, infekstion-allergik, biriktiruvchi to'qima kasalliklari, tug'ma nuqsonlarda antibakterial davo, yallig'lanishga qarshi nosteroid preparatlar, sedativ dorilar,

immunostimulyator dori vositalari, adaptogenlar qo'llaniladi. Aniq dori ta'sirini va davo muddatini, asosiy patologik holatga qarab belgilab beriladi. O'tkir va surunkali kasalliklarda stasionar davolanish talab etiladi va tezkor gospitalizastiya qilinadi. Bolalarda rejali gospitalizastiya surunkali kasalliklarning diagnostikasiga, davolashning birlamchi imkoniyatlariga va bolaning oilaviy sharoitiga bog'liq. Rejali gospitalizastiya qilishga chuqur va tog'ri aniqlangan surunkali kasalliklar tashxisi asos bo'ladi. Dispanserizastiyani nazorat qilish Sog'liqni saqlash boshqarmasining normativ hujjatlari, sababi o'rganilgan bolalar va o'smirlar kasalliklarining sistematik tahlil qilinganligi, davolash va sog'lomlashtirish ishlarining sifatini nazorati, bolalar dispanser kuzatuvining samarasini amalga oshiradi.

#### **Dispanserizastiyaning sifat ko'rsatmalari:**

- 1-Doimiy tibbiy ko'rikning foizi;
- 2-Qayta aniqlangan kasal bolalar miqdori;
- 3-Profilaktik ko'ruda aniqlangan kasallanishlar soni;
- 4-Kasallanish strukturasi;
- 5-Dispanser kuzatuvni qamrab olgan foiz;
- 6-Davolash va sog'lomlashtirish ishlarining tezkorligi.

Bolalar dispanser kuzatuvining samarasi: kasallar sonini topish: dispanser nazoratida turganlar sonidan tuzalganlar soni ayiriladi;

O'pka-bronx kasalliklari bor bolalar dispanserizastiyasi.

UASHga murojaat qilish bo'yicha nafas olish a'zolari kasalliklari birinchi o'rinni egallaydi, 30% bolalar o'pka-bronx sistemasi kasalliklari bilan stastionarga tushadilar (o'tkir bronxit, pnevmoniya, bronxiolit).

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda o'tkir pnevmoniya, kattaroq yoshdagi bolalarda respirator allergoz kasalliklari uchrashi ko'proq kuzatiladi. O'pka-bronx kasalliklari bilan kurashishda UASH profilaktika ishlarini olib borish, erta diagnostika qilish, o'z vaqtida gospitalizastiya qilish yoki uy sharoitida davolashni amalga oshiradi.

Dispanser kuzatuviga quyidagilar olinadi:

- O'tkir pnevmoniya o'tkazgan bolalar;
- Qaytalanuvchi bronxit bilan kasallangan bolalar;
- BAli kasallar;
- Respirator allergozli kasallar.

O'tkir pnevmoniya o'tkazgan bolalarning dispanser nazorati:

Dispanser kuzatuvi o'tkir pnevmoniya o'tkazgan bolalarda nafas olish a'zolarini to'liq morfologik va funkstional holatini tiklash, kasallikning o'tkir davrida paydo bo'lgan patologik reflekslarni bartaraf qilish va psixomotor orqada qolishni tiklash, immun reaktivligini kuchaytirish, surunkali infekstion o'choqlarni bartaraf qilishdan iborat. O'tkir pnevmoniya bilan kasallangan bolalar tuzalganidan so'ng uy sharoitida yoki stastionarda davolangan bolalar 1 yil mobaynida dispanser kuzatuvida bo'ladilar. O'tkir pnevmoniya o'tkazgan bolalarni umumiy

amaliyot shifokori hayotining birinchi yilida stastionardan chiqarilgandan so'ng 3 kundan keyin nazorat qiladi. Bolalar birinchi 3 oyligida, 6 oy mobaynida tuzalganidan so'ng oyiga 2 marta, keyin har oyda kuzatuvda bo'ladi. 3-12 oygacha bo'lgan bolalar bir yil mobaynida har oyda kuzatuvda bo'ladilar. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan kasal bolalar 2 oyda bir marta, 3 yoshdan katta bolalar kvartalda bir marta dispanser nazoratida bo'ladilar. Surunkali o'choq sanastiysi uchun albatta otorinolaringolog va stomatolog konsultasiysi zarur. Dispanser nazorati vaqtida kun tartibini tiklash, yosha mos uyquni yo'lga qo'yish va sayr vaqtini uzaytirish kerak. Maktab yoshidagi bolalar 3 oy mobaynida jismoniy mashqlardan ozod qilinadi. Bolaning holatiga qarab qo'shimcha dam olish kunlari yoki yakka tartibda o'qitish belgilanadi. 1-2 oy davomida dieta, vitaminga boy va engil hazm bo'ladigan ozuqa mahsulotlari tayinlanadi.

O'tkir pnevmoniyaning davolash maqsadida fizioterapektik muolajalar qo'llaniladi:

- Tuzli-ishqoriy ingalyastiyalar (natriy xlorid, natriy gidrokarbonat, kaliy yodidli eritmalari); proteolitik fermentlar bilan ingalyastiyalar (tripsin, ximotripsin); davolovchi o'tlar bilan ingalyastiyalar bronxoobstruktiv sindrom bo'lmaganda o'tkaziladi (romashka, shalfey, mat-i-machexa);
- Kalstiy, kaliy yodid bilan dorili elektroforez;
- Ko'krak qafasiga ultratovush ta'sir qilish; u asbest svi efftedi

## **Reabilitasiya va qaytauvchi bo'lgan bolalardagi shartlar**

- elektroforez, applikastiya;  
-induktotermiya;  
-magnitoterapiya;  
-fitoterapiya — turli ta'sirga ega bo'lgan o'tlar yig'indisi: balg'am ajralishini tezlashtiruvchi, yallig'lanishga qarshi, immunitetni oshiruvchi, bronxolitik;  
-davolovchi fizkultura, ko'krak qafasi massaji (oddiy, tebranuvchi, nuqtali);  
-chiniqtirish (havo va quyosh vannalari, cho'miltirish).

Pnevmoniya o'tkazgan erta yoshdagи bolalarda reabilitasiya 3oy mobaynida, kattaroq yoshdagи bolalarda 2 oy davomida o'tkaziladi. Dispanser kuzatuvi mobaynida pnevmoniya qaytalanganda pulmonolog, immunolog ko'riganidan o'tkaziladi. Profilaktik emlashlar tuzalganidan so'ng 3-4 haftadan keyin o'tkaziladi. O'tkir va cho'zilgan pnevmoniyada sog'ayganlik samaradorligini baholash: bemor umumiy holatini yaxshilanishi; klinik va rentgenologik ma'lumotlarda qoldiq o'zgarishlarning kamayganligi, periferik qon tahlilini normallashuvi.

Sog'lomlashtirish guruhi I.

## **Qaytalanuvchi bronxit o'tkazgan bolalar dispanser nazorati**

Qaytalanuvchi bronxit - bronxlar obstruksiyasisiz yoki obstruktiv belgilar bilan, virusli infekstiya fonida 1-2 yil davomida 2-3 marotaba takrorlanuvchi, klinik simptomlarning 2 hafta va undan uzoqroq cho'zilishiga aytildi. Qaytalanuvchi

bronxit hurujida yo'tal, quruq va turli xildagidagi nam xirillashlar, o'pka rentgenogrammasida infiltrativ yoki o'choqli soyalarni bo'lmasligi, periferik qonda minimal o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ayrim bemorlarda qaytalanuvchi bronxit huruji davrida bronxoobstruktiv sindrom kuzatilishi mumkin. Xushtaksimon xirillashlar va nafasni uzayishi bo'lganda obstruksiyani (bronx devorlarini infiltrativ yallig'lanishi, shilliq gipersekrestiyasi) va chin astmatik sindromni (allergik shish, bronxospazm, gipersekretsiya) inobatga olish kerek. Qiyosiy tashxis uchun bronxodilatatorlar bilan sinama o'tkazish kerak. Dispanser nazorati muddati: UASH - yiliga 2 marta, otorinolaringolog va stomatolog yiliga 2 marta, pulmonolog - yiliga 1 marta, allergolog va immunolog - ko'rsatma asosida. Ko'krak qafasi rentgenografiyasi, balg'am ekmasi, Mantu probasi o'tkazish, spirografiya, EFGDS tekshiruvlari- ko'rsatma asosida qilinishi kerak.

Reabilitasiya 2 oy davomida sanatoriylarda o'tkaziladi. Yoz oylarida huruj bo'limganda toza havoda 2-3 oy mobaynida davolanish davom ettiriladi. Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlardan ozod qilish hurujdan so'ng 1 oy, keyinchalik tayyorlov guruqlarida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Dispanser nazorati 2 yil. Sog'lomlashtirish guruhi II.

## **Cho'zilgan pnevmoniya o'tkazgan bolalarning dispanser kuzatuvi**

Cho'zilgan pnevmoniya — nospestifik yallig'lanishli jarayon bo'lib, surunkali qaytalanuvchi, patomorfologik o'zgarishlar - pnevmoskleroz va bronxlar deformasiyasi bilan kechadi.

Cho'zilgan pnevmoniya bilan ko'pincha bronx-o'pka a'zolarida nuqsonlar bo'lganda, nasliy immun tanqis holatlarida, moddalar almashinuvi kasalliklarida, homila ichi infekstiyalarida, nafas yo'llarida yot jism bo'lganda kasallananadilar. Diagnostik belgilari: balg'amli yo'tal, o'pkada turg'un lokallashgan xirillashlar, ko'krak qafasi rentgenogrammasida — bronx yo'llari deformasiyasi yoki pnevmoskleroz bo'lishi. Surunkali jarayon o'tkir pnevmoniyaning klinik ko'rinishi bilan kechadi.

Huruj davrida davolash stastionarda olib boriladi. Huruj bo'limganda dispanser nazorati bolalar poliklinikasida o'tkaziladi.

Pnevmoniya engil kechganda UASH nazorati yiliga 2 marta, o'rta og'ir kechganda — yiliga 4 marta, og'ir kechganda - yiliga 6 marta o'tkaziladi. Pulmonolog yiliga 1 marta, ftiziatr va torakal xirurg - ko'rsatma asosida ko'radilar. O'tkaziladigan tekshiruv usullari: qon va siydik tahlili har bir dispanser kuzatuvidan so'ng; spirografiya yiliga 2 marta; balg'am stitologiyasi 1 yilda bir marta; antibiotikka sezgirlik va mikroflora ekması yiliga 1 marta; qonda immunoglobulinlarni aniqlash va EKG - ko'rsatma asosida bajariladi; huruj davrida

tashxis qo'yish maqsadida - o'pkani rentgenologik tekshiruvi o'tkaziladi, keyinchalik ko'rsatma bilan bajariladi.

Qaytalanishni oldini olish maqsadida yiliga 2 marta, agar bronxlar deformasiyasiz bo'lsa yiliga 4 marta davo qilinadi. Qaytalanishni oldini olish uchun davo: chekishni va ifloslangan havoni tozalashga qaratilgan chora tadbirdilar, tartib, dietoterapiya, immunoterapiya (ribomunil, bronxomunal, IRS-19, immudon), aerozolterapiya, fizioterapiya bir necha oy davomida kurs bilan (UFO, diatermiya, kaliy yodid, aloe bilan elektroforez), ko'krak qafasi massaji, postural drenaj, stimulyastiyalovchi preparatlar (eleuterokokk ekstrakti, pantokrin, levamizol, vitaminlar V<sub>s</sub>, B<sub>12</sub>, A, RR), balg'am ko'chiruvchi dori vositalari va mukolitiklar, bronxolitiklar. Bronxobstruktiv sindromda membrana stabilizatorlari tayinlanadi- ketotifen (zaditen) 3-6 oy davomida. Sanator-kurort davo mahalliy sanatoriyalarda o'tkaziladi.

Maktabda jismoniy mashqlar maxsus guruhlar ishtirokida tashkillashtiriladi, davolovchi fizkulturalar tayinlanadi. Cho'zilgan pnevmonianing III -bosqichida jarayonning tarxoqligi va doimiy intoksikasiyasi bor bolalarga uy sharoitida o'qitish tashkillashtiriladi. Yakuniy imtihonlar engillashtirilgan shaklda topshiriladi, o'quv yilining oxirida esa faqat 2 ta imtihon topshiradilar. Turg'un NE -II darajasida va 18 yoshgacha og'ir kechuvida nogironlik belgilanadi. Dispanser kuzatuv kattalar

fikru

ida shug'ullanishi belgilanadi. BA 24

poliklinikasiga o'tkazilguncha olib boriladi. Sog'lomlashtirish guruhi III—V.

Bronxial astmali bolalarni dispanser nazorati.

BA — allergik kasallik bo'lib, allergenlar bilan sensiblizastiya natijasida yuzaga keladi, bundan tashqari bronx yo'llarining bronxospazm natijasida o'tkazuvchanligining buzilishi, bronx devorlarida shish bo'lishi va shilliq to'planishi bilan xarakterlanadi. BA bir qancha davrlarga ajratiladi: huruj oldi, huruj davri, hurujdan keyingi va huruj orasi davrlariga bo'linadi. BA kasalligini hurujlar orasidagi davrida dispanser kuzatuv UASh nazoratida bo'ladi. «Bronxial astma» tashxisi qo'yilganda yoki taxmin qilinganda allergolog ko'ruguay jo'natiladi. Allergolog xonasida teri sinamasi qo'yib tashxisga aniqlik kiritiladi. UASh allergolog tavsiyasi bilan nospestifik giposensibillashgan davo o'tkazadi. UASh va allergolog BA ning og'ir davrida har oyda kuzatuv o'tkazadi. Engil va o'rta og'ir shakllarida har 3 oyda, huruj orasi davrida—yiliga 2 marta; otorinolaringolog va stomatolog — yiliga 2 marta, allergolog — yiliga 2 marta, boshqa mutaxasislar - ko'rsatma asosida ko'rikdan o'tkazadilar. Har 3oyda umumiy qon va siyidik tahlili, yiliga 2 marta axlat tahlili lyambliyaga va gjija tuxumiga tekshiriladi, spirografiya yiliga 2 marta, rentgenologik tekshiruv -ko'rsatma bo'yicha o'tkaziladi. Pikfloumetriya bilan doimiy uy sharoitida monitoring kuzatuvi olib boriladi.

Engil, o'rta og'ir va og'ir hurujlar (glyukokortikoidlar bilan davolanganda), astmatik status holati gospitalizastiyaga ko'rsatma hisoblanadi. 5 yoshdan katta bolalarda bazis davo albatta pikfloumetr tekshiruvlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Engil va o'rta og'ir BA da kromoglikat natriy (intal) 1—2 ingalyastiya kuniga 3-4 marta, nedokromil natriy 2 ingalyastiya kuniga 2 marta 6-8 hafta mobaynida tayinlanadi. Antigistamin dori vositalari — ketotifen, loratadin (klaritin), zaditen asosan intestinal allergik simptomlar yoki teri shakli bilan birga kechganda beriladi. O'rta og'ir va og'ir shakllarida bu davo samarasiz kechsa glyukokortikoidlar: beklometazon (bekotid), ingakort tayinlanadi. Bu dori vositalari uzoq muddat qo'llaniladi (ba'zan 6 oy mobaynida). Bazis davo mukammal bo'lishi uchun peroral prolongirlangan bronxolitiklar (volmak, spiropen) buyuriladi. Medikamentoz davoga immunostimulyatorlar qo'shiladi (IRS-19, bronxomunal, bronxovakson, ribomunil).

Remissiya davrida sanator -kurort davo: BA engil va o'rta og'ir kechganda maktabga borish mumkin. Og'ir kechganda tuyda o'qitilishi va qo'shimcha dam olish kunlari belgilanadi. Imtihonlardan ozod qilish va bitiruv imtihonlari ehtiyojkorlik rejimida olib boriladi. Hurujdan so'ng 1oy jismoniy mashqlardan ozod qilinadi, keyinchalik doimiy tayyorlov guruhlarida shug'ullanish, og'ir kechganda - davolovchi fizkultura guruhlarida shug'ullanish belgilanadi. BA kasalligida

2 yilga nogironlik belgilanadi, gormonga qaram hollari 18 yoshgacha bo'ladi. Bemor bolalar bepul dori olishga haqlidirlar. BA davosini samaradorligini baholash: bemor umumiyl holatining yaxshilanishi; dinamikada yo'talni kamayishi; periferik qon tahlilini normallashuvi. Dispanser kuzatuv kattalar bo'limiga olingunicha davom ettiriladi. Sog'lomlashtirish guruhi III—V.

#### **Respirator allergozli bolalarning dispanser nazorati.**

Oxirgi paytlarda bolalar orasida mavsumiy allergiya ko'rinishida yuqori nafas a'zolarining respirator allergozli kasalliklari ko'p uchramoqda. Ko'pincha bu holatlarning paydo bo'lishi organizmning nasliy moyilligiga, oziq-ovqat mahsulotlaridan allergiyaga hamda tez-tez O'RI bilan kasallanishiga bog'liq bo'lmoqda. Kasallik mavsumiylikka, o'rmon va dalalarda qo'zg'alish xarakteriga ega. Rossiyaning janubiy regionlarida tabiatdagi allergen-ambroziya hisoblanib, u iyuldan to oktyabr oylarigacha gullaydi; avgust-sentyabr oylarida gullaydigan boshqa xil o'simliklarga (polin, lebede) nisbatan sensibilizastiya paydo bo'ladi. Bolalarning dispanser kuzatuvi UASH olib boradi. UASH tomonidan bolaning kuzatuvi quyidagicha olib boriladi: bir yoshgacha – 1 oyda bir marta, 2-4 yoshli bolalarda - 3 oyda bir marta, keyinchalik bir yilda 2 marta. Allergolog shifokor ko'rigi - 6 oyda 1 marta, o'rnatilmagan spektrli sensibilizastiyyada-3 oyda 1 marta, spestifik immunoterapiya jarayonida –har oyda 1 marta o'tkaziladi. Stomatolog va

otorinolaringolog ko'rigi esa yiliga 2 marta tashkil etiladi. Zarur hollarda dermatolog hamda gastroenterolog konsultasiyasi olib boriladi. Qon va peshob tahlili interkurrent kasalliklaridan so'ng yiliga 2 marta o'tkazilib, o'rnatilmagan spektrli sensibilizastiyada esa allergik tekshiruvlar har yili olib borilishi tavsiya etiladi. Davolash-sog'lomlashtirish tadbirdari individual reabilitasiya tuzilmasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan (gipoallergenli parhez, chiniqtirish, davolovchi fizkultura, profilaktik emlashlarga individual yondashish). Retsidivga qarshi davo aerozolterapiya, fizioterapiya hamda davolash fizkulturasi muolajalarini o'z ichiga oladi. Interkurrent kasalliklarini davolashda penitsillin va penitsillin guruhi gina mansub antibiotiklar, sulfanilamidlar, astetilsalistil kislotalar, B vitamin guruhi, aloe preparati va boshqa biologik faol preparatlar tavsiya etilmaydi. Klinik allergozli bolalar dispanserizastiyasi kattalar poliklinikasiga o'tkazgunga qadar olib boriladi.

Yuqori nafas a'zolari kasalliklari bilan kasallangan bolalarning kasbiy faoliyati. Nafas a'zolari cassalliklari bilan kasallangan o'smirlar hayotida kasb tanlash ma'suliyatli pog'ona hisoblanadi. Shifokor bemor o'smirlarga kasb tanlashda tavsiyalar berishida asosiy kasallikning kechishi, kasallikning qo'zg'alishiga olib keluvchi salbiy omillarni inobatga olishi zarurdir. Nafas a'zolari cassalliklari bilan kasallangan bemorlarga asab-ruhiy va jismoniy zo'riqishli, nojo'ya

metereologik omillarning ta'siri, ingalyastion va kontakt allergenlar (jun, mo'yna, dori-vositalari, ximikatlar, chang) bilan bog'liq kasblar qat'yan man etiladi. Antigenlardan tashqari nishon a'zolar epiteliysiga kasb bilan bog'liq mexanik va toksik moddalar (ingalyastion irritantlar, sement, lak va bo'yoqlar, organik eritmalar) ta'sirida kasallikning qo'zg'alishiga olib kelishi mumkin.

Cho'zilgan pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarga nojo'ya mikroiqlimli muhitga ega bo'lgan (yuqori harorat, namlik, havoning bosimi, haroratning pasayishi), changli, sezilarli jismoniy zo'riqish, nurlanishning barcha turlari mavjud (ionli, elektromagnitli nurlar va h.k) kasblar qat'yan man etiladi.

### **Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallangan bolalarning dispanser nazorati.**

Bolalar orasida kardiorevmatologik kasalliklarning tarqalishi yuqori darajadaligicha saqlanib qolmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki bolalar o'rtasidagi kardiorevmatologik kasalliklar ko'pincha nogironlikka olib keladi. Oxirgi yillar davomida bolalar o'rtasida yurak-qon tomir kasalliklar strukturasi sezilarli darajada o'zgargan. Revmatik isitma kasalligini tarqalishi kamaygan. Etakchi o'rirlarni yurak-tug'ma nuqsonlari egallagan, shuningdek norevmatik karditlar, yurak ritmlarining buzilishlari va distonik holatlar oshayotganligini kuzatish mumkin. Poliklinikalar sharoitida yurak qon-tomir

tizimi kasalliklari bilan kasallangan bolalarning dispanser nazoratini UASH hamda kardiorevmatolog shifokor olib boradi. Mahalla shifokori yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini birlamchi profilaktikasi bilan shug'ullanadi va asosiy e'tiborini bola organizmining kasallikka qarshi kuchini oshirishga qaratilgan tadbirlarga qaratadi. UASH xavf guruhiba kiruvchi bolalar orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini erta aniqlashda katta ishlar olib boradi.

Shifokor –kardiorevmatolog bemor bolalarda quyidagi ikkilamchi profilaktika tadbirlarini olib borish bilan shug'ullanadi:

- kasallikning qaytalanishini va asoratini oldini olish;
- metodik-tashkiliy qo'llanmalar bilan dispanserizatsiyani ta'minlash;
- tibbiyot xodimlarining bilim saviyasini oshirish;
- aholi orasida ommaviy-targ'ibot ishlarini olib borish;
- konsultativ yordamni tashkil etish;

#### **Dispanser nazoratiga kiruvchilar:**

- faol va nofaol shaklli revmatik isitma bilan kasallangan bemorlar;
- surunkali infeksiya o'choqlari mavjud hamda yurakda o'zgarishlari bo'lган bolalar (revmatik isitma kasalligiga xavf tug'diruvchi);
- miokarditi bor bemorlar;
- vegetativ qon-tomir distoniysi bor bolalar (VSD);

-tug'ma yurak-qon tomir nuqsonlari bor bolalar; -kollagenoz kasallikkleri bor bolalar.

#### **Tug'ma yurak nuqsonlari bor bolalarni dispanser nazorati.**

Magistral qon-tomirlar va tug'ma yurak nuqsonlarining klinik belgilari turlicha. Tug'ma yurak nuqsonlarining kechish fazalari:

1-Faza -birlamchi adaptastiya bola hayotining birinchi oylarida organizmda boshqacha qon aylanishga moslashish kuzatiladi.

2-Faza- nisbatan kompensastiya.

3-Faza- terminal, qaytmas o'zgarishlar kuzatiladi.

Tomirlar va tug'ma yurak nuqsonlari bor bolalarni kardiolog nazorat qiladi. Tug'ma yurak nuqsonlarini sindromlariga, anatomik turlari va kechish fazalariga qarab dispanser nazorati belgilanadi.

Birinchi fazada gemodinamik buzilishlarsiz tug'ma yurak nuqsonli bolalarni UASH 1 yilda 2 marta ko'radi; statsionar davodan keyin -6 oy davomida har oy, keyin 1 yilgacha 2 oyda 1 marta ko'radi. Bola hayotining birinchi yilida adaptastiya fazasining og'ir kechishida har oy, engil kechishida har 3 oyda ko'rib boriladi.

Ikkinci fazada bolalar yiliga ikki marta ko'riladi. Kardiorevmatolog bolani 1 yilda 2-4 marta ko'radi, og'ir kechganda («ko'k» nuqson turida, o'pka gipertenziyasida va b.) 1-2 oyda 1 marta ko'radi.

Stomatolog va otoloringolog maslahati 1 yilda 2 marta, boshqa mutaxassislar ko'rsatma bo'lganda ko'radi. Tashxis qo'yilgach va ko'rsatmaga ko'ra kardioxirurg maslahati buyuriladi. Operasiya qilingan bolalar 1-yili 2-3 oyda 1 marta, keyin 1yilda 1-2 marta

ko'riladi. «Quruq» yurak operastiyasini o'tkazgan bolalarmi o'tkir osti bakterial endokardit rivojlanishi xafvini baholash uchun bir yil kuzatib boriladi. Dekompensastiya simptomlarida, gipoksemik krizning og'ir kechishida, asorat rivojlanishida, interkurrent kasalliklarda tug'ma yurak nuqsonini tashxislashda gospitalizastiya qilish maqsadlidir. Tug'ma yurak nuqsoni operastiyasi o'tkazilgach 6 oydan keyin surunkali infekstiya o'choqlari sanastiyasi o'tkaziladi. Dekompensastiya simptomi, «ko'k» nuqsonning 3 fazasi, bolalar gemorragik diatezi, MNS zararlanishi sanatsiyaga qarshi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi.

**Tug'ma yurak nuqsoni bor bolalar reabilitasiyasining asosiy vazifalaridan biri –yurak etishmovchiligining kompensastiyasidir.** Uyda va ko'chada toza havo muhim ahamiyatga ega. Harorat 18-20 Sda saqlanib vaqtiga bilan shamollatib turilishi kerak. Bolaning umumiy ahvoli, kasallikning xarakteri va kompensastiya turiga qarab boshqa bolalar bilan turli harakatli o'yinlarni o'ynash buyuriladi. Kasal bolalarning harakat aktivligi cheklangan bo'ladi. Gemodinamika buzilishisiz tug'ma yurak nuqsoni bor bolalar bog'chada maxsus bolalar guruhlarida, maktabda tayyorlov guruhlarida jismoniy mashq bilan shug'ullanadilar. Gemodinamika buzilishida davolash jismoniy mashqning maxsus guruhi belgilanadi. Yurak operastiyasi o'tkazilgach 2 yil jismoniy mashqdan ozod qilinadi. Yurak yoki o'pka etishmovchiligidagi doimiy jismoniy tarbiyadan ozod qilinadi.

Kardiotrop preparatlar (inozin - riboksin, kokarboksilaza, kaliy orotat, glutamin kislota, vitaminlar) bilan yiliga 2 marta (bahor va kuzda) davolash kurslari o'tkaziladi. Gipoksemik huruj rivojlanganda kislorod beriladi, sedativ preparatlar (prometazin-pipolfen, difengidramin - dimedrol, trimeperidin - promedol) piketamid buyuriladi. Zarur holatlarda (ko'rsatmaga ko'ra) yurak glikozidlari buyuriladi. Dispanser nazorat va reabilitasiya muhim hisoblanib kardioxirurg bilan operativ davo muddati belgilanadi va kasallikning 2 -bosqichida amalga oshiriladi. Bolani kattalar poliklinikasiga o'tkazishdan oldin dispanser nazorati shart.

**Kollagenozlar (biriktiruvchi to'qima kasalliklari) da dispanser nazorati.** Kollagenozlar - autoimmun va immunopatalogik jarayon bo'lib, progressiyalanuvchi va restidivlanuvchi biriktiruvchi to'qimaning tizimli zararlanishi bilan ifodalanadi. Biriktiruvchi to'qimaning tizimli zararlanishiga YuRA, SKV, dermatomiozit, sklerodermiya va tugunchali periarteriit kiradi. Kollagenozli bolalarni dispanser nazorati kasallik qaytalanishini oldini olishni, a'zo va sistemalarda funkstional buzilishlarning kamayishini ta'minlaydi. UASH va kardiorevmatolog ko'rigi o'tkir davrida 1-chi 3 oy har oyda, keyin har 3 oyda, otolaringolog, oftalmolog va stomatolog 1 yilda 2 marta, xirurg- ortoped bo'g'implarda kuchli funkstional o'zgarishlar bo'lganda va boshqa mutaxassislar ko'rsatmaga ko'ra ko'radilar. Interkurrent kasalliklardan keyin ichki organlar UZI si va 3 oyda 1 marta klinik qon tahlili, EKG, bo'g'implar rentgenografiyasi 1

yilda 2 marta, qon bioximik tekshiruvi ko'rsatmaga binoan o'tkaziladi. Retsidivga qarshi tadbirlar uzoq muddatli bo'lib (oylar, yillar) maxsus shifoxona sharoitida o'tkaziladi. Immunosupressiv preparatlari (stiklosporin, metotreksat) NYaQP guruhiga (diklofenak, voltaren, ibuprofen) yoki peroral glyukokortikoidlari (qo'llab quvvatlovchi dozada 6 oydan kam bo'limgan muddatda) bilan 1 yil davomida klinik-laborator remissiya fonida 2 yildan kam bo'limgan muddatga belgilanadi. Ko'rsatmaga ko'ra antibiotiklar, gipotenziv dorilar, diuretiklar osteoporozning davosi va profilaktikasi uchun qo'llaniladi. Mahalliy davo uchun tez ta'sir qiluvchi (metilpredinzolon, metipred, depomedrol) va prolangirlangan (kenalog) glyukokortikoidlari, yallig'lanishga qarshi mazlar, applikasiyalar (indovazin, diklofenak, ibuprofen-dolgit krem) dimetilsul'foksid (dimeksid) bilan bo'g'im ichi in'ekstiyasi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi.

Bazis terapiya qabul qiluvchilarda interkurrent kasallik qo'shilganda poliklinika sharoitida qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda keng ta'sir doirali antibiotiklar buyuriladi. Bazis davo sifatida qo'llanilgan NYaQP lar dozasi 1,5 martaga ko'paytiriladi, tana harorati normallashgach 3-5 kundan keyin avvalgi dozaga qaytiladi. Asosiy kasallikning zo'rayish belgilari bo'limganda 7-10 kundan keyin NYaQP bekor qilinadi. NYaQP ning davo davomiyligi 2-3 hafta. NYaQP fonida tana harorati normallashgandan keyin gormonga tobeklik bo'lmasligi uchun oldingi dozaga qaytariladi. Asosiy kasallikning zo'rayish belgilari bo'limgan holda interkurrent kasallikni og'ir kechishida bola gospitalizasiya qilinadi.

ibzi Reabilitsion tadbirlari – massaj va davoli fizkul’tura doimiy, fizik faktorlar bo’g’imlar oziqlanishini yaxshilash uchun uzlusiz 3-4 haftadan 1 yilda 2-4 marta (parafin applikasiyasi, ozokerit massaj bilan birga, askorbin kislota bilan elektroforez, nikotin kislota, heparin, 5% li xlorli litiy, va boshqa antifibrinozli moddalar, lazerli terapiya, gidromassaj, mexanoterapiya, balneoterapiya ) o’tkaziladi. Uy sharoitida zararlangan bo’g’imlar uchun doimiy fizik mashg’ulotlar (velosiped, voleybol, chana, konki) o’tkaziladi. Fizkul’tura guruhlari- bo’g’imlarning funkstional zararlanish darajasiga qarab yuklamalar buyuriladi, tananing sovqotib qolishidan va yuklama oshib ketishidan chegaralanish kerak.

Dispanserizastiyaning effektivlik kriteriyalari:

- restidivlar bo’lmasligi;
- ichki organlar va bo’g’imlarda funkstional buzilishlar bo’lmasligi yoki kamayishi;
- surunkali infekstiya o’chog’ining bo’lmasligi;

Kattalar poliklinikasiga o’tishgacha bo’lgan davning dispanser nazorati. Sog’lomlik guruhi 3-4.

**Yurak-tomir kasalliklari bor bolalar proforientaciysi.** Bolalar proforientaciysi muammosi bilan mutaxassis shifokor, maxsus o’quv bo’limi mutaxassislari, UASh va poliklinika shifokorlari shug’ullanadi. Revmatik isitmaning klinik belgilarsiz nofaol fazasida mehnat jarayonlari, fizik zo’riqish, toksik moddalar, noxush meteorologik va mikroiqlim faktorlari qarshi ko’rsatma bo’lib

hisoblanadi. Bo'g'implarni surunkali kasalliklarida progressirlanish va zo'riqish kuzatiladi, unga qarshi ko'rsatmalar: noxush metio va mikroiqlim sharoitlari, toksik moddalar ta'siri, organizmning infitsrlanish xavfi, nisbiy jismoniy zo'riqish, uzoq vaqt tananing majburiy holatda bo'lishi, jarohatlangan bo'g'implardagi katta hajmli harakatlar, jarohatlanish xavfi, umumiy va mahalliy vibratsiyalar hisoblanadi. Biriktiruvchi to'qima displaziyasining yurak variantida maktab o'quvchilari proforienti : toza havoda, issiq cexlar va sovuq binolarda bo'lish fizik kuch talab qiluvchi mutaxassisliklari qarshi ko'rsatma hisoblanadi. Klapanlar, yurak mushaklari organik zararlanishida, qon aylanishning 1-2 bosqich buzilishi bilan yurak tug'ma nuqsonlarida, nisbatan fizik zo'riqish, kuchli asab-ruhiy zo'riqish, ko'p yurish, noxush meteo- va mikroiqlim omillar, chang va toksik moddalarning ta'siri, tananing majburiy holati qarshi ko'rsatma hisoblanadi. VSD da kuchli fizik zo'riqish, nisbatan nerv - ruhiy zo'riqish, noxush meteo- va mikroiqlim sharoiti, kuchli shovqin va vibrastiya, toksik moddalar qarshi ko'rsatma bo'la oladi.

#### **Gastroduodenit va surunkali gastriti bor bolalarni dispanser**

##### **nazorati.**

Gastroduodenit va surunkali gastritli bolalarning dispanserizastiya prinstplari yarali kasalliknikiga o'xshash. Hisobga olingach 1 yil ichida bemorlarni har 3 oyda, keyin 2 marta (kuz va bahorda) mahalla UASHi, 1 yilda 2 marta otoloringolog, boshqa mutaxassislar ko'rsatmaga binoan ko'radi.

Tekshirish usullari: 1 yilda 1 marta EFGDS, oshqozon ajralmasi tekshiruvi 1yilda 1 marta, axlat, siydiq, qon tahlili, koprogramma tekshiruvlari o'tkaziladi.

Restedivga qarshi davo 1 yilda 2 marta (bahor va kuzda) 2-3 hafta davomida, parhez, antastid moddalar yoki o'rin bosuvchi fermentoterapiya, vitaminlar, stimullovchi moddalar, mineral suvlari, fizioterapiya o'tkaziladi.

Oshqozon soki tarkibini hisobga olgan holda ovqatlanish rejimiga rioya qilish muhim (kislotali muhit oshganda stol № 1, kislotali muhit pasayganda stol № 2), mineral suvlarni 2 oygacha bemor 1 kg tana massasiga 3 ml dan hisoblab ichish kerak. Kislotali muhit oshganda mineral suv gazi chiqarilgan holda ovqatdan 60-70 minutdan keyin, kislotali muhit kamayganda ovqatdan 30-40 minut oldin ichiladi.

Davo kursi 1 yilda 2-3 marta. (Mirgorodskaya, Ijevskaya, Berezovskaya, Arzni, Essentuki, № 17 ). Diareyaga moyillik bo'lganda mineral suv iliq holda ichiladi.

Kislotali muhit pasayganda davolashdagi muhim komponentlar:

- o'rin bosuvchi davo: 1 yilda 2-3 marta 3-4 hafta davomida tabiiy oshqozon soki, betastid, astidin-pepsin, fermentlar- abomin, pepsidil, meksaza, panzinorm

- stimullovchi davo: 10 kun davomida pentoksil

- fizioterapevtik davo: 1 yilda 2 marta bahor va kuzda: xvoyalivanna(37-37,5 s) 10 muolaja, epigastral sohaga parafinli applikasiyalar, 2 hafta davomida 1 kunda 1 marta kislorodli kokteyllar.

**Kislotali muhit oshganda davolashdagi muhim komponentlar:**

- antastidli vositalar: 1 yilda 2 marta bahor va kuz oylarida 2-6 hafta davomida vikalin, almagel, vikair, alyuminiy fosfat- fosfalyugel, maaloks.
- fizioterapeutik davo: 10-12 muolaja epigastral sohaga induktotermiya, 10-15 muolaja Sherbak usulida galvanik yoqa, 1 yilda 1-2 marta 10 muolaja elka va epigastral sohaga parafinli applikasiya.

OIT ning bir necha bo'limlari shilliq qavatlarini eroziv zararlanishida yarali qon ketish, qiyin chandiqlanuvchi yaralar, giperastid holatlar kuzatiladi. Proton pompa ingibitorlari (omeprazol), sintetik prostaglandinlar (stitotek, enprostil, arboprostil), enkefalinlar (dalargin), karboangidraz ingibitorlari (astetazolamid-diakarb)ning noto'g'ri antisekretor xususiyati bor. Hozirgi davrda eradikastion davo 3 yoki 4 komponentli sxemani qo'llab o'tkaziladi.

Eradikastiya uchun tavsiya etiladigan davo sxemasi:

Dorilar kombinasiyasi	Sutkalik doza	Davo kursi davomiyligi hafta
Vismut trikaliya distitrat(denol)	60 mg dan 4 marta 250 mg dan 4 marta	2
Tetrastiklin Metronidazol	125 mg dan 4 marta	
Amoksistillin	250 mg dan 4 marta	
Metronidazol	125 mg dan 4 marta	2
Omeprazol	10 mg dan 2 marta	

Klaritromistin	250 mg dan 2 marta	
Metronidazol	125 mg dan 4 marta	
Omeprazol	10 mg dan 2 marta	1
Amoksistillin	250 mg dan 4 marta	
Metronidazol	125 mg dan 4 marta	2
Ranitidin	125 mg dan 2 marta	
Amoksistillin	250 mg dan 4 marta	2
Klaritromistin	250 mg dan 3 marta	
Omeprazol, Klaritrimistin	10 mg dan 2 marta 250 mg x 2 m	2
Omeprazol, Tetrastiklin	20 mg dan 2, 250 mg dan	
Metronidazol	3 marta	1
Vismut trikaliy distitrat(denol)	250 mg dan 3 marta 120 mg dan 2 marta	
Omeprazol Amoksistillin	20 mg dan 2, 250 mg dan	
Metronidazol	3 marta 250 mg dan 3	1
Vismut trikaliy distitrat(denol)	marta 120 mg dan 2 marta	

Zoffeld R.G.Z.F., 2011 y. ma'lumotlari.

Kompleks retsidiivga qarshi davoda OIT motorikasini regulyatorlari prokinetik moddalar (metoklopropamid-serukal, domperidon-motilium, stizaprid), endogen opioidlar (trimebutin), polipeptidlar (dalargin), antixolinergik birikmali yangi avlod preparatlar (riabol,

stizatropin).

giosstin butilbromid- buksopan) qo'llaniladi. Ferment preparatlardan Kreon 10000-pankreatin mikrosferasi qo'llaniladi.

Fizioterapeutik davoga ko'rsatma: astenovegetativ sindromda-1 yilda 2 marta 10 muolaja kun ora brom bilan elektroforez. Og'riqli sindromda 1 yilda 1-2 marta 10-15 muolaja parafinli va ozokeritli applikastiyalar, papaverin, kalstiy xlor, prokain (novokain) bilan epigastral sohaga elektroforez qilinadi. Tavsiya – mineral suvlar: 1 yilda 3 marta bahor-kuz-qish oylarida 30-40 kun gadsiz issiq holda (30-40 S) Essentuki 17,4, Smirnovskaya, Slavyanovskaya, Barjomi.

Sanator-kurort davo: EFGDS nazoratidan 6 oy o'tgach mahalliy kurortlardan Omonxona, Semashko hamda chet ellardagi Essentuki, Jeleznovodsk, Truskavest tavsiya etiladi.

Fizkul'turadan ozod qilish kasallik hurujidan keyin 6 oyga belgilanadi, keyin maxsus guruh yoki davolash fizkul'turasi belgilanadi. Kasallik hurujidan keyin 2 oyga maktab o'quvchilari oraliq imtihonlardan ozod qilinadi, haftada qo'chimcha 1 kun dam olish kuni tavsiya etiladi. Yarali kasallikni asoratli kechishida 6 oydan 2 yilgacha nogironlik beriladi. Kattalar poliklinikasiga o'tkazishdan oldin dispanser nazorati shart. 1 yil davomida fizkultura bilan shug'ullanmaydi keyin maxsus guruh va keyinchalik tayyorlov guruhlarida doimiy shug'ullanadi. Oxirgi hurujdan 3 yildan keyin dispanser hisobidan chiqariladi. Sog'lomlik guruhi 3 -5.

### **Enterokolit va surunkali kolitli bolalarni dispanser nazorati**

Surunkali yarasiz kolit- polietiologik kasallik bo'lib, yo'g'on ichakning funkstiyasi buzilishi va shilliq qavatni yallig'linish distrofik o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Asosiy simptomlar- qorinda og'riq, axlat buzilishi. Klinikasiga jarayonning lokalizastiyasi (total, chap tomonlama, o'ng tomonlama, sigmoidit) ta'sir ko'rsatadi. Mal'absorbsiya va mal'digestiya kasallikkleri (laktaza etishmovchiligi, mukovisstidoz, steliakiya, ovqat allergiyasi) bu guruhga kirishi mumkin.Umumiy vegetativ disfunksiya fonida ushbu kasallikning diagnostikasi hozirgi kunda kamaygan. Kasallik qo'zg'alish davridan keyin 1 - yil davomida 3 oyda 1 marta UASH, 12 oyda 1 marta gastroenterolog, 1 yilda 1 marta stomatolog va otoloringolog nazoratidan o'tkazish kerak. Kasallik qo'zigandan keyin 1yil davomida, keyinchalik 6 oyda 1 marta qon, siydiq, axlatda yashirin qonga, koprogramma, 6 oyda 1 marta gjija tuxumlariga tahlil o'tkaziladi. Ichakni rentgenologik tekshirushi va retoromanoskopiya tekshiruvlari ko'rsatmaga binoan o'tkaziladi.

Retsidivga qarshi davo 1 yilda 2 marta o'tkaziladi. Bemorlarga parhez № 4 stol buyuriladi. Ichakda so'rilihning buzilishi kasallikkarda muhim ahamiyatga ega. Bunday holatlarda eliminastion parhez qo'llanilishi muhim hisoblanadi.

Fermentoterapiya pankreatik fermentlarni o'z ichiga oladi (pankreatin- panstitrat, mezim forte, triferment, pangrol, prolipaza, pankurmen, neonampur) kombinirlangan preparatlar (digestal, kadistal, festal, kotazim-forte, panstal, rustal, enzistal).

Kombinirlangan fermentlar kombistin, panzinorm-forte, pankreoflet. O'rın bosuvchi davo mukovisstidozda mikrokapsullangan preparatlar panstitrat, kreon 10000 ME, laktaza etishmovchiligidə- laktaza preparatlari tilaktaza, kerulak, laktaid, maksilak. Kompleks davoda har xil enterosorbentlar qo'llanilishi mumkin: uglerodli (vaulen, aktivlangan ko'mir-mikrosorb-p) tabiiy tarkibli(smektit dioktaedrik-smekta, kaolin, attapulgit, tannokomp) va ximik tarkibli (xolestiramin, polimetilsilosana poligidrat- enterosgel). Enterosorbent immunomodulyatorlar bilan effektivlidir- viferanom, kompleks polivalentli immunoglobulin bilan. Ichak mikrobiostenizi buzilishi fonida kechganda probiotiklar-bifiform, baktisubtil, astipol, bastillyus subtilis, bakteporip, laktobakterin, astidofilli- astilakt, biosporin, flonivin BS. Diareyaga moyillik bo'lganda 1 yilda 2-3 marta 1 oy davomida mineral suvlar Essentuki №4, Berezovskaya, qabziyatga moyillik bo'lganda- Essentuki № 17, Stalinskaya. Meteorizmda romashka qaynatmasi, yalpiz, fenxel, tmin buyuriladi. Ich ketganda chernika, olxovie shishki, kornevisha aira, anor po'stlog'i qaynatmaları tavsiya etiladi. Fizioterapevtik davo: qorin sohasiga parafinli (45-50 S) yoki ozokeritli applikastiyalar 20- 30 min davomida 8-10 muolaja, 10 muolaja Vermel usulida va vitamin S bilan elektroforez, qorin sohasiga prokain kun ora 15 muolaja, platifillin, kalstiy bilan elektroforez buyuriladi. Remissiya fazasida balchiq, subakval vannalar, ichaklarni yuvish buyuriladi. Spastik og'riqda drotaverin (no-shpa), papaverin, belloid, giosstin butilbromid (buskopan), platifillin, benstiklan (galidor) buyuriladi.

Sanator -kurort davo (Essentuki, Jeleznovodsk) kasallik qo'zg'algandan 6 oydan keyin tavsiya etiladi.

Fizkultura bilan shug'ullanish 6 oy davomida maxsus guruhda, keyinchalik 2 yilgacha tayyorlov guruhida bo'ladi. Dispanser nazorati oxirgi zo'riqishdan 5 yil keyin o'tkaziladi. Sog'lomlik guruhi 3-4.

#### **O't yullari diskineziyasi bor bolalarning dispanser nazorati:**

Klinik simptomlari: dispeptik, astenovegetativ, og'riq. OIT a'zolarining kasalliklari, nerv-gumoral tizim regulyastiyasining buzilishi, allergiya, o't qopni anomaliyalari –diskineziyaga sabab bo'lib xizmat qiladi. Kasallik zo'rayganidan keyin 1 yil mobaynida UASH nazorati 3 oyda 1 marta, keyingi yillar 6 oyda 1 marta, otołaringolog va stomatolog 1 yilda 2 marta, boshqa mutaxassislar ko'rsatmaga ko'ra nazorat qilishadi. Kasallik zo'rayganda gastroenterolog 1 yilda 2 marta keyinchalik 1 yilda 1 marta tavsiya beradi.

Tekshiruvlar: Kasallik zo'rayganda birinchi yili 2 marta, keyinchalik 1yilda 1 marta jigar va o't yullarining, o't qopining funkstiyasini aniqlash maqsadida UZI (yoki xolestistografiya). Duodenal zondlash 1chi yil 1 yilda 2 marta keyin 1 yilda 1 marta, qon, siydik, axlatni gjija (lyamqliya ) tahlili, koprogramma 1yilda 2 marta, jigar funkstiyasi bioximik tekshiruvi (bilirubin, xolesterin, transaminaza aktivligi, ishqoriy fosfataza 1 yilda 1 marta tekshiriladi).

Kasallik zo'raygandan keyin 6 oy davomida 10-14 kundan har oyda, keyinchalik 1 yilda 2 marta (bahor va kuzda) 3-4 hafta davomida retsidiqga qarshi davo o'tkaziladi. Kasallik zo'raygandan

ceyin 1-2 yil davomida parhez № 5 buyuriladi. O't haydovchi vositalar bilan davolash kasalxonadan javob berilgach 6 oy davomida 10 kun, keyinchalik 1 yilda 2 marta (bahor va kuzda) davolanadi. Diskineziyada xolelitiklar xolagon, dexolin, makkajo'xori popugi, colenzim, gidroksimetilnikotinamid-nikodin, osalmid-oksafenamid va o.) xolestistokinetiklar zaytun va kungaboqar yog'i, sorbitol, ksilit, vitaminli choy –shipovnik, tuxum sarig'i, barbaris, flavin, xolosas, nagniy sulfat buyuriladi. Kasallik zo'rayganda 6- 12 oy davomida 1 haftada 1 marta bemorlarga tyubaj – gipotonik shaklida Essentuki № 17, djermuk, Arzpi, sabzi soki bilan qilinadi. Gipertonik shaklida shqorli mineral suvlar Smirnovskaya, Slavyanovskaya, makkajo'xori popugi qaynatmasi bilan qilinadi. Vitaminoterapiya kursi 1 yilda 2 narta 3 hafta davomida (tiamin, riboflavin, askorbin kislota) buyuriladi.

**Endokrin kasalliklari bor bolalarning dispanser nazorati**  
Giperglykemiya sindromli bolalarda dispanser nazorati poliklinika sharoitida olib boriladi. Gipoglykemik holatning asosiy sababi- qandli diabetda uglevodlar almashinuvining buzilishi hisoblanadi. Asosiy simptom – tashnalik fonidagi poliuriya. Tashnalikdan tashqari bolalarda doimo ochlik hissi bo'ladi. Tipik triada: polidipsiya, polifagiya, poliuriya. Kasallikda irsiy moyillik 50 % ni tashkil etadi. O'tkir, yondosh kasalliklar, psixik jarohatlanish, yog' va uglevodlarni haddan tashqari iste'mol qilish kasallikni kuchaytirishi mumkin. Diabet fonidagi infekstion jarayonlar og'ir

kechadi. Diabet kasalligining asosida –insulin etishmovchiligi yotadi. Birlamchi va ikkilamchi turlari bor. Birlamchi - oshqozon osti bezi insulyar apparatining funkstional yoki organik zararlanishi. Ikkilamchi -autoimmun, insulinaza aktivligi oshganda, adrenokortikotrop gormoni ko'p hosil bo'lganda. Insulin etishmovchiligidagi glyukoza almashinuvining buzilishi - glyukozaning hujayra membranasiga o'tish xususiyatini buzilishi va geksokinaza fermenti bilan birikishi, a'zolar hujayralarida glyukozaga aylanishi muhim ahamiyatga ega. Glyukozaning miqdori avval qonda (giperglikemiya) keyin siydkda (glyukozuriya) oshadi. Uglevoda almashinuvi buzilganda yog'lar almashinuvi ham buzilib keton tanachalari ko'p miqdorda chiqarilib (ketoz) giperglikemik komaga olib keladi. Diabet kasalligini diagnostikasi - glyukozaga tolerantlikning standart sinamasi (qand egriligi) nahorda glikemiya miqdori ( $6,7$  mmol/l) peshobda glyukoza bo'limgan holatda aniqlanadi. Bolalarda qand egriligi: glyukoza berilgach egrilik normadan oshadi,  $2, 4, 5$  soatdan keyin ham normaga qaytmaydi. Manifestli diabetning klassik simptomlarida qonning istalgan porstiyasida glyukozuriya  $2\%$  dan yuqori bo'lganda va giperglikemiya  $11,1$  mmol/l dan yuqori bo'lganda aniqlanadi. Gematokrit soni, gemoglobin miqdori, zardobdag'i natriy va kaliy ionlarining miqdori ham tekshiriladi.

Diabet kasalligining asoratlariga quyidagilar kiradi:

lipidlar almashinuvini buzilishi oqibatida jigarning yog'li distrofiyasi

- diabetik makrodiopatiya, diabetik nefropatiya, retinopatiya
- diabetik enstefalopatiya, enteropatiya, polineyropatiya.

Davo: Insulin preparatlari (qisqa, o'rta, uzoq ta'sirli) individual tanlanadi. Zamonaviy davolash usullari uy sharoitida doimiy nazorat, ota-onaning kasallik tog'risida ko'p ma'lumotga ega bo'lishini talab etadi. Shu maqsadda maxsus mакtablar tashkil etilgan. Insulinoterapiyaning effektivligi - tog'ri tashkil qilingan parhezga, uglevod, yog', oqsil miqdorining mutanosibligiga bog'liq. Cheklanadi: shakar, asal, konfetlar, banan, xurmo, kraxmal, ularning o'rniga klechatkali uglevodlar: kartoshka, sabzavotlar va mevalar tавсиya qilinadi. Hisob «non birligida» - 12,0 g, uglevod (1NB) eyilganda 1,3 ED insulin qilinishi kerak. Agar bemor davolanmasa diabetik ketoastidozli koma rivojlanadi. Gipoglikemianing davosi kasallikni og'irlik darajasiga bog'liq. Engil darajada (bemor o'z-o'ziga yordam bera oladi) 2 NB (shakar, non). 1 NB qonda qand miqdorini 1,5 mmol/l ga oshiradi. O'rta og'ir darajada bemor hushida bo'lib gipoglikemik holatdan o'zi chiqsa olmaydi. Taktika analogik.

Bemorni UASH va endokrinolog 1 oyda 1 marta; okulist, nevropatolog, stomatolog 1 yilda 2 marta; otolaringolog 1 yilda 1 marta; ginekolog va ftiziatr ko'rsatmaga binoan tekshiradi. Birinchi marta kasal bo'lgan bemorlar 15-20 kishidan iborat guruh «diabet mакtabida» o'qiydi, keyinchalik har yili 2 kishidan o'qitiladi. Dispanserizastiyada nazorat kundaligi tutilishi kerak. Kundalikka

qarab glikemiya tahlili o'tkaziladi. Kasallik asoratini (mikroangiopatiya, neyropatiya) erta aniqlash juda muhim. Tekshiruvlar: qon va peshobda glyukoza va asteton miqdori, lipidogramma, proteinogramma, mikroalbumin 3 oyda 1 marta, har 3 oyda ko'z o'tkirligi, 6 oyda 1 marta EKG, reovazografiya, reoenstefalografiya, transaminaza aktivligi, umumiy qon va peshob tahlili (har 6 moyda 1 marta takrorlanishi shart), ko'krak qafasi a'zolari rentgenografiyasi 1 yilda 1 marta aniqlanadi. Kompensastiya bosqichida sanator - kurort davo beriladi. Dispanser hisobidan chiqarilmaydi.

#### **Gipotireozda dispanser nazorat.**

Gipoterioz – tireoid gormonning kam ishlab chiqilishi yoki to'qimalarda ularga nisbatan sezuvchanlikning yo'qligi bilan xarakterlanadigan klinik sindrom. Qalqonsimon bezning zararlanishi oqibatida – birlamchi gipotireoz, gipofizdagi o'zgarish natijasida – ikkilamchi gipotireoz, gipotalamusda zararlanish bo'lganda – uchlamchi gipotireoz rivojlanishi mumkin. Gipotireoz tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Chaqaloqlik davrida sariqlik, anemiya, enstefalopatiya, gidrostefaliya, sepsis, homila ichi infeksiyasi kasalliklari bilan birga kelishi mumkin. Tug'ma gipotireoz qalqonsimon bezdagi nuqson natijasida, gormon sintezining determinastiyalashgan genetik gipo- yoki aplaziyasi hamda tireotrop gormonning T -receptorini nasliy defekti natijasida kelib chiqadi. Patologik jarayonda fermentativ tizimda tireoid gormoni sintezining defekti bo'lib, yod moddasini qabul qilinishi buziladi va

disgarmonogenezga olib keladi. Tug'ma gipotireozning barcha shakllarida homilada tireoid gormonining etishmovchiligi miya differenstirovkasini buzilishiga, neyronlar sonining kamayishiga, nerv hujayralarida mielinizastiyani buzilishiga olib keladi. Agar bu o'zgarishlar kuzatilganda 4-6 haftaligidan davo boshlanmasa qaytmas jarayon rivojlanadi. Emadigan bolalar sutini tarkibidagi tireoid gormonining miqdori kasallik kompensastiyasi uchun etarli emas. Bolalar katta tug'iladi, uyquchan, kam emostional, nafas olishni buzilishi (apnoe), mekoniyni kech chiqishi, kindikni kech tushishi, qabziyat, qorin dam bo'lishi, mushak gipotoniyasi kuzatiladi.

Chaqaloqlik davrining 3-4 oylarida gipotireozning to'liq klinikasi - tana vazni va o'sishdan ortda qolish, ko'z yorig'ini torligi, keng, qo'pol burun, yonoqlar shishligi, tilning katta bo'lishi, qo'pol ovoz aniqlanadi. Psixomotor rivojlanishdan orqada qolish, tishlarning kech chiqishi, terining sovuq va quruqligi, qorin dam bo'lishi, qabziyat, kindik churralari, yurak chegaralarining kengayishi, yurak tonlari bo'g'iqligi, bradikardiya, QB pasayishi, sistolik shovqin, stridorli nafas rivojlanadi.

Gipotireozni erta aniqlash muhim. Hayotining 3-5 kunida skrining tekshirushi o'tkazish mumkin. Bunda filtrlangan qog'ozda kapillyar qondagi eritrostitlarda tireotrop gormoni aniqlanadi. Skrining bo'limganda simptomlardan 2 tasi uchragan chaqaloqlarda chuqr tekshiruv o'tkaziladi. Tashxis quyidagi holatlarda: giperxolesterinemiya, giperlipidemiya, EKG da QRS voltajini

pasayishi, bradikardiya, suyaklanish tempining sekinlashishi, normoxrom anemiyada tasdiqlanishi mumkin.

Davosi: tiroksinli o'r'in bosuvchi terapiya, qo'chimcha vitamin A, B, neyrotrofiklar (pirastetam, serebrolizin, pantogam). Davo tireotrop gormon miqdorini nazorati bilan uzoq muddatli bo'ladi. Dispanserizastiya 2 etapda UASH va endokrinolog shifokorlar tomonidan o'tkaziladi.

### BOLALARDA PARHEZ DAVO.

**Bolalarda ovqat hazm qila olmaslik.** Ovqat hazm qila olmaslik - bolalarda ovqat va uning tarkibiy qismlariga nisbatan kelib chiqadigan va aniq klinik simptomlar bilan namoyon bo'ladigan patologik jarayondir. Hozirgi davrda ovqat hazm qilolmaslik tasnif bo'yicha ikkita katta guruhga bo'linadi: immunologik va noimmunologik reakstiyalar (ovqatga nisbatan idiosinkriziya). Immunopatologik reakstiyalar asosida IGE- yoki IgG ga-bog'liq giperreakstiyalar yotadi. Bularga ko'proq ovqat allergiyasi kiradi. Immunopatologik reakstiyalar bilan kechuvchi kasallikkarga steliakiya kiradi. Ovqat hazm qilolmaslikning noimmunologik shakllariga fermentopatiyalar (intestinal, pankreatik) va ovqatga nospestifik reakstiyalar kiradi. Ikkala holda ham ovqatga nisbatan spesifik antitelolar paydo bo'lmaydi, lekin ba'zi hollarda psevdoolergiya rivojlanishi mumkin. Nospestifik reakstiyalar bolalarning sun'iy ovqatlari tarkibiga kiradigan konservantlar hisobiga paydo bo'lib, ularning hazm traktida so'rilishi hisobiga

rivojlanadi va toksik simptomlarni keltirib chiqaradi. Ko'pgina hollarda bular astetil kislota, tartrazin, glyutamatlar, metabisul'fitlar, fungistidlar, nitratlar, metasu'fatlar, stiklomatlar, saxarin pestistidlar, bakteriya va viruslarning emirilishi oqibatida paydo bo'ladigan toksik moddalar bo'lishi mumkin. Tug'ma va orttirilgan fermentopatiyalar asosiy ovqat nutrientlarning gidrolizini buzadi va defistit holatlarning kelib chiqishiga va mal'absorbsiya sindromining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ko'pgina bolalarda uchraydigan ovqat allergiyasi ham ichak shilliq qavatining o'zgarishi tufayli mal'absorbsiya kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bolalarda ovqat hazm qilolmaslikning asosiy klinik ko'rinishlari

1-Uzoq muddatli diareya, ichak disfunksiyasi, quşishlar, meteorizm, ovqatlanishdan keyingi bezovtaliklar (3 haftadan ortiq).

2-Oziqlanishning buzilishi (ozib ketish, bo'y o'smasligi).

Defitsit holatlari :

-temir tanqislik va oqsil tanqislik anemiyalari ;

-gipoproteinemiya ;

-fosfor-kal'stiy almashuvini buzilishi (osteoporoz, suyaklar o'smasligi,

-gipokal'stiemik talvasalar, suyaklar sinishi);

-gipovitaminozlar.

-allergiyaning teri shakllari.

Ovqat hazm qilolmaslikning har xil shakllarida simptomlarning kombinastiyalari kuzatilishi mumkin va bu simptomlar mal'absorbsiya sindromida ham namoyon bo'ladi. Orttirilgan

fermentopatiyalarning ba'zi shakllarida (postinfekstion tranzitor disaxaridaz etishmovchilik) ovqat ko'tara olmaslik monosimptom holida kechishi mumkin, bunda klinik va laborator belgilar oziqlantirish korrekstiyasi tufayli tez bartaraf etiladi.

Oziq-ovqatlarni ko'tara olmaslik holatida diagnostik tekshiruvlar :

-Immunologik : Zardob antitelosini aniqlash; taxmin qilingan ovqat antigeniga Ig E sinfi (radioallergosorbenttest, immunofermentusul); G, A, M sinflari (immunoferment usul, immunobloting); antiretikulin antitelo, endomiziumga antitelo, odam ingichka ichagiga antitelo; taxmin qilinayotgan allergenga teri sinamalari; ovqat antigeniga hujayra reakstiyalari (passiv gemaglyutinastiya, bazofillar degranulyastiyasi, leykostitlar stimulyastiyasi va boshqalar), ichak shilliq qavati bioptatining immunologik tekshiruvi (hujayralararo limfostitlar sonini aniqlash).

-Morfologik usullar: Me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruvi; me'da, o'n ikki barmoqli ichak, ingichka va yo'g'on ichak shilliq qavati bioptatini histologik va morfometrik tekshiruvi.

-Biokimiyoviy usul: Ichakda so'rilib funkstiyasi va ichak bar'eri o'tkazuvchanligini baholash; D-ksiloza, mannit/stellobioza, L-ramnoza, polietilenglikol, etilendiamintetrasirka kislota bilan sinama; ovqat oqsillari bilan sinama : ona suti a-laktoalbumini, albumin, qoramol zardob albumin; plazma oqsillarining fekal ekskrestiyasini aniqlash;

-Ichakda o'zlashtirishni baholash: Yog'lar (koprologik tekshiruv, balansli metod); uglevodlar (di- va monosaxaridlar bilan yuklama

sinamalar); axlatdagi uglevodlar va chirish mahsulotlari ekskrestiyasi va ularni aniqlash; nafas chiqargan havodagi vodorodni aniqlash; ingichka ichak shilliq qavati bioptati shilliplardan yuvilgan yuvindisida bo'shliq va devoriy hazmda ishtirok etuvchi fermentlar faolligini aniqlash.

-Kliniko-dietologik usul: "dietodiagnostika" usuli; ikki martali nazorat platseboterapiya usuli.

Klinik amaliyotga laborator usullarning kirib kelishi oziq-ovqat ko'tara olmaslikni boshqa shakllarini va mal'absorbsiya sindromini qiyosiy tashxislashga imkon beradi.

#### **Uglevodlarni ko'tara olmaslikda dietoterapiya**

Ko'krak yoshidagi va erta yoshdagи bolalarni oziqlanishida uglevodlarning roli katta, rastiondagi ularning ulushi 50% ni tashkil qiladi. Ko'krak yoshida ona suti yoki u bo'limganda uning o'rinosarlari asosiy rol o'ynaydi. Ona suti va zamonaviy adaptirlangan aralashmalar tarkibida asosan disaxaridlar, ulardan laktoza bola organizmining nutritiv ta'minlanishida asosiy rol o'ynaydi. Laktozaning fiziologik qiymati – ichakda gramm musbat anaerob mikroflorani (bifidobakteriyalar, laktobastillalar, bakteroidlar va boshqalar) proliferasiyasini stimullaydi, vitaminlar sintezi va kal'stiy, magniy, marganestlarning so'rilishini tezlashtiradi, erta yoshdagи bolalarda ichak peristaltikasida muhim rol o'ynaydi.

Yo'g'on ichakda laktoza parchalanishidan hosil bo'lgan sut kislota PH

ini pasaytiradi, buning oqibatida patogen mikrofloraning rivojlanishi kamayadi.

### **Laktaza etishmovchiligi**

Laktozani ko'tara olmaslik (laktaza etishmovchiligi, laktozalni mal'absorbsiya) – intestinal enzimopatiyalarning keng tarqalgan turlaridan bo'lib, ichak laktazasi faolligining nasliy, tug'ma yoki orttirilgan susayishi bilan tushuntiriladi. Uning sintezini kodlovchi gen 2 -xromosomada joylashgan. Laktozani parchalash xususiyati autosom-dominant tipda yuqori penentrantlikda, maldigestiya esa autosom- restessiv tipda irsiylanadi. Zamonaviy tasnifga ko'ra lakoza ko'tara olmaslikni to'rt turi farqlanadi:

1. Birlamchi erta (chaqaloqlarga oid tip) genetik tushuntiriladigan alaktaziya, tug'ilishi bilanoq profuz diareya, qayt qilish, tez rivojlanuvchi suvsizlanish bilan namoyon bo'ladi.
2. Birlamchi kechki (kattalar tipi) – lakoza ko'tara olmaslikni genetik determinirlangan shakli, 4-5 yoshlarda paydo bo'ladi (lakoza ko'tara olmaslikni kattalar tipi). Rossiyada sut mahsulotlari etarlicha keng tarqaganligi sababli bu shakli nisbatan ko'p uchraydi va aholining 10% dan 75% gacha bo'lgan qismida uchraydi (o'rtacha 20%).
3. Ikkilamchi neonatal gipogalaktaziya (funkstional, tranzitor) tranzitor holat bo'lib, bunda perinatal davrning patologik kechishi oqibatida chaqaloqlarda (ko'proq chala tug'ilgan va kam vaznlilarda) lakozani o'zlashtirish qobiliyati pasayadi. Homiladorlikning 3-trimestrida laktaza aktivligi intensiv ortadi, turli xavf omillari uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun chala tug'ilgan

va yaxshi rivojlanmagan bolalarda laktozaga tolerantlikning susayishi kuzatiladi va ular hayotining birinchi kunlaridanoq ovqatlantirishda korrekstiyaga muhtoj bo'ladilar.

4. Ikkilamchi gipogalaktaziya – kasallik ichakning birlamchi shikastlanishi oqibatida yuzaga keladi. Asosiy va eng ko'p tarqalgan sabablaridan biri – o'tkir ichak infeksiyalari (birinchi o'rinda virusli diareya, asosan rotavirusli infeksiya), ichak kasallikkleri (steliakiya, tug'ma rivojlanish nuqsonlari, Kron kasalligi, NYaK), ovqat ko'tara olmaslikning boshqa shakllari, asosan sigir suti oqsillarini ko'tara olmaslik, ichak parazitar kasallikkleri va boshqalardir.

Klinik ko'rinishi.

Kasallikning klinik ko'rinishi parchalanmagan laktozaning to'planishi va u bakterial bijg'ishni tezlatishi bilan bog'liq. Uglevodlar – osmotik faol birikmalar, shuning uchun axlat suyuq yoki kashasimon, ko'proq ko'pikli, suvsimon, achimsiq hidli, shilliq, ko'kat, hazm bo'lмаган qoldiqlar aralash bo'ladi. Bijg'ish oqibatida – ichakda disfunksiya simptomlari (meteorizm, ichak bo'ylab guldirash, ovqatlantirish jarayonida bezovtalik) kuzatiladi. Diareya va ichak disfunksiyasi 3 haftadan ko'proq davom etadi. Natijada ko'p bolalarda tana vaznining o'sish tempi sekinlashadi, uchtadan bitta bemorda esa gipotrofiya (2-3 darajada) rivojlanadi.

Diagnostika.

Laktoza maldigestiyasining 2 guruh laborator diagnostikasi farqlanadi: bevosita va bilvosita. Bevosita usulda ingichka ichak biopsiyasi keyinchalik enterostitlar kiprikli hoshiyasi – laktosasing

gistokimyoviy identifikasiyasi amalga oshiriladi. Bu usul ko'proq ishonchli hisoblanadi, bu usulni boshqa tekshiruvlar diagnostik ahamiyatini aniqlashda etalon sifatida qo'llaniladi. Biroq bu usul shilliq qavatning jarohatlanish ehtimoli borligi, VICH va HB bilan zararlanish xavfi yuqori bo'lganligi uchun bolalarda kam qo'llaniladi. Laktozotolerantlik testi gastroenterologiyada keng tarqalgan, usulning maqsadi peroral lakoza bilan 1-2g/kg dozada yuklama qilinganidan so'ng glikemianing o'sish darajasini aniqlashdan iborat. Noinvaziv usul bo'lgan nafas chiqarilgan havodagi vodorodni aniqlash usulini ham qo'llash mumkin. Bilvosita usullardan oddiy va ishonchlisi axlatda lakoza va uning gidroliz mahsulotlarini (glyukoza, galaktoza, organik kislotalar) aniqlash usuli. Uglevodlar fekal ekskrestiyasining bo'sag'a darajasi – axlatda 5g/l. uglevodlar miqdori ko'pligini aniqlashda Benedikt sinamasi, "Klinitest", "Kombitest" tabletkalari ishlataladi. Uglevodlar ko'plab bijg'ishini xarakterlaydigan laborator testlarda eng ishonchlisi axlatda sut kislotani aniqlash usulidir. Bolalardagi lakoza ko'tara olmaslikni diagnostik kriteriysi - sut kislota 44,4 mmol/l dan yuqoriligi.

#### Davolash.

Lakoza ko'tara olmaslikni davolashdan maqsad ichakka hazm bo'limgan uglevodlar tushishini kamaytirishga qaratilgan. Buning uchun bir qancha usullar mavjud. Lakoza preparatlari bilan o'rinosar terapiya (laktaid, tilaktaza, maksilak, laktaza, laktaza bebi). Preparat berilgach bir necha soatdan so'ng ona suti, sigir suti yoki adaptirlangan "fiziologik" aralashmadagi laktozaning ko'p qismi

parchalanadi, uning miqdori 8-10g/l ga tushadi, shundan so'ng bola monosaxarid qabul qiladi. Bu preparatlar amaliyotda kam qo'llaniladi, shuning uchun eliminastion dietaterapiyaga murojaat qilinadi. Rastiondan sut mahsulotlarini (sigir, echki suti, 1-2 kunlik yangi qatiq (laktoza miqdori 41-47g/l), adaptirlangan "fiziologik" aralashmalarni (laktoza miqdori 70-75g/l), qaymoq, tvorog, smetana) chiqarib tashlash lozim. 6 oylikkacha bo'lgan bolalarga adaptirlangan past laktozali yoki laktozasiz aralashmalar, 6 oylikdan so'ng past laktozali mahsulotlar (11-13 g/l laktoza saqlovchi 3-kunlik qatiq, zardobdan tozalangan tvorog, past laktozali sut) tavsiya etiladi. Bugungi kunda laktoza ko'tara olmaydigan bolalarda klinik va laborator simptomlarni bartaraf etish uchun turli-tuman davolovchi bolalar ovqatlari mavjud.

Bu aralashmalarda uglevod komponenti sifatida asosan dekstrin maltoza ishlataladi. Laktozaning har qanday o'rinxbosarining osmolyarligi past, shuning uchun osmotik diareya va suvsizlanish simptomlari kamayadi.

Ko'p hollarda laktoza ko'tara olmaslik gipogalaktaziya hisobiga yuzaga keladi, bu holda bola laktozaning bir qismini o'zlashtira oladi va bu bolaga rastiondan to'liq laktozani chiqarib tashlash tavsiya etilmaydi, shuning uchun past laktozali aralashmalarni qo'llash yoki aralash ovqatlantirishni saqlab qolish mumkin. Bir nechta sabablarga ko'ra rastiondag'i kam miqdordagi laktoza foydali hisoblanadi:

- Laktoza ichak mikroflorasi tarkibiga ijobiy ta'sir qiladi, yaqqol bifidogen faollikka ega va bola hayotining birinchi oylarida o'tkir ichak infeksiyasini rivojlanish xavfini kamaytiradi;
- Laktoza – galaktoza (monosaxarid, bosh miyadagi galaktoserebrozid sintezida va nerv to'qimasining mielinlashuv jarayonida ishtirok etadi) ning yagona manbai;
- Laktoza kal'stiy, magniy, marganest o'zlashtirilishini yaxshilaydi, raxit va anemiya rivojlanishiga to'sqinlik qiladi;
- Ichakda etarli miqdorda B guruh vitaminlari hosil bo'ladi.

Ratsionda ko'krak sutini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega, ayniqsa bola hayotining birinchi yarim yilda tabiiy ovqatlantirishni bordaniga sun'iy past laktozali yoki laktozasiz aralashmalar bilan almashtirmaslik kerak, asta-sekinlik bilan bola aralash ovqatlantirishga o'tiladi, aralashma miqdori faqatgina korrekstiya samaradorligi etarli bo'limgan holdagini ko'paytiriladi. Har bir bosqichdagi samaradorlik 3-5 kun dinamik klinik kuzatuv va laborator ma'lumotlarga asoslanib baholanadi. Klinik samara ishtaha va kayfiyatning yaxshilanishi, ovqatlangandan so'ng va kechqurun bezovtalikni kamayishi, axlat konsistenstiyasini yaxshilanishi va chastotasini kamayishi, undagi aralashmalar (shilliq, ko'kat) yo'qolishi, meteorizmni kamayishi, ovqatlantirish jarayonida qorinda guldurashni kamayishini o'z ichiga oladi.

Laborator dinamika dietoterapiyaning har bosqichida axlat bilan ajralayotgan uglevodlar va sut kislota miqdorini tahlil qiladi. Fekal ekskrestiyada uglevodlar (5g/l gacha ) va sut kislota (11,1

mmol/l gacha) miqdorining normallashganda va kasallikning klinik simptomlari bartaraf etilganda aralash ovqatlantirish davom ettiriladi.

Bolada sigir suti oqsillarini ko'tara olmaslik belgilari bo'lмаган hollarda adaptirlangan sutli aralashmalarni bergen afzalroq, ularning oqsil komponenti ona sutining tarkibiga maksimal darajada mos keladi.

Bemor 1yoshdan oshganda asta-sekinlik bilan ratsionda sut mahsulotlarini ko'paytirish mumkin! (boshida nordon sutli mahsulotlar, keyinchalik chuchuk sut mahsulotlari), ammo klinik simptomlar qayta paydo bo'lganda yana bir necha oy sut mahsulotlaridan cheklanish lozim.

#### Saxarozani ko'tara olmaslik.

Saxarozani ko'tara olmaslik (saxaroza-izomaltoza etishmovchiligi) – uglevodlarni ko'tara olmaslikni kam uchraydigan turi. Genetik determinirlangan shakli autosom-restessiv tipda irsiylanadi, orttirilgan shakli ingichka ichak shilliq qavatidagi atrofik (subatrofik) jarayonlar va fermentativ faollikni pasayishi bilan kechuvchi o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining oqibatida yuzaga keladi.

#### Klinik ko'rinishi

Kasallikning klinik ko'rinishi lakteza ko'tara olmaslik simptomatikasini eslatadi, faqatgina bola rastionida qisman adaptirlangan sutli aralashmalar, mevali sharbatlar va pyurelar, sabzavotli ovqatlar, qandolat mahsulotlari tarkibidagi saxaroza (qandlavlagi shakari) bo'lishi bilan tushuntiriladi. Odatdagidek, tipik

osmotik diareya va ichak disfunksiyalarining turli ko'rinishlari yuzaga keladi. Rastionda qabul qilinayotgan saxarozaning hajmi hech qachon laktozanikidek darajada bo'lmaydi. Saxaroza-izomaltoza etishmovchiligidagi diareya va ichak disfunksiyalarini saxaroza qabul qilgandan tashqari, kraxmal va oligosaxaridlar qabul qilganda ham yuzaga keladi. Izolirlangan kraxmal ko'tara olmaslik kuzatilganda ko'proq me'da osti bezining tug'ma va orttirilgan kasalliklarida amilolitik faoliyning etishmovchiligi haqida so'z boradi va bunday hollarda fermentativ preparatlar bilan o'rinosbosar terapiya o'tkazish yaxshi samara beradi.

Davolash  
Saxaroza ko'tara olmaslikda dietoterapiya saxarozani to'liq eliminasiyasi (tug'ma saxaroza-izomaltoza etishmovchiligidagi) yoki vaqtinchalik rastionda saxaroza, kraxmal va dekstrin saqlovchi mahsulotlarni cheklashni o'z ichiga oladi. Birlamchi saxaroza-izomaltoza etishmovchiligi bo'lgan ko'plab bolalarda laktosa faolligi saqlangan bo'ladi, shuning uchun ular ko'krak suti va adaptirlangan "fiziologik" laktozani standart miqdorda saqlovchi (70-75 g/l) aralashmalarni yaxshi qabul qiladilar. Bunday bemorlarga tarkibida soyali protein saqlovchi adaptirlangan aralashmalarni qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki ularda dekstin-maltoza mavjud. Bolalar shuningdek ko'p miqdorda shakar va kraxmal tutuvchi mevalarni, sabzavotlarni, sharbatlar, pyure, kisellarni ham ko'tara olmaydilar. Rastionda asosan fruktoza saqlovchi mahsulotlar (ismaloq, rangli va brussel karami, yashil nuxot, pomidor, salat,

limon, olcha, qo'zoqli loviya) tavsiya etiladi. Biroz shirinlik sifatida fruktoza yoki glyukoza ishlatalishi mumkin. Birlamchi genetik shaklida saxarozaning eliminasiyasi butun hayoti davomida, ikkilamchi (tranzitor) shaklida 10-15 sut, kamroq 1 oy davomida chegaralanadi. Fermentativ faollik va ichak shilliq qavatining butunligi tiklanganidan so'ng rastionga tarkibida saxaroza bo'lgan meva va sabzavotlar, mahsulotlar va ovqatlarni qo'shish mumkin bo'ladi.

### **Monosaxaridlarni ko'tara olmaslik**

Monosaxaridlarni ko'tara olmaslik (glyukoza-galaktoza mal'absorbstiyasi) – enterostitlar kiprikli hoshiyasining transport tizimini defekti bilan bog'liq kasallik, bunda disaxaridaza aktivligi va uglevodlar gidrolizi buzilmagan bo'ladi. Tug'ma monosaxaridlarni ko'tara olmaslik – kamdan kam hollarda uchraydigan patologiya, birinchi marta ovqatlantirilgandayyoq aniqlanadi, parenteral regidratastiya o'tkazilmasa letal oqibat bilan yakunlanadi. Fruktoza – yaxshi so'rilevchi yagona uglevod hisoblanadi.

Ikkilamchi (orttirilgan) monosaxaridlarni ko'tara olmaslik og'ir enterit bilan bog'liq, shuning uchun bu patologiya ingichka ichakdagi fermentativ faollikning pasayishi bilan qo'shilib kelishi mumkin.

### **Klinik ko'rinishi**

Tarkibida polisaxaridlari (kraxmal, dekstrin-maltoza), disaxaridlari (laktoza, saxaroza, maltoza) yoki monosaxaridlari (fruktozadan tashqari) tutuvchi har qanday mahsulot qabul qilinganda kasallikning

simptomlari yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham bu holatda ko'krak sutini laktozasiz yoki past laktozali aralashmalar bilan almashtirish ijobiylar natija bermaydi. Chaqaloq sutkada 10-20 martadan ko'proq, suyuq, suvsimon, yozilgandagi siydikni eslatuvchi, ko'plab monasaridlar (glyukoza va galaktoza) saqlovchi axlat ajratadi. Degidratastiya, kuchli tashnalik, yaqqol ichak disfunkstiyasi (meteorizm, ichak kolikasi va uning ekvivalenti) tez namoyon bo'ladi, tana harorati ko'tarilishi mumkin.

#### Davolash

Monosaxaridlarni ko'tara olmaslikda dietoterapiya – mushkul vazifa, mavjud barcha aralashmalar tarkibida yoki disaxaridlar, yoki oligosaxaridlar mavjud bo'lib, ularning gidrolizi natijasida monosaxaridlarni paydo bo'ladi va diareya va suvsizlanish yana qayta rivojlanadi.

Glyukoza va galaktozaning birlamchi mal'absorbstiyasida yagona so'riluvchi uglevod – fruktoza hisoblanadi. Davolashdagi tanlov vositasi – bolani to'liq parenteral oziqlantirishga o'tkazish yoki glyukozani parenteral kiritish va tarkibida turli xil oqsillar, yog'li emulsiyalar va vitamin-minerallar bo'lgan aralashmalar bilan enteral ovqatlantirish.

Ikkilamchi (orttirilgan) monosaxaridlarni ko'tara olmaslik – tranzitor holat hisoblanadi, lekin ba'zan disaxaridlar, fruktoza, oligo- va polisaxaridlarni ko'tara olmaslik bilan qo'shilib kelishi mumkin. Bunday holatda bola to'liq parenteral oziqlantirishga o'tkaziladi. Bunday oziqlantirish fonida 2,5% li fruktozadan boshlash mumkin,

diareya kuzatilmasa 7-8% gacha konstentrasiyani oshirish mumkin. Keyingi bosqich – oqsilli enteral preparatlar yoki go'shtli pyure, yog'li emulsiya yoki o'simlik yog'ini 1-2 tomchidan buyurish mumkin. Keyinchalik dietani fruktoza saqllovchi sabzavotlardan tayyorlangan pyure bilan kengaytirish mumkin. Glyukozani qayta kiritishni ehtiyyotlik bilan, diareya sindromi bo'limgan holatda 2,5 %li eritmasi bilan boshlash lozim. Agar bola 5% li glyukoza eritmasini o'zlashtira boshlasa, parenteral oziqlantirishni to'xtatish mumkin. Glyukoza, dekstrinlar, kraxmalni o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishilsa, saxaroza tutuvchi aralashmalar va mahsulotlar, 1-2 oydan keyin esa past laktozali aralashmalarni berish mumkin. Dietoterapiyaning har qanday bosqichida u yoki bu uglevodga ichakning fermentativ adaptasiyasi buzilishi mumkin. Bunday holatda hazm bo'ladigan mahsulotlar bilan oziqlanishga qaytish va rastionni kengaytirishga urinish lozim.

**Oziq-ovqat allergiyasida dietoterapiya**

Oziq-ovqat allergiyasi – erta yoshdagi bolalarda keng tarqalgan allergik reakstiya turlaridan biri bo'lib, organizmda allergik jarayonlarning birinchi darakchisi hisoblanadi. Oziq-ovqat allergiyasi patogenezida asosiy o'rinni atopiya, IgE va qisman IgG4 egallaydi va ovqat mahsulotlaridagi oqsil komponentlariga allergik reakstiya chaqiradi. Har qanday ovqat mahsuloti allergik reakstiya chaqirishi mumkin, lekin asosan kundalik oziq mahsulotlari allergiya sabab bo'ladi. (jadval) Tovuq tuxumi oqsillari (ovalbumin, konalbumin,

lizostim, ovomukoid) yuqori antigen faollikka ega. Baliq oqsillarining allergiya chaqirish xususiyati yuqori.

#### • Oziq-ovqat allergiyasining etiologik omillari

(Allergiyalovchi faollik darajasiga ko'ra)

Yuqori	O'rta	Past
Sigir suti;	Sariyog';	Nordon sut mahsulotlari;
Tuxum;	Cho'chqa go'shti;	Ot go'shti;
Baliq;	Kurka go'shti;	Yog'siz cho'chqa
Tovuq go'shti;	Quyon go'shti;	go'shti;
Dengiz mahsulotlari;	Mol go'shti; Grechixadan	Qo'y go'shti (yog'siz turi);
Ikra;	tayyorlangan yorma;	Rafinirlangan o'simlik
Bug'doy;	Betagadan	moyi;
Javdar;	tayyorlangan yorma;	Tariq;
Sabzi;	Kartoshka;	Perlovka yormasi;
Pomidor;	Nuxat;	Rangli va gulkaram;
Qalampir;	Dukkaklilar;	Yashil olma va nok;
Lavlagi;	Soya;	Oq qoraqat;
Selderey;	Guruch;	Sariq gilos;
Ertut;	Shaftoli;	Krijovnik;
Malina;	O'rik;	Kabachki;
Qulupnay;	Qizil qoraqat;	Patisson;
Qora qoraqat;	Klyukva;	Bodring;
Maymunjon;	Makkajo'xori;	Petrushka;

Sitrus mevalar;	Brusnika;	Ukrop;
Kivi;	Banan;	Qovoq(yorqin ranglisi);
Ananas;	Chernika;	Olxo'ri;
Qovun;	Na'matak.	Tarvuz;
Xurmo.		Bodom.

Bola hayotining birinchi yilida oziq-ovqat allergiyasiga sabab bo'luvchi omil – sigir suti hisoblanadi. Allergik potentialga ko'ra sigir sutining oqsillari bir xil emas, P-laktoglobulin, kazein, buqa zARBOb albumini, a-laktoalbumin, proteaz va pepton frakstiyalari, immunoglobulinlar yuqori antigen faollikka ega. Bola hayotining birinchi yilidayoq sigir suti va adaptirlanmagan sut mahsulotlarini qo'llash atopik kasalliklar shakllanishida xavf omili bo'lib hisoblanadi. Oziq-ovqat allergiyasining kelib chiqish sabablaridan eng ko'p uchraydigani hayvon va qush go'shtiga sensibilizastiyaning yuqoriligi hisoblanaadi (ko'proq – qo'y va tovuq go'shti).

O'simliklardan ko'proq – sitrus o'simliklar(mandarin, apel'sin, limon), mevalar (qulupnay, maymunjon, ertut, qoraqat), kamroq - o'rik, olma, olxo'ri, olcha, behi allergik reakstiyalarga sabab bo'ladi. Oziq-ovqat allergenlari spektrini shakllantirishda boshoqli o'simliklar oqsillari, ayniqsa ulardan birinchi o'rinda gliadin, keyin albumin va globulin muhim ahamiyatga ega. Bolalarda ko'proq bug'doy va javdar oqsillariga, kamroq - suli, grechka, arpa, guruch, makkajo'xori oqsillariga sensibilizastiya aniqlangan. Dukkakli

o'simliklar (nuxot, soya, yong'oq) nisbatan kamroq allergik faollikka ega, lekin kesishma gipersezuvchanlik sababli sigir sutini ko'tara olmaydigan ba'zi bolalarda oziq-ovqat allergiyasini soya asosidagi adaptirlangan aralashmalar bilan bartaraf etib bo'lmaydi.

#### Klinik ko'rinishi.

Erta yoshdagи bolalarda oziq-ovqat allergiyasini tipik ko'rinishlari – turli kattalik va og'irlikdagи atopik dermatit ko'rinishidagi teri shikastlanishi, eshakemi, Kvinke shishi, gastrointestinal buzilishlar. Atopik dermatitning namoyon bo'lishi bola hayotining bиринчи yarim yilligida kuzatiladi, bunda yallig'lanishning ekssudativ komponentining ustunligi qayd etiladi. Kam hollarda respirator belgilar kuzatiladi (rinit, astmatik bronxit, dermato-respirator sindrom). Immunoglobulinlarning A,M,G sinflari va sensibilashgan limfostitlar ishtirokidagi allergik reakstiyalar ingichka ichak shilliq qavatini shikastlanishiga olib keladi, bu ichak vorsinkalarining atrofiysi- mal'absorbsiya sindromi bilan kechadi.

#### Diagnostika

Oziq-ovqat allergiyasining diagnostikasi erta yoshda klinik-anamnestik ma'lumotlarga asoslanadi. Oziq-ovqatlar kundaligini ma'lum bir ovqat mahsulotlarini qabul qilish va paydo bo'lgan allergik simptomlar bilan bog'liqligini analiz qilish muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat allergiyasining laborator diagnostikasi immunologik, morfologik va kliniko-dietologik usullar yordamida o'tkaziladi. Oziq-ovqat allergiyasi bo'lgan bolalar ratsionini tuzish umumiy qoidalarga asoslanadi, bundan tashqari tayyor mahsulotning

allergenlik xususiyatini kamaytirish maqsadida qayta ishlash qoidalariga amal qilish kerak. Ehtiyojkorlikni texnologik usullari:

- Bo'ktirish (tozalangan va mayda to'g'ralgan kartoshka sovuq suvda 12-24 soat davomida, qolgan sabzavotlar 1-2 soat davomida bo'ktiriladi);
- Qaynatish (go'sht ikki marta qaynatiladi);
- Bug'da tayyorlash;
- Toblab pishirish.

Tozalangan (filtrlangan) suv, asosan instant ishlab chiqarish mahsuloti bo'lган kashalar tayyorlashda qo'llaniladi. Oziq-ovqat allergiyasida ovqatlantirish turiga, klinik belgililar intensivligiga va allergenga bo'lган sensibilizastiya darajasiga ko'ra dietoterpiya taktikasi turlicha bo'ladi. Ko'krak suti ko'p hollarda me'da-ichak trakti faoliyatida nutritiv, immunologik va mikroekologik sharoit yaratishiga qaramasdan, ba'zi bolalarda ko'krak suti bilan boqilganda allergodermatoz va gastrointestinal allergiyalar kelib chiqadi. Bunday hollarda ko'krak bilan boqish davomida ona o'z rastionidan sigir suti va yuqori allergenlik xususiyatiga ega bo'lган mahsulotlarni chiqarib tashlashi lozim. Rastionda nordon sut mahsulotlari, smetana va pishloqning achchik bo'lмаган turiga ruxsat etiladi. Bug'doy uni, makaron mahsulotlari, krupa 20-25% ga, shakar va tuz 30% ga kamaytiriladi.

Ko'krak yoshidagi bolalarda oziq-ovqat allergiyasining ko'p uchraydigan sababi sigir suti (79-89%) ekanligini hisobga olib,

bunday bemorlarga quyidagi dieta korrekstiyasini qo'llash maqsadga muvofiq.

sh:

Sigir sutini ko'tara olmaydigan bolalarning hayotini birinchi yilidagi asosiy tanlov mahsulotlari

Tabiiy oziqlantirish	Tabiiy oziqlantirishni maksimal davomiyligini saqlash (onada gipoallergen dietani qat'iy tayinlash)	
Aralash oziqlantirish	Qo'chimcha ovqat to'liq yoki qisman gidrolizlangan sut oqsili gidrolizati asosidagi aralashmalar, soyali aralashmalar	
Sun'iy oziqlantirish	Sigir suti oqsillariga kam sezuvchanlikda	Nordon sutli aralashmalar Qisman gidrolizlangan oqsil gidrolizati asosidagi aralashmalar
	Sigir suti oqsillariga o'rta sezuvchanlikda	Soyali aralashmalar To'liq gidrolizlangan oqsil gidrolizati asosidagi aralashmalar

Muhim muolaja – sutli aralashmalar hajmini kamaytirish uchun qo'chimcha ovqat sifatidagi mahsulot va ovqatlarni tog'ri tanlab berish. Oziq-ovqat allergiyasi bo'lgan bolalarga qo'chimcha ovqat sog'lom bo'lgan davrda beriladi. Har bir yangi mahsulot nazorat ostida olinadi, teri va ichak sindromlarini kuzatgan holda oziq-

ovqatlar kundaligiga qayd etiladi, ovqatlantirish qoidalari onaga tushuntiriladi. Meva va sabzavotlardan yashil va oq olma (semirenko, paxta olma, antonovka navlari), nok, oq qoraqat, oq gilos, sariq olxo'ri afzal ko'rildi.

Birinchi qo'chimcha ovqat sifatida – sabzavotli pyure – kabachok, patisson, rangli karam, kartoshka kiritish tavsiya etiladi. Kartoshkani hajmi pyureda 20% dan oshmasligi kerak. Avvaliga bolaga bir sabzavotdan tayyorlangan pyure, keyinchalik 3-4 kunda bir marta uning tarkibi kengaytiriladi. Pyure tayyorlashda nafaqat tabiiy mevalardan, balki bolalar uchun mo'ljallangan konservalardan ham foydalanish mumkin. Pyurega o'simlik yog'i ko'shish mumkin (rafinirlangan va xushbo'ylashtirilgan): kungaboqar, makkajo'xori yoki zaytun yog'i.

Ikkinci qo'chimcha ovqat sifatida – sutsiz bo'tqalar, aniqlangan sensibilizastiyaga ko'ra individual tanlanadi. Bo'tqalar suvda yoki maxsus aralashmalarda (soyali yoki oqsil gidrolizat asosli aralashmalar) tayyorlanadi, eritilgan sariyog' yoki o'simlik moyi qo'shiladi.

Uchinchi qo'chimcha ovqat 6,5-7 oyligida ikkinchi sabzavotli pyure yoki sabzavot-krupali ovqat beriladi. Elinimastion dieta 10 kun davomida yaxshi samara bermasa yoki restidivlar kuzatilsa, dieta qayta ko'rib chiqiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalari o'rtasida kesishma allergiya ham mavjudligini unutmaslik lozim. Og'ir shakldagi allergodermatoz bo'lgan bemorlarga bir necha oy davomida faqat tarkibi oqsil gidrolizati bo'lgan aralashmalar beriladi,

keyinchalik kam allergenli xususiyatga ega bo'lgan mahsulotlar juda ehtiyyotlik bilan beriladi. Dietoterapiyadan tashqari bunday bemorlarga medikamentoz davo ham qo'llaniladi, lekin allergodermatozning rivojlanish ehtimoli va involyustiya tezligi rastiondag'i adekvat parhezning korrekstiyasiga bog'liq. Oziq-ovqatdagi allergenlarni cheklash muddati 6-12 oydan kam bo'lmasligi lozim, so'ngra teri sindromi nazorati ostida uni qo'llash takrorlanadi (allergologik tekshiruvlardan so'ng).

#### **Maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish.**

O'quv muassasasining xarakteriga ko'ra maktablar boshlang'ich, to'liq bo'limgan o'rta, o'rta , kechqurungi, maxsuslashtirilgan turlarga ajratiladi (u yoki bu predmetni chuqurlashtirilib o'qitishga qaratilgan gimnaziyalar, listeylar.). BTM(bolalar ta'lim muassasasi)dagidek, maktablar tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ining holatiga ko'ra ham ajratiladi. Bular sog'lom bolalar uchun umumta'lim maktablari, yurak nuqsoni bor bolalar uchun umumta'lim maktablari (kar-soqov , ko'r, aqliy qoloq bolalar uchun internat maktablari), sanator tipidagi maktablardir (sil, revmatik isitma, osteomielit va h.k.bilan kasallangan bolalar uchun).

Maktab o'quvchilarining sog'lig'ini kompleks baholash.

Chuqurlashtirilgan ko'rik maktablarda sentyabrdan aprel oyigacha maktab joylashgan tumandagi poliklinika mutaxassislarini jalb qilgan holda o'tkaziladi (birinchi sinf o'quvchilari o'quv yilining so'ngida ko'rikdan o'tkaziladi). Maktab shifokori o'quvchilarda

tibbiy ko'rikning grafigini tuzadi, bu bolalar poliklinikasining mudiri va maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Maktab direktori hamma o'quvchilarni tibbiy ko'rikka qatnashishini ta'minlaydi. Har bir bola maktabda o'qiyotgan davr mobaynida (7 dan 18 yoshgacha ) shifokor-mutaxassislar tomonidan profilaktik ko'rikdan 7 marta tekshirilishi zarur. Kompleks ko'riklar UTM(umum ta'lim maktabi) da o'tkaziladi :

- birinchi sinf oxirida ( 7—8 yoshda),
- III sinf oxirida (9—10 yoshda, prepubertat davr),
- V sinfda ( 11-12 yoshda, predmetli o'qitilishshga o'tishda , pubertat davrning boshlarida ),
- VII sinfda ( 13-14 yoshda, ko'pchilik qizlarda hayz stiklining shakllanishida),
- IX sinfda ( 15-16 yoshda maktabni tugatish davrida ),
- X sinfda ( 16-17 yoshda),
- XI sinfda ( 17-18yoshda).

Kompleks profilaktik ko'riklar bilan bir qatorda tekshirishlar o'tkazilmasa UTM da ishlaydgan shifokor-UASH tomonidan yiliga bir marta bolalarda shifokorgacha bo'lgan skrining-test va o'tkazilishi shart bo'lgan proflaktik ko'rik amalga oshiriladi. Profilaktik ko'riklarni bolalarda o'quv yilining ikkinchi yarim yilligida o'tkazilishi lozim.

Profilaktik ko'rik 3 etapda o'tkaziladi.

#### 1. Shifokorgacha ( skrining testining dasturi asosida).

2. Shifokor — UASH, shifokor-mutaxassislar: xirurg/ortoped, bolalar nevropatologi, oftal'molog, otolaringolog, stomatolog, logoped (maktabgacha bo'lgan bolalar), bolalar ginekologi (qizlarni 9-10 yoshdan) yoki urolog/androlog (o'g'il bolalarni 11-12 yoshdan) ko'rige. Laborator tekshiruvlarni (qon, siyidik tahlillari, va gjijalar tuxumiga najas tahlili) oldindan amalga oshirishi lozim, bu shifokorlarga ko'rik vaqtida tahlillar natijasi bilan tanisha olishga yordam beradi. EKG, bola maktabga chiqishidan oldingi ko'rikdan boshlab, bolalar poliklinikasida o'tkazuvchi apparatlar mavjud holatda- ta'lim muassasalarida, o'tkazuvchi elektrokardiograflar bo'limganda esa — poliklinikaning funkstional diagnostika xonalarida o'tkazilishi lozim. O'smirlar flyuorografik tekshiruvlari (15 yoshdan) yiliga 2 marta poliklinikaning flyuorografik xonalarida yoki silga qarshi dispanserlarda o'tkaziladi.

3. Maxsuslashtirilgan — chuqurlashtirilgan tekshiruvlar ko'rsatmalar bo'yicha tor doira shifokor-mutaxassislar tomonidan, jumladan kardiolog (revmatolog), gastroenterolog, endokrinolog, urolog, nefrolog, allergolog, pulmonolog, psixiatr, dermatolog tomonidan zarur laborator-instrumental tekshiruvlarni o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

#### **Ko'rik-1 (maktabda birinchi o'quv yilining so'ngida).**

Shifokorgacha etapni skrining-test dasturi bo'yicha matab tibbiy personali amalga oshiradi. Laborator tekshiruvlar (siyidikda oqsil va glyukozni aniqlash) xuddi BTM(bolalar ta'lim muassasasi)

dagidek o'tkaziladi. Shartli ko'rinishda maktab o'quvchilari EKG-tekshiruvidan o'tkaziladi. UASH profilaktik ko'rikni yakuni buyicha ota-onalarga yozgi ta'til davrida bolani sog'lomlashtirish buyicha tavsiyalar beradi.

#### **Ko'rik-2(9-10 yosh)**

Shifokorgacha etap va laborator tekshiruvlar birinchi yil oxiridagidek bajariladi. Ginekologik ko'rik — ambulator-poliklinika sharotida o'tkaziladi. Qizlarning jinsiy a'zolarini tog'ri rivojlanayotganligiga ahamiyat berish lozim hamda yallig'lanish jarayonlari mavjud bo'lganda, ularning belgilarini tashxislash lozim. UASH yozgi ta'til davrida bolani sog'lomlashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

#### **Ko'rik-3(11-12 yosh)**

1-chi etap, shifokorgacha skrining-test dasturini tibbiy hamshira o'tkazadi. Shikoyat va xavf omillarini ko'rsatuvchi anketalarni o'quvchilarning o'zları to'ldirishadi. Laborator tekshiruvlar xuddi III sinfdagidek.

2-chi etapda bola tekshiruvini UASH va shifokor-mutaxassislar, oldingi tekshiruvlardagi tartibda o'tkazishadi. Shartli ravishda EKG qilinadi. Ambulator-poliklinika sharoitlarda ginekolog qizlarni ko'rikdan o'tkazadi (11 yosh va undan kattalarni), urolog/androlog — o'g'il bolalarni (11 yosh va kattalarni) tekshiradi.

3-chi etap — maxsuslashtirilgan (shifokor-mutaxassislar, jumladan ko'rsatmalar bo'lganda endokrinolog tekshiruvi o'tkaziladi).

Xulosa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bolaning asab-ruhiy, jismoniy va biologik rivojlanish darajasini baholash;
- Salomatlik guruhini aniqlash
- Anatomik nuqsoni bor bo'lgan va kasb tanlashda imkoniyati chegaralangan o'quvchilarda taxminiy shifokor maslahati;
- Sog'lig'iga va funkstional imkoniyatlariga mos ravishda bolani tog'ri kasb tanlashi buyicha ota-onalarga tavsiyalar berish.

#### Ko'rik-4 (13-14 yosh)

Shifokorgacha bo'lgan etap bolani 11-12 yoshdagi tekshiruviga analogik tarzda o'tkaziladi. Asosiy e'tibor qizlarga qaratiladi. Bunda ikkilamchi jinsiy belgilarni baholash skrining testlar (jinsiy formulani aniqlash uchun) va 13—14 yoshdagi qizlarda menstrual funkstiyaning holatini baholash uchun anketali testlar qo'llaniladi. Laborator tekshiruvlar xuddi V sinfdagidek amalga oshiriladi.

2-chi etapdagagi tibbiy tekshiruvning tashkillashtirilishi, hajmi, xulosa va tavsiyalar oldingi yoshdagi proflaktik ko'rikka mos kelishi lozim. EKG tekshiruvi o'tkazilishi shart.

Xulosa kuydagilarni o'z ichiga oladi:

- Somatik, nerv-ruhiy va reproduktiv salomatlik holatini baholash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik holatini baholash;
- Salomatlik guruhi, jismoniy tarbiya darslari uchun tibbiy guruhnani aniqlash;

-Anatomik nuqsoni bor bo'lgan va kasb tanlashda imkoniyati chegaralangan o'quvchilarni ota - onalariga tog'ri kasb tanlash bo'yicha maslahatlar berishi.

#### Ko'rik-5 (15-16 yosh)

Shifokorgacha bo'lgan etap 13—14 yoshdagi tekshiruvlarga analogik tarzda o'tkaziladi Laborator tekshiruv oldingi etaplardagidek bo'ladi. EKG-tekshiruvi o'tkazilishi shart. 15 yoshdan boshlab yiliga 2 marta flyuorografik tekshiruv o'tkaziladi.

1- etapda qizlarga alohida e'tibor beriladi jinsiy formulani aniqlash o'tkaziladi, o'smirlik yoshidan katta qizlarda menstrual funkstiyaning holatini baholash uchun anketali test qo'llaniladi.

2-chi etapdagagi tibbiy tekshiruvning tashkillashtirilishi va hajmi, xulosa shakli va tavsiyalar, oldingi davr yoshdagi o'tkazilgan profilaktik ko'rikka mos kelishi lozim. Kompleks tekshiruv ma'lumotlari asosida reproduktiv salomatlik buyicha xavf guruhlari ajratiladi. Reproduktiv salomatlikni profilaktikasi uchun xavf guruhiga kiruvchi qizlar bilan sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar o'tkazilib, ularning ustidan dispanser nazorati olib boriladi. Armiya xizmatigacha bo'lgan yoshdagi o'g'il bolalarning profilaktik ko'rik natijalarini ruyxatdan oldingi etapda zarur bo'lgan diagnostik va davolash-sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini aniqlash va amalga oshirish uchun tuman voenkomatlariga beriladi.

Shu davrning o'zida hamma o'quvchilarga shifokor maslahat beradi va sog'lig'ining holatiga mos ravishda kasb va mutaxassislikni tanlash bo'yicha taxminiy tavsiyalar beriladi. Alohida e'tibor mifik

ta'limini tugatib, ishlab chiqarishda ishlaydigan yoki o'rta kasb ta'limi muassasalarida tayyorgarlik ko'ruvchi o'quvchilarga qaratiladi.

#### **6-7 Ko'riklar**

VI—VII ko'riklar ta'lim muassasasini tugatishdan oldin olib boriladi ( 16 va 17 yoshda). Profilaktik ko'rikning barcha etapları, laborator-instrumental tekshiruvlar 15—16 yoshdagı ko'rikka analogik tarzda olib boriladi . Xulosa va tavsiyalarni tuzishda e'tibor o'smir o'g'il va qiz bolalarning somatik, nerv-ruhiy va reproduktiv sog'lig'iga, ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga karatiladi. O'smir o'g'il bolalarning profilaktik ko'rik natijalari tuman voenkomatlariiga beriladi va 17 yoshida ro'yxatga olishdagi tibbiy guvohnomada va 18 yoshda xizmatga chaqiriqda Qurolli Kuchlar xizmatiga yaroqlilikni aniqlashda hisobga olinadi. Sog'lig'ida o'zgarishlar mavjud bo'lgan o'smirlarga sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar buyurilib, territorial DPM (davolovchi profilak muassasa) da , sharoit bo'lganda esa-ta'lim muassasalarida olib boriladi. Tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra uash har bir maktab o'quvchisi uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra individual xulosalar tuzadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Yakuniy tashxis (asosiy va yondosh kasalliklar),
- Jismoniy va ruhiy rivojlanishni baholash,
- Sog'lomlik guruhi,
- Jismoniy tarbiya darslari uchun tibbiy guruh ,

-Keyingi kasbiy faoliyatida (o'smirlar uchun) sog'lig'ining holati bo'yicha cheklanishlarni baholash,

-Harbiy xizmatga (o'smir-yigitlar uchun ) yaroqlilik bo'yicha bo'lishi mumkin bo'lган cheklanishlarni aniqlash,

-Kun tartibi, ovqatlanish, jismoniya tarbiya, vakstinoprofilaktika, dispanser nazoratiga yo'llanma bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bolada birinchi bor paydo bo'lган funkstional buzilishlar va surunkali kasalliklar aniklanganda yoki patalogik jarayonlar va funkstional buzilishlar kechishida xavfli tendenstiylar tashxis aniqlanganda ta'lim muassasasida ishlovchi uash bolani individual tartibda kasalligi bo'yicha yashash joyidagi bolalar poliklinikasiga tekshirish uchun yo'llanma beradi . UASH uash ota-onaga bolaning sog'lig'idagi buzilishlar va zarur bo'lган tibbiy tekshiruv va davolash tog'risida ma'lumot beradi. Kasal bolada tekshirish, davolash va dispanser nazoratini poliklinka sharoitida shifokor-mutaxassislar olib boradi. Dispanserizastiya bo'yicha hamma ma'lumotlar o'quvchining rivojlanish individual kartasiga kiritiladi. ( 026/u- 2000 shakl).

